

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

811.111'255.2:008
811.512.133'255.2:008

XAMIDOVA SEVARA BAXTIYOROVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA BADIY MATN
PARADOKSLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari doktori, professor
Mamatov Abdug‘afur Eshonqulovich

JIZZAX – 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB.PARADOKS LINGVISTIK FENOMEN SIFATIDA.....	
1.1.§.Paradoks tushunchasining lingvistik tavsifi va terminologik xususiyatlari.....	12
1.2.§.Paradoksal matn tushunchasining lingvistik va aforistik tavsifi.....	26
1.3.§.Paradoksal uslub va uning sintaktik xususiyatlari.....	40
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	49
II BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA PARADOKSNING MA'NO HOSIL QILISH POTENSIALI.....	
2.1.§. Paradoksning uslub kategoriyasi va allegorik - aforistik tabiati.....	51
2.2.§.Badiiy matnda paradoks va uning sintaktik xususiya.....	60
2.3.§.Paradoksning kognitiv tabiati: alogik(mantiqsiz) til birliklari va ziddiyat, prezumpsiya, presuppozitsiya va implikatsiya.....	64
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	83
III BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA PARADOKSLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	
3.1.§.Lingvomadaniyatshunoslik – til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi fan sifatida	85
3.2.§.Til birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari.....	94
3.3.§.Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik paradokslarning lingvokulturologik jihatlari.....	112
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	122
UMUMIY XULOSALAR	123
FOYDALANILGAN ADABIYTLAR RO'YXATI	125

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida turli tizimli tillarning madaniyat rivojidadagi o‘rni, jamiyatning ijtimoiylashuvidagi ahamiyati, insonning ruhiy ongidagi real jarayonlar oqimining lisoniy manzarasini yaratish va chog‘ishtirish amalga oshirilmoqda. Tilga antropotsentrik yondashuv talabining oshib borishi, muayyan millatga xos madaniy belgilarning tilda aks etishi, olamning lisoniy manzarasini yaratish asnosida til birliklari lingvopragmatik, lingvokognitiv, antropotsentrik paradigma kabi yangi konsepsiyalar asosida talqin etilmoqda. Xalq an‘analari, qadriyatlarini, urf-odatlarini ifodalovchi paradokslarni nafaqat bir til doirasida, balki turli tizimli tillar lingvomadaniyatshunosligida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida paradokslar, jumladan, frazeologik paradokslarning universal va unikal jihatlari talqiniga bag‘ishlangan qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiqotlar muhim o‘rin tutmoqda. Paradokslar inson tafakkurining mahsuli sifatida mantiq, falsafa, tilshunoslik, psixologiya va boshqa fanlar doirasida o‘rganilib, ularning qiyosiy-tipologik lisoniy belgilari yoritilmoqda. Zamonaviy tilshunoslikda paradoksal tuzilmalar lingvo-stilistik hodisa sifatida, kognitiv aspektda, shuningdek, lingvokulturologik yo‘nalishda hamda xorijiy tillarini o‘qitishda matn bilan ishlash amaliyoti dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ilm-fanni rivojlantirish, jumladan, xorijiy tillarni o‘qitish borasidagi ilmiy, ilmiy-amaliy izlanishlar ko‘lamini kengaytirish maqsadida tadqiqotchilar oldiga qator vazifalar qo‘yilmoqda. “O‘quv jarayonini metodik qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchilarning asosiy til ko‘nikmalarini mustahkamlash va qo‘llashda ko‘maklashish...”¹ ga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xorijiy tillarni nazariy va amaliy egallash xalqlararo munosabatlarni mustahkamlash, ingliz va o‘zbek tillaridagi til birliklarini, jumladan, til paradokslarini, ularning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda. Paradokslarni milliy-madaniy jihatdan tahlilga tortish, o‘xshash,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. lex.uz.

farqli va o'ziga xos tomonlarini chog'ishtirma tahlil orqali aniqlash ushbu yo'nalishda hal etilmagan masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekiston yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda til tizimining turli sathlariga oid birliklarning nutqiy muloqot muhitlarida shakllanishini o'rganish, ularning sintaktik-semantik va pragmatik ko'rsatkichlari munosabati va o'zaro bog'liqligi, xususan, badiiy matnda paradoks va uning sintaktik xususiyatlari, kognitiv tabiati alogik (mantiqsiz) til birliklari va ziddiyat, prezumpsiya, presuppozitsiya va implikatsiya bo'yicha muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgan².

² Арнольд И. В. Стилистика. Современный английский язык: Учебник для вузов – Изд.8-е – М.: Наука, 2002. – 384с.; Танеев Б.Т. Семантика и прагматика парадоксальных высказываний: автореф. дис. канд. филол. наук – Уфа, 1988. – 16 с.; Заботина Е.Н. Когнитивное моделирование структур парадокса современных английских скетчах: автореф. дис. кандидата филол. наук: 10.02.04 – Санкт-Петербург, 2012. – 24 с.; Forrester M. A. Psychology of Language. A Critical Introduction. – London: Sage Publications, 1996. – 216 p The Oxford Dictionary of Quotations. Oxford, New York: Oxford University Press, 1992. – 1061 p.; Wilde O. The decay of Lying / http://cogweb.ucla.edu/Abstracts/Wilde_1889.html; Wilde. Letters on Dorian Gray. Mr. Oscar Wilde's Defense // Selections from Oscar Wilde. – М.: Progress Publishers, 1979. – 355 p.

XX asr absurd adabiyoti yangi yo‘nalishining vakillari E.Ionesko, G.Pinter, S.Mrojek³ va boshqalar tomonidan dunyoning lisoniy manzarasini, atrof-muhit hamda voqelikni tasvirlashda paradoksdan foydalanishning lingvistik tavsifi, pragmatik xususiyatlari tahlil etilgan. Tilshunos olimlar badiiy matnlarda paradoks mutlaqo tabiiy va hatto zarur element hisoblanishini ta’kidlaydilar.

Paradokslarni lingvomadaniy yondashuv asosida o‘rganishda bir qator xorijiy tilshunos olimlar, xususan, ingliz olimlaridan A.P.Kovi, M.Omaziyu, K.Steyer, S.Xanston⁴ larning ilmiy tadqiqot ishlari katta ahamiyatga ega. Lingvistik asarlarda paradoks, asosan, matnda muayyan vazifalarni bajaruvchi stilistik vosita, stilistika nuqtayi nazaridan esa paradoks badiiy asarda ekspressiv hamda hajviy effekt hosil qiladigan ziddiyat sifatida izohlanadi.

Badiiy matndagi paradokslarning lingvomadaniy xususiyatlari esa N.F.Alefirenko, V.A.Maslova, A.V.Kunin, V.N.Teliyalarning⁵ ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan.

Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi hamda bu o‘rinda paradokslarning stilistik imkoniyatlari masalalari o‘zbek tilshunoslaridan D.U.Ashurova, O‘.K.Yusupov, T.A.Bushuy, Sh.S.Safarov, A.E.Mamatov, N.M.Maxmudov, D.S.Xudayberganova, J.Sh.Jumaboyeva⁶larning ilmiy tadqiqotlarida muayyan

³ Ionesko E.The Editors of *Encyclopaedia Britannica*. “Theatre of the Absurd”. *Britannica* online; Harold Pinter: The Absurdist-Existentialist Playwright// *Journal of Social Sciences & Humanities of Shiraz University* vol. 23, №.1, Spring 2006 (46); [“Sławomir Mrozek, from the Encyclopædia Britannica”](#). *Encyclopaedia Britannica*.

⁴Cowie A.P. *Phraseology. Theory, Analysis, and Applications*.Oxford Stud-ies in Lexicography and Lexicology. – Oxford: Oxford University Press,1998.; Omaziü M. Patterns of phraseological unit’s modifications. Häcki Buhofer, Annelies, Harald Burger, eds. *Phraseology in Motion II*. – Baltmannsweiler: Schneider, 2007; Steyer K. Corpus linguistic exploration of modern proverb use and proverb patterns. *Computational and corpus-based phraseology: Recent advances and interdisciplinary approaches, Proceedings of the Conference Volume II*. – London, UK, Geneva: Editions Tradulex, 2017. – P.45–52; Hunston S. *Corpora and language teaching: issues of language*. Cambridge University Press. – Cambridge: 2010. – P.137-169.

⁵Алефиренко Н.Ф. Провербальное порождение культурных концептов и их фразеологическая репрезентация // *Филол. науки*. 2002. № 5. – С. 72-81.; [Маслова В. А. Лингвокультурное введение в теорию человека / В. А. Маслова // Вестник Московского государственного областного университета. Сер. Лингвистика. – 2019. – №3. – С. 21–28](#). Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка – Москва, 2005. – С.313; Телия В.Н. Культурно-национальные коннотации фразеологизмов (от мировидения к миропониманию) // *Славянское языкознание. XI Международный съезд славянистов*. – М.: Наука, 1993. – 314 с.

⁶Ашурова Д.У. Перспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики // *Филология масалалари*. – Тошкент, 2004. – №4. – Б. 37-40.; Юсупов Ў.К. Тилшуносликда янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим истилохлар// *Филология масалалари*. – Т., 2011. – №2. – Б. 9-15.; Бушуй Т.А. Проблема языка и нации в лингвокультурологическом аспекте // *International scientific review*. – 2019. – № LVI.; Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Самарқанд: Санзор нашр, 2006. – 92 б.; Маматов А.Э.Тилга когнитив ёндашувнинг мохияти нимада? Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. – Андижон, 2012; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // *Ўзбек тили ва адабиёти*. –Т., 2012. – № 5. –

tarzda yoritilgan. Frazеologik birliklarning turli tizimli tillar kesimida lingvomadaniy jihatdan chog‘ishtirib o‘rganishga ham talab oshib bormoqda. Bu sohada o‘zbek olimlaridan Sh.Rahmatullayev, M.I.Umarxodjayev, Sh.S.Imyaminova, A.E.Mamatov⁷larning ilmiy tadqiqot ishlari ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga tilshunoslikda paradoksal hodisa, paradoksnings ma’no tashkil etuvchi xususiyatlari, badiiy matndagi leksik imkoniyatlari masalalari yetarli darajada tadqiq qilinmasdan qolmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Turli tizimdagi tillarning lisoniy va tipologik xususiyatlari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi paradokslarning badiiy matnlardagi lisoniy va lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tilshunoslikda paradoks tushunchasining talqiniga munosabat bildirilib, uning oksyumoron, antiteza, antinomiya, xiazm kabi tasviriy vositalardan birlashtiruvchi va farqlovchi belgilarini aniqlash;

ingliz va o‘zbek tillarida paradoks tushunchasining lingvistik tavsifi, terminologik belgilari, paradoksal matnning sintaktik xususiyatlarini aniqlash, ingliz va o‘zbek tillarida paradokslarning strukturaviy – semantik va lingvomadaniy jihatini tahlil qilish, paradokslarning uslub kategoriyasi va allegorik – aforistik xususiyatlarini aniqlash;

ingliz va o‘zbek tillarida paradoks va uning sintaktik xususiyatlari, paradoksnings kognitiv tabiati, alogik (mantiqsiz) til birliklari va ziddiyat,

B.10.; Худайберганава Д.С.Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. док-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2015. – Б.18; Djumabaeva J.Sh.Translation Problems of Phraseological Units: Idioms and Set Expressions// Academic research in educational sciences, 2022.№3/4– P.906-911.

⁷ Раҳматуллаев Ш.Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 408 б.; Умарходжаев М.И. Основы фразеологии: автореф. дис. д-ра филол. наук. – М., 1981. – 56с.; Имяминова Ш.С. Немис тили фразеологияси (ўқув қўлланма). – Т.: Мумтоз сўз, 2011. – 80 Б. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Фил.ф. докт. дис. автореф. – Тошкент, 2000. – 56 б.

prezumpsiya, presuppozitsiya va implikasiya bilan bog‘liq belgilarini ochib berish;

ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik paradokslarning lingvomadaniy jihatlarini tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy asarlardan olingan matnlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillaridagi paradoksning leksik-sintaktik va funksional-semantik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada chog‘ishtirma, qiyosiy-tipologik, distributiv, transformatsion, sintaksem kabi tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paradoks hodisasining oksyumoron, antiteza, antinomiya, xiazm kabi tasviriy vositalar bilan ichki va tashqi ziddlik kabi birlashtiruvchi va ma’noning dinamikligi singari farqlovchi belgilari mavjudligi ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida paradoksal ma’nolarning eksplikatsion va implikatsion shakllanishi, ularning strukturaviy-semantik, uslubiyi va allegorik-aforistik xususiyatlari asoslangan;

ingliz va o‘zbek tillarida paradoksning grafik, fonologik, leksik, morfologik, sintaktik kabi lingvistik modellari aniqlangan, lingvokulturologik hamda stilistik xususiyatlari qiyosiy – chog‘ishtirma aspektda ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi “o‘pkasini qo‘ltiqarmoq” (like a bat out of hell, to beat a hasty retreat), “oyog‘ini qo‘liga olib qochmoq” (get your skates on), “bir boshini ikkita qilmoq” (tie the knot, get hitched), “boshini olib chiqib ketmoq” (hit the road, duck out, storm off) kabi frazeologik paradokslarning ziddiyatli ma’no xususiyatlari va badiiy matndagi o‘rni aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillarida paradokslarning semantik – funksional va lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etish asosida to‘plangan materiallar, chiqarilgan xulosalar turli tizimli tillarni chog‘ishtirib o‘rganish hamda lingvokulturologiya, o‘rganilayotgan tillar madaniyati, til aspektlari,

integrallashgan til kursi fanlarini o‘qitishda amaliy jihatdan yordam berishi asoslangan;

ingliz va o‘zbek tillarida paradokslarning tahlili, chog‘ishtirilayotgan tillarning o‘ziga xos paradoksal xususiyatlari asosida to‘plangan til materiallari turli tizimli tillar paradokslarining qiyosiy-tipologik aspektdagi lisoniy belgilarini yoritishga xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida paradoksal matnlarning tahlillari va ulardan olingan xulosalar ingliz tili matni ustida analitik va tahliliy ishlar olib borish, oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida, chet tillarini o‘qitishda matn bilan ishlash amaliyotida muhim vosita ekanligi ochib berilgan;

ingliz va o‘zbek tillarida paradoks va uning sintaktik xususiyatlari, paradoksning kognitiv tabiati, alogik (mantiqsiz) til birliklari va ziddiyat, prezumpsiya, presuppozitsiya va implikatsiya bilan bog‘liq xususiyatlari dalillangan.

Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi chiqarilgan xulosalarning qat’iyligi, olingan tadqiqot natijalarining aniqligi va ishonchliligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va tadqiqot usullari, tahlil qilingan materiallar hajmining yetarliligi, nazariy ma’lumotlar ishonchli va mavjud manbalardan, jumladan, dissertatsiyalar, avtoreferatlar, frazeologik lug‘atlardan olinganligi, nazariy xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi va erishilgan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek tillari adabiy me’yorlari, grammatikasi, leksikologiyasi, stilistikasi, tarjimashunosligi hamda lingvomadaniyatshunoslik bo‘yicha nazariy manba ekanligi, shuningdek, tadqiqotning xulosalaridan, natijalaridan ilmiy maqolalar, magistrlik dissertatsiyalari, bitiruv malakaviy ishlarini yozishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ilmiy ishdan olingan natijalardan “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Umumiy tilshunoslik”, “Leksikologiya”, “Frazeologiya”, “Tarjima nazariyasi”, “Qiyosiy tipologiya” kabi fanlar

bo'yicha o'quv qo'llanmalar, darsliklar, lug'atlar, ma'ruza matnlarini yaratishda ingliz va o'zbek tillari misolida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillarida paradokslarning lingvomadaniy tahlili bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

paradoks hodisasining oksyumoron, antiteza, antinomiya, xiazm kabi tasviriy vositalar bilan ichki va tashqi zidlik kabi birlashtiruvchi va ma'noning dinamikligi singari farqlovchi belgilari mavjudligi ochib berilganligi to'g'risidagi xulosalardan "O'qish va yozuv" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-son buyrug'i bilan № 232-623-raqamda tasdiqlangan nashr guvohnomasi). Natijada darslikning ikkinchi qismining nazariy manbalar bilan boyitilishiga erishilgan.

ingliz va o'zbek tillarida paradoksal ma'nolarning eksplikatsion va implikatsion shakllanishi, ularning strukturaviy-semantik, uslubiy va allegorik-aforistik xususiyatlari haqidagi xulosalaridan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2020-2021 yillarga mo'ljallangan 561624-YeRR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillari institutining 2023-yil 4-apreldagi 888/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida yaratilgan uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqishda hamda talabalar va o'qituvchilarning bilim va malakalarini oshirishga hissa qo'shgan;

ingliz va o'zbek tillarida paradoksning grafik, fonologik, leksik, morfologik, sintaktik kabi lingvistik modellari aniqlangan, lingvokulturologik hamda stilistik xususiyatlari qiyosiy – chog'ishtirma aspektda ochib berilganligi haqidagi xulosalaridan Belarus davlat texnologiya universitetining 2021-2023 yillarga mo'ljallangan № 31-son "Texnika universiteti talabalari o'rtasida ikkinchi darajali lingvistik shaxsni shakllantirishning akmeologik kasbiy yo'naltirilgan modeli

doirasida chet tilini o‘zgaruvchan o‘qitish texnologiyalari” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Belarus davlat texnika universitetining 2023-yil 6-apreldagi 31-VD-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqot materiallari universitetda talabalar uchun tarjimashunoslikda paradokslarning lingvokulturologik xususiyatlarini o‘qitishni samarali shakllantirishda, loyihada eksperimental ishlarini amalga oshirishni tashkil etishda, shuningdek, madaniyatlararo muloqot yordamida talabalarning madaniyatlararo kompetentsiyalarini boyitishga yordam bergan;

ingliz va o‘zbek tillaridagi “o‘pkasini qo‘ltiqarmoq” (like a bat out of hell, to beat a hasty retreat), “oyog‘ini qo‘liga olib qochmoq” (get your skates on), “bir boshini ikkita qilmoq” (tie the knot, get hitched), “boshini olib chiqib ketmoq” (hit the road, duck out, storm off) kabi frazeologik paradokslarning ziddiyatli ma’no xususiyatlari va badiiy matndagi o‘rni xususidagi xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma’rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Adabiy jarayon” va “Ta’lim va taraqqiyot” nomli radioeshittirishlarni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023- yil 31-martdagi 04-36-486-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz va o‘zbek tillarida paradokslarning o‘ziga xos xususiyatlari, ziddiyatlikni anglatuvchi boshqa stilistik vositalardan farqlovchi belgilar hamda ingliz tilidagi badiiy matnlarda paradoksal matnlarning lingvokulturologik aspektlari doirasida teletomoshabinlarda tasavvur shakllanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, ulardan 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 124 sahifani tashkil etadi.

I BOB. PARADOKS LINGVISTIK FENOMEN SIFATIDA

1.1-§. Paradoks tushunchasining lingvistik tavsifi va terminologik xususiyatlari

Paradokslar badiiy matnda stilistik vosita sifatida o‘z lingvistik an‘analari, tekshirish obyekti, tadqiq yo‘li va usuliga ega bo‘ldi, zamonaviy yondashuvlar asosida o‘rganilib, muayyan natijalarga erishdi⁸. Jumladan, paradokslarning lingvokulturologik tadqiqi xorijiy tillar misolida hamda ularning chog‘ishtirma tahlili an‘anaviy usullarda ham, zamonaviy usullarda ham ma‘lum darajada o‘rganildi⁹. Paradoksal matnlarning struktural-grammatik, semantik-uslubiy, funksional jihatlari yoritildi.

Dunyo tillarining lug‘aviy-uslubiy tizimida alohida o‘rinni egallaydigan, murakkab tabiatli mazkur birliklar jahon tilshunosligida ham, turkiyshunoslikda ham, o‘zbek tilshunosligida ham ma‘lum darajada o‘rganilgan bo‘lsada, ammo ularning chog‘ishtirma tahlili masalalari hanuzgacha o‘zining aniq yechimini topgan emas.

Paradoks (qadimgi yunoncha: *paradoxos* – “kutilmagan” (неожиданный), “ajablanarli” (странный), “g‘alati”¹⁰ degan ma‘noni ifodalaydi. Paradoks turli ilmiy sohalarda keng qo‘llanilib, polisemantik ya‘ni ko‘p ma‘noli termin sanaladi. Xususan, ilmiy sohada paradoksning qator ma‘no qirralari farqlanadi. Jumladan, 1.Fikr, mulohaza, aqliy fikrlash, umum tomonidan ma‘qullangan fikrga zid bo‘ladi. 2.Kutilmagan voqeyilik va dastlabki tasavvurga zid tushuncha. 3.Nazariy va

⁸ Кунин.А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.:Высшая школа, 1996. – 381 с.; Соловьян.В.А. Языково-стилистические средства сатиры в немецком языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук – М., 1960. – 23 с.; Тармаева.В.Д. Когнитивная природа фразеологического парадокса (англ.яз.): дис. канд. филол. наук.– Иркутск, 1997. – 214 с.; Темяникова.Э.Б. Когнитивная структура парадокса: на материале англ. яз.: дис.канд. филол. наук. – М., 1998.– 206 с.; Трубецкой.И.С. Основы фонологии – М.: Иностранная литература, 1960. – 371 с.; Умеренкова А.В. Лингво-когнитивное моделирование эффекта обманутого ожидания: автореф. дис. канд. филол. наук: – Курск, 2009. – 20 с.;

⁹ Chris.B. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms //N.Y.: Oxford university press, 2001. – P . 183.atanouny.G.M.Syntactic and Semantic Classification of Paradox and their Relation to Reader's Interpretation. // Journal of Literary Semantics. – Canterbury, 1991. – XX/3. – p. 129-163.;Bertolet R. What is said: A theory of indirect speech reports /R.Bertolet. – Dordrecht etc.: Kluwer, 1990. – 251 p.; Ching M.K. L. A literary and linguistic analysis of compact verbal paradox. // Linguistic perspectives on Literature. – London, 1980. – p. 175-181.; Christ H.I. Irony, paradox and the Zen koan. // ETC. A Review of General Semantics. 1968 – vol. 25. – № 3. – p. 350-52.; Comorovsky C. Paradoxical microstructures in the drama of O.Wilde and J.Giraudou // Synthesis. – Bucarest, 1975. – vol. 2. – p. 155-173

¹⁰ O‘zbekiston Milliy Ensiklopediya. Davlat ilmiy nashriyoti.Birinchi jild.Toshkent, 2000

formal mantiqqa har qanday haqiqatni zid qo'yish kabi keng ko'lamli ma'nolarga ega. Ma'lumki, ma'no va mantiqda zidlik antonim hodisasi bilan sinonim tarzda qo'llanadi. Ammo paradoksning antonimlardan farqli xususiyatlari uning o'ziga xosligini anglatadi.

Ilmda paradokslarga "ko'pchilik tomonidan qabul qilingan an'anaviy fikr va hayotiy tajribaga o'z mazmuni bilan keskin zid bo'lgan, kutilmagan mulohaza, muhokama" deb ham ta'rif beriladi. Har qanday paradoks "shubhasiz to'g'ri" (asoslimi, asossizmi, bundan qat'i nazar) hisoblangan u yoki bu fikrni inkor etishdek ko'rinadi. "Paradoks" terminining o'zi ham dastlab antik falsafada har qanday g'alati, original fikrni ifodalash uchun ishlatilgan.

Mantiqda paradokslar haqiqatdan chekinish deb e'tirof etiladi. Shuning uchun antinomiya, aporiya, ziddiyat ma'nolarini paradoksning sinonimlari deb hisoblash mumkin. Paradoks bir-birini istisno qiluvchi ikki fikrni bab-baravar isbot qilish mumkinligini bildiradi. Mantiqiy paradokslar, odatda, mantiqiy asoslari to'la aniqlanmagan nazariyalarda uchraydi. Ilmiy muhokamada paradoks paydo bo'lishining asosiy sababi inson bilish jarayonining murakkab dialektik xarakterga egaligi va bunda shakl va mazmunning o'zaro ziddiyatli munosabatda bo'lishidadir. Paradokslarni bartaraf etishning ommabop yo'li yo'q. Mantiq va matematika sohasida ayrim paradokslarni bartaraf qilish usullari ishlab chiqilgan. Tilshunoslikda matnnig paradokslik xususiyati ularning ma'nolarida namoyon bo'ladi. Sh ma'noda paradokslarni semantik hodisa deb qarash o'rinli bo'ladi.

Paradoks zid mazmun-ma'no hosil qilishga xizmat qiladi. Paradoksni hosil qilish vositalari esa juda ko'p va xilma-xil. Shu ma'noda paradokslarning lingvistik xususiyatlari, xususan, har bir xalqning mental xususiyatlari mujassam bo'lgan lingvokulturologik jihatlarini ilmiy tadqiq etish ham muhimdir.

Paradokslar XX asr oxiri XXI asr boshida lingvistik tadqiq etila boshlandi. Bu ilmiy tadqiqotlarda paradoks hodisasining til vositalari asosida badiiy matnda alohida mantiqiy ma'no kasb etishi xususiyatlari tahlil va tavsif etildi. G'arb tilshunosligida paradoksal ma'nolar u yoki bu voqelikka nisbatan fikrlash asosida shakllanishi e'tirof etiladi.

Paradoks dunyoni bilishni va inson olamini uning mental xususiyatlarini idrok etish va anglashga yordam beradi. Tilshunoslikda uzoq vaqt davomida paradoks til xususiyatlariga ko'ra badiiy asarda hajviy effekt hosil qiladigan, zid ma'noni va ziddiyatni yuzaga keltiruvchi stilistik vosita sifatida o'rganildi hamda tilshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlarning obyektini bo'lib kelayotganligini kuzatish mumkin.

Ma'lumki, badiiy matn kognitiv, lingvopragmatik, semiotik, sotsiologik, psixolingvistik va kulturologik aspektlarda tahlil etilib, uning nazariy-metodologik asoslari yaratilmoqda. Badiiy matnning badiiy-estetik jihatlari, ulardan foydalanish mahoratini o'rganishning muhim masalalari hamda nazariy jihatlari tilshunoslikda muhimdir. Paradokslar inson aqliy faoliyatini, shuningdek, xalqning milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi antropotsentrik paradigmadir. Paradokslar zamonaviy lingvomadaniyatshunoslikning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tilni tizim sifatida tadqiq etishdan tashqari, unga antropotsentrik yondashuv talabining oshib borishi, muayyan millatga xos madaniy belgilarni jamiyat kishilari ongida muhrlangan ko'rinishining tilda aks etishini qiyosiy aspektda yoritish muhimdir. Antropotsentrik yondashuvning muammolarini o'rganish va yechim topish kognitiv lingvistika va lingvomadaniyatshunoslik kabi yo'nalishlar zimmasiga tushmoqda. Olamning lisoniy, milliy, etnik va boshqa manzaralarini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish lingvomadaniyatshunoslikda qo'yilgan ilk qadamlardan biri bo'ldi. Ingliz va o'zbek tillarida paradokslarni, ularning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganish, paradokslarni milliy-madaniy jihatdan tahlilga tortish, o'xshash, farqli va o'ziga xos tomonlarini chog'ishtirma tahlil orqali aniqlash ushbu yo'nalishda hal etilmagan masalalardan biri hisoblanadi.

Tilshunoslikda til tizimining turli sathlariga oid birliklarning nutqiy muloqot muhitida shakllanishini o'rganish, ularning sintaktik-semantik va pragmatik ko'rsatkichlari munosabati va o'zaro bog'liqligi, xususan, badiiy matnda paradoks va uning sintaktik xususiyatlari, kognitiv tabiati alogik (mantiqsiz) til birliklari va

ziddiyat, prezumpsiya, presuppozitsiya va implikatsiya bo'yicha muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgan¹¹.

Mantiqda paradokslar haqiqatdan chekinish deb e'tirof etiladi. Shuning uchun antinomiya, aporiya, ziddiyatlarni paradoksnig sinonimlari deb hisoblash mumkin. Paradoks bir-birini istisno qiluvchi ikki fikrni bab-baravar isbot qilish mumkinligini bildiradi. Mantiqiy paradokslar, odatda, mantiqiy asoslari to'la aniqlanmagan nazariyalarda uchraydi. Ilmda paradoks paydo bo'lishining asosiy sababi inson bilish jarayonining murakkab dialektik xarakterga egaligi va bunda shakl va mazmunning o'zaro ziddiyatli munosabatda bo'lishi deb etirof etiladi.

Professor Kris Beldrikning "The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms" (Oksford adabiy atamalarining qisqacha) lug'atida "Ancient theorists of

¹¹Арнольд И.В. Механизмы понимания и смыслообразования текстовых произведений//Понимание и рефлексия: Материалы I и II герменевтических конференций. – Тверь.:ТГУ, 1992. – Ч.1. –36с.; Арнольд И. В. Стилистика. Современный английский язык: Учебник для вузов – Изд.8-е – М.: Флинта, Наука,2002. – 384с.; Арутюнова Н.Д. Языковая метафора (Синтаксис и лексика) // Лингвистика и поэтика. – М.: Наука, 1979. – С.147-173.; Атаева Е.А. Лингвистическая природа и стилистические функции оксюморона: на примере английского языка: дис. канд. филол. наук. М., 1975. – 145 с.137; Бабаханова Л.Т. Структурно-семантические особенности антитезы как стилистического приема: Автореф. дис. ... канд. филол. наук – М., 1967. – 11 с.; Богин Г.И. Субстанциальная сторона понимания текста – Тверь: Изд-во ТвГУ, 1993. – 137 с.; Танеев Б.Т. Семантика и прагматика парадоксальных высказываний: автореф. дис. канд. филол. наук – Уфа, 1988. – 16 с.; Гинзбург Б.П. О природе логических парадоксов: автореф. дис. канд. филос. наук – М., 1969 – 12с.; Заботина.Е.Н. Когнитивное моделирование структур парадокса современных английских скетчах: автореф. дис. кандидата филол.наук: 10.02.04 – Санкт-Петербург, 2012. – 24 с.; Казаков А.Н.,Якушев А.О.Логика. Парадоксология:Учебное пособие для старших классов лицеев, колледжей, гимназий и студентов вузов – Ижевск, 1998. – 316 с.; Колодина Н.И.Теоретические аспекты понимания и интерпретации художественного текста (на материале русского и английского языков): автореф. дис... д. филолог. наук – Тверь, 2002.–293с.; Крюкова Н.Ф.Метафоризация и метафоричность как параметры рефлексивного действия при продукции и рецепции текста: дис.д.ф.н.:10.02.19 [Текст] / Н.Ф. Крюкова. – Тверь, 200. – 281 с.;

Dilthey W.The Rise of Hermeneutics // New LitHistory.Charlottesville, 1972. – V.2. – №2. – P 229-243.English Literary Terms.– Л.: Просвещение, 1967.Forrester.M. A. Psychology of Language. A Critical Introduction. – London: Sage Publications, 1996. – 216 p.; Galperin.I.R. Stylistics. – Moscow: Higher school, 1981. – 334 p.;Grossman M. Dada: Paradox, mystification and ambiguity in European literature.– New York:Pegasus Books,1971. – 192 p.; Jakobson.R.Linguistics and Poetics. // Style in Language. – N.7., L.:J.Wiley and Sons, Inc., 1960. – p. 350-377.; Juan, Epifanio San.J.R.The Art of Oscar Wilde. – Princeton, NewJersey:Princeton University Press,1967.– 238p.; Kukharenko V.A.Seminars in style.–Moscow:Higher School Publishing, 1971. – 183 p.;Lakoff .G.The Contemporary Theory of Metaphor // Metaphor and Thought / Ed. by A. Ortony. 2-nd ed. – Cambridge Univ. Press, 1993. – P. 202 -251.;Lakoff.G.,JohnsonM.Metaphors we live by.– Chicago, 1995. – 242p.; Longman Dictionary of English Language and Culture. – Longman Group UK Ltd., 1995. – 1528 p.; Lyons.J. Semantics /J. Lyons. – London; New York: Cambridge university press,1977. – Vol. 1. – 278 p.; Pearce.R. Symmetry/Disruption: A Paradox in Modern Science and Literature. // One Culture: Essays in Science and Literature. – Madison, V III.– p. 164-179.; The Oxford Dictionary of Quotations. Oxford, New York: Oxford University Press, 1992. – 1061 p.; Wilde.O.The decay of Lying [Электронный ресурс]/режим доступа http://cogweb.ucla.edu/Abstracts/Wilde_1889.html; Wilde.O.Letters on Dorian Gray. Mr. Oscar Wilde's Defense //Selections from Oscar Wilde. – М.: Progress Publishers, 1979. – 355 p.

rhetoric described paradox as a figure of speech, but 10th century critics given it a higher importance as a mode of understanding by which poetry challenges our habits of thought” (Qadimgi ritorik nazariyotchilar paradoksni stilistik vosita deb ta’riflagan bo‘lsalar, XX asr tanqidchilari unga – bizning fikrlashimizdagi zidlik tushunishni ifodalash usuli sifatida ahamiyat berishgan) kabi izohi keltiriladi.

Paradokslar badiiy nutqda, shu bilan birga jurnalistikada, kundalik ishlatiladigan nutqimizda, ilmiy sohalarda, rasmiy xabarlarda uchraydi.

Paradoks XIX asrning oxiridan boshlab badiiy matnning tarkibiy elementi sifatida talqin etila boshlandi. Ingliz adabiyoti klassiklari Oskar Uayld va Bernard Shoular “*Paradoks ustasi*”¹² nomini olib, mualliflar ijodida paradokslardan matnning syujetli-kompozitsion darajasi va qahramonlar xarakterining paradoksal tabiatini ochib beruvchu uslubiy vosita sifatida foydalanganlar.

Paradokslar badiiy matnda ma’naviy-madaniy, semantik bog‘liqlik, ekstralingvistik shartlilik, kommunikativlik, pragmatiklik, kognitivlik, konseptualizm kabi belgilari bilan voqelik mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Paradokslar dunyo va inson tabiatini idrok etish va tushunishga yordam beradi. Bernard Shou o‘zining ijodiy faoliyati davomida achchiq haqiqatni hazil, yumor orqali ifodalash, o‘quvchining e’tiborini tortish maqsadida paradokslarga murojaat etganini alohida ta’kidlash joiz. Bernard Shou ijodiga tegishli bo‘lgan: “*An Englishman thinks he is moral when he is only uncomfortable*” (*Ingliz odami faqatgina noqulay vaziyatda, o‘zini axloqli deb hisoblaydi*) (muallif tarjimasi) mashhur paradokslardan biri bo‘lgan.

Bernad Shouga tegishli bo‘lgan yana bir paradoksni tahlil qilar ekanmiz, ushbu paradoksal ma’noli jumlaning “*Those who can, do; those who can’t, teach*” (*Qo‘lidan keladiganlar, buni amalga oshiradi; qo‘lidan kelmaydiganlar, dars beradi (o‘qitadi)*) vazifasiga ko‘ra maskur paradoks mikrokontekst darajasida

¹² Prados R.I. Oscar Wilde and B. Shaw.P. — 1, <https://www.scribd.com/doc/40611455/TOPIC-51-Oscar-Wilde-and-B-Shaw-Ines>

falsafa bilan bog‘liq, semantik jihatdan esa ushbu paradoks idiomaga asoslanganligini ko‘rish mumkin¹³. Ko‘rinadiki, Bernard Shou o‘zining paradoksal matnlari bilan o‘sha davrda jamiyatdagi mavjud bo‘lgan illatlarni kinoya, yumor uslibiy vositalarni o‘zida mujassam etgan paradokslar orqali ifodalagan.

O.Uayld va B.Shou asarlaridagi paradokslarning qo‘llanilishini tahlil etgan ko‘plab ingliz adabiyotshunoslari va tilshunos olimlari ularning adabiy uslublari va paradoksdan o‘rinli, mohirona foydalanish tahlillari ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etishini e‘tirof etadi. Styuart Meyson tomonidan yozilgan tahliliy “Oskar Uayld: San‘at va axloq” kitobida Oskar Uayld asarlaridagi san‘at va axloq o‘rtasidagi munosabat o‘rganilgan. Yozuvchi O.Uayldning jamiyat qusurlariga qarshi chiqish, san‘at va axloq chegaralarini o‘rganish uchun paradoksdan mohirona foydalanganini tahlil etadi. Ikkinchi mashhur asar Erik Bentlining “Oskar Uayld o‘yinlari” nomli kitobi bo‘lib, bu kitobda Oskar Uayld yozgan asarlar har tomonlama tahlil qilingan. U O.Uayld tomonidan qo‘llanilgan mavzular, personajlar va dramatik usullarni, jumladan, ijtimoiy satiralarni yaratish uchun paradoksdan, paradoksal matnlardan mohirona foydalanilganini tadqiq etadi. “Oskar Uayldning zukkoligi va hikmati: iqtiboslar kitobi” Bob Blaisdell tahriri ostida: ushbu kitob Oskar Uayldning aqlli va zukko iqtiboslar to‘plamidir. U O.Uayldning turli mavzularda kulgili, yumorga boy bo‘lgan, o‘quvchini chuqur mulohaza etishga undovchi, o‘ylantiruvchi sharhlarni berish uchun paradoksal matnlardan, bayonlardan, so‘zlardan foydalanish usullarini tahlil etadi. Yana bir ajoyib paradoksal matnlarning tahlilini ifodalaydigan D.X.Lorensning “Bernard Shou va ziddiyat san‘ati” asaridir. Ushbu kitobda D.X.Lourens Bernard Shou asarlarida ziddiyatni ifodalashda paradoksdan foydalanishni tahlil etadi. Muallif B.Shouning inson qobilyatlarini shakllantiruvchi dialoglar va paradoksal matnlarning tahlillari batafsil yoritgan.

G.K.Chestertonning “Jorj Bernard Shou” nomli kitobida garchi paradoksga alohida e‘tibor qaratilmagan bo‘lsa-da, ijodiy tanqidiy tahlilni yoritgan B.Shouning

¹³ Образцова А.Г. Драматургический метод Бернарда Шоу. – М.: Наука,1965. – 315 с

ritorik vositalardan, uning yozuv uslubining ajralmas qismi sifatida foydalanishiga, shuningdek, uning adabiy yondashuvi va g‘oyalari bayon qilingan.

Ma’lumki, XX asrda absurd adabiyotida yangi yo‘nalish vujudga keldi. Uning vakillari E.Ionesko, G.Pinter, S.Mrojek, B.Bien va boshqalar dunyoning ichki va tashqi qiyofasini ifodalash, atrofdagi voqelikka munosabatini bildirish uchun paradokslardan foydalanishning uslubiyatini yaratdilar.

Zamonaviy adabiy matnlarda paradoks mutlaqo tabiiy va hatto zarur element hisoblanadi. Bu o‘rinda A.B.Baranovning “Asar paradoksal matnlarida ma’nolarning paradoksal kesishuvi mantiqiy tahlilni individual kognitiv fikrni faollashtirish bilan ongga bevosita ta’sir qiladi”¹⁴ kabi fikrini qo‘llab-quvvatlaymiz.

A.Sherbinaning fikricha, “paradokslarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, matnda fikrning originalligini, aforistik, nafis va aqlli, egiluvchan va boy ma’naviy bog‘lanishlarni tasvirlashga imkoniyat yaratadi¹⁵”

Paradoks hodisasining murakkabligi, ko‘p qirrali ekanligi uning tabiiy fanlar – matematika, fizika doirasida o‘rganilishi hamda falsafa, mantiq, lingvistika, psixologiya, psixolingvistika, adabiyotshunoslik va boshqa fanlarning tadqiqot predmeti hisoblanganligi bilan isbotlanadi. Lingvistik asarlarda paradokslar o‘z til xususiyatlari va ma’lum vazifalariga ko‘ra stilistik vosita sifatida o‘rganilgan. (O.K.Denisov, N.Y.Shpektorovalarning ishlariga qarang). Stilistika nuqtayi nazaridan paradoksning ekspressivligi unda badiiy asarda hajviy effekt hosil qiladigan ziddiyat ma’nolari mavjudligi bilan izohlanadi.

Bir qator tadqiqotlarda paradoks ta’rifini shakllantirish masalasiga katta e’tibor qaratildi, ushbu til hodisasining turli belgilari, paradoksning mantiqiyli/mantiqsizligi kategoriyalari *A.D.Denisova*, *Y.I.Ovsyannikov*, *L.P.Shpektorovalar*¹⁶ ning ayrim tadqiqotlarida tahlil etilgan.

¹⁴ Баранов А.Г. Формы языковой игры//Человек играющий: язык, личность, социум. – Москва – Тверь: Институт языкознания РАН, 1999. – С. 5-11.

¹⁵ Щербина А.Заметки о технике и искусстве комического слова. – М: Русская литература,1966.Т 2. – с.144

¹⁶ Денисова О.К. К вопросу об использовании некоторых стилистических средств в пьесах Оскара Уайльда// Вопросы лексикологии и стилистики романо-германских языков, Иркутск, Вып. I. – с. 73-85. Овсянников В.В. Языковые средства выражения комического в англоязычной прозе: автореф. дис. канд. филол. наук. –

Keyinchalik lingvistik tadqiqlarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq holda paradoks hodisasini kognitiv strukturalar (tuzilmalar) va lingvistik modellashtirish masalalari Temyanikova va Zabotinalar tomonidan o‘rganildi.

Kognitiv yondashuv paradoksning stilistik tadqiqotlarda turli janrlardagi matnlarning xususiyatlarini aniqlashtirish uchun qo‘llaniladi stilistik, yumoristik effektni shakllantirish, matnni modellashtirish masalalariga e‘tibor qaratildi. Kognitiv lingvistikada paradoksning tuzilishini ko‘rib chiqish inson ongini o‘rganish bilan bog‘liq ekanligi ilmiy tadqiqotlarda dalillandi.

Bugungi kunda paradoks fenomeni bo‘yicha ko‘plab, tadqiqot ishlari olib borilmoqda, ularda uning murakkab, ko‘p qirraligi ta‘kidlanadi. Ilmiy tafakkurning turli sohalarida, xususan, falsafa, mantiq va matematika, filologik fanlarida paradoks tadqiqiga ilmiy-amaliy yondashuvning xilma-xilligi tilshunoslikda paradoks fenomenini tadqiq qilishning nazariy asoslarini yaratish vazifasini qo‘yadi.

Paradoksni o‘rganish bo‘yicha tadqiqot ishlari turli ilmiy fanlar doirasida olib borilgan. Xususan, paradoks ritorika, estetika, falsafiy nuqtayi nazaridan tadqiq va tahlil qilingan. Shuningdek, paradokslarning ijtimoiy-pragmatik, psixologik hamda lingvistik xususiyatlari, paradoks –badiiy asar muallifining individual stili elementi sifatida tadqiq etilgan.

Ayniqsa, stilistik tadqiqotlarda paradokslar badiiy matnni originallik bilan ta‘minlovchi semantik-stilistik element sifatida e‘tirof etiladi va shu asosida izohlanadi.

Paradoksal gaplarning pragmatik va semantik komponentlarini tadqiq qilish bilan rus tilshunosi B.G.Taneev¹⁷ shug‘ullangan, frazeologik paradoks shakllanishining kognitiv tabiatini V.D.Tarmayeva¹⁸ o‘rgandi, paradoksning

M., 2010. – 23с. Шпекторова Н.Ю. К вопросу о литературно-художественном парадоксе (на материале произведений О.Уайльда)// Вопросы лексикологии, лексикографии и стилистики романо-германских языков. – Самарканд, 2004. – С. 218-225.

¹⁷ Танеев Б.Т. Семантика и прагматика парадоксальных высказываний: автореф. дис. канд. филол. наук – Уфа, 2009. – 16 с.

¹⁸ Тармаева В.Д. Когнитивная природа фразеологического парадокса (англ.яз.): дис. канд. филол. наук – Иркутск: 1997. – 214 с

leksik-semantik jihatlarini V.I.Karasik¹⁹ kengroq tadqiq etdi, paradoksni yaratishning kognitiv modellari E.B.Temyanikovaning²⁰ ishlarida, paradoks tuzilmalarini kognitiv modellashtirish E.N.Zabotin²¹ tomonidan ko‘rib chiqildi.

Bir qator tadqiqotlarda paradoksni tushunish muammosining mantiqiy sxemasi va uning lingvistik amalga oshirilishi o‘rtasidagi munosabatlar muammosi tahlil etildi.

Tilshunoslar paradoksning tarixiy rivojlanishini davrlarga bo‘lib o‘rganadi. Ilmda “me‘yorlar buzilishining faol davri” tushunchasi e‘tirof etiladi. V.Shmidt paradoksning quyidagi namoyon bo‘lish davrlarini ajratib ko‘rsatadi:

1.Sokratgacha bo‘lgan davr, so‘nggi antik madaniyat (shu jumladan, stoyiklar) Apastol Pavel geologiyasi.

2.So‘nggi o‘rta asr tasavvufi (mistikasi) – Ekxart usta, Kech sxolostika – Nikolay Kuzanskiy.

3.Gumanizm davri – Erazm Rotterdamskiy, Tomas Mor.

4.Keyingi uyg‘onish – Tasso, Monten, Shekspir, Barokko Grasman.

5.Romantizm, modernizm – Kafka, Bekket, Borxes²²

Paradoksni o‘rganish bo‘yicha dastlabki ishlarda paradoks hodisasining terminalogik ta‘rifi masalasi e‘tibor qaratildi. “Paradoks” so‘zi yunonchadan kelib chiqqan bo‘lib, ikkita asosning birikmasi natijasidir: “para” – noto‘g‘ri, “doxa” – fikr, “dokein” – o‘ylanish, ishonish demakdir. Stoiklarning qadimgi yunon falsafasida bu atama umum qabul qilingan fikrga zid bo‘lgan original o‘ziga xos fikrni anlatadi.

Aristotelda paradoksning ta‘rifini nafaqat “Umumiy fikrga zid bo‘lgan tushuncha, balki oldindan paydo bo‘lgan, uyg‘ongan zid bo‘lgan” tushuncha

¹⁹ Карасик В.И. // Аксиологическая лингвистика: игровое и комическое в общении: сб. науч. трудов. – Волгоград: Перемена, 2003. – С. 112-126.

²⁰ Тemyаникова Э.Б. Когнитивная структура парадокса: на материале англ. яз.: дис. канд. филол. наук – М., 1998. – 206 с.

²¹ Заботина Е. Н. Когнитивное моделирование структур парадокса в современных английских скетчах: автореф. дис. кандидата филол. наук: 10.02.04 [Текст]/ Е.Н. Заботина. – Санкт-Петербург, 2012. – 24 с.

²² Шмид В. Заметки о парадоксе // Парадоксы русской литературы: сб. статей (ред. В. Марковича, В. Шмида). 2001. – С. 9-16.

sifatida e'tirof etilgan. Aristotel o'z asarida **“yolg'onchi”** semantik paradoks deb ta'riflagan.

Rim faylasufi Sitseron “Paradokslar” risolasida paradoks hodisasida falsafa va etikaning umumiy qoidalarini bayon etishda aniqlik, matematik aniqlik va ixchamlikka intilishni ko'rgan. Stoiklarning paradokslari haqida Sitseron “g'alati va barchaning fikriga zid” ekanligini aytadi, ammo o'quvchilar diqqatini jalb qilish va muammolarni belgilash uchun paradokslarni ritorik savollar shaklida shakllantirilgan.

Falsafa tarixida paradoks ritorik hodisalarga taalluqli hisoblangan va nutq birligi sifatida ta'riflangan. Ritorik paradoks o'zaro munosabatlar orasidagi ziddiyat sifatida qaraladi. Mazmuni tushunish darajasida ziddiyat mavjud emasligini ta'kidlab, paradoks voqelik hodisalarini emas, balki so'zlovchining nuqtayi nazarini, ya'ni voqelikning hodisalari bir-birini emas, balki ularga nisbatan qo'llangan nuqtayi nazar istisno qilinadi. Paradokslarda shaxsiy munosabat bevosita bir-birini inkor qilish shaklida yuzaga keladi va ikkita bir-birini inkor qiluvchi haqiqat ifodalanadi. Shu bilan birga, noaniqlik va uning yechimini topish zaruriyati paydo bo'ladi. Shuning uchun paradoks to'xtovsiz harakatga ega bo'lgan jarayon sifatida ta'riflanadi.

Tadqiqotlarda paradoksning barcha shakllariga xos bo'lgan parametr aniqlandi – yagona yechimning yo'qligiga e'tibor qaratildi. Paradoks o'rta asrlarda nasriy va poetik asarlarni yozish qoidalari to'plamigacha keltirilgan nutq nazariyasi doirasida matnni tasvirlash vositalari qatoriga kiritilgan.

Ingliz tilining leksik tarkibiga paradoks termini XII asrda fransuz tili orqali kirib keldi va o'zining yangiligi bilan tinglovchilarni hayratga solgan, umum e'tirof etilgan fikrga zid bo'lgan g'ayri oddiy, o'ziga xos fikrni bildirgan. Ilmiy leksika sohasiga bu termin Tomas Mor tomonidan kiritilgan. Nemis tilshunoslari istehzo va antiteza bilan bir qatorda paradoksni bir qarashda bir-biriga mos kelmaydigan, ammo keyin o'zaro bog'likni ochib beradigan tushunchalar sifatida e'tirof etadi.

Paradokslarning ilmiy tahlili falsafada o'rganilib uzoq vaqt davomida ularning ilmiy yechimini tadqiq etadigan yagona bilim sohasi edi.

B.Rassel "G'arb falsafasi tarixi" asarida paradokslarning yechimi yagona grammatik vositalar bilan emas, aynan mantiq vositalari bilan yechishni taklif etadi.

Ta'kidlash joizki, mantiq – tafakkur qonunlari bilan shug'ullanuvchi fan paradokslarni tadqiq qilishga katta hissa qo'shdi. Paradokslarning mantiqiy xulosalarida o'ziga xos nomuvofiqlik bo'lganligi, aynan mantiqda paradoksga eng to'liq ta'rif berilishi tabiiy holatdir. Paradoks – ma'lum bir jumlaning (yoki uning ham tasdig'i, ham inkori) haqiqiylikni ham, yolg'onligini ham isbotlovchi, mantiqiy ifodalangan, to'g'ridan to'g'ri qabul qilib bo'lmaydigan natijaga (qarama-qarshilikka) olib keladigan tushunchadir.

Paradoksning ilmiy tafakkur fenomeni sifatida mantiqda tasvirlanishi tilning o'ziga xos tavsiflovchi funksiyasi bilan bog'liq. Inson o'z tiliga nisbatan kuzatuvchi pozitsiyasini egallay olmaydi. Paradoks matnda tildan vosita sifatida foydalanishni taqozo etadi.²³

Paradoksni ilmda hodisa sifatida tushunish, uning amal qilish jarayonini o'rganish, anglash va ilmiy asoslashga turli urinishlar bo'lgan.

Y.D.Smirnova "Paradokslar va tafakkur" maqolasida "paradoks muammosini hal qilish shunchaki paradoksni yo'lga to'siq qo'yish orqali bartaraf etishni anglatadi." Gap paradokslarni ma'lum taqiqlar va cheklovlarni kiritish orqali to'siq qo'yishda emas: ular bilish faoliyati tizimida fandagi nomuvofiqliklar haqida gapirilayotganini aniqlash kerak²⁴. Narsa-hodisa va fikrlar tushunchalarda umumlashtiriladi, biroq nazariy bilish "tushunchalarni sayqallash" vositasida amalga oshiriladi va ushbu sayqallashlar tilda ifodalanadi. Fikrlarni ifodalash jarayonida, aniq bo'lgan obyektlarning empirik olamidagi uzilishi va haqiqiy olamga o'tishi yuz beradi. Paradokslar tafakkur olamidagi nomuvofiqliklardan

²³Ю.С. Степанов // К современной философии языка. –М.: Изд-во «Языки русской культуры», 1998. – 784с.

²⁴Смирнова Е.Д. Парадоксы и мышление // Логический анализ языка. Избранное. – М.: Индрик, 2003. – С. 468-477.

dalolat beradi. Shu tufayli, u yoki bu paradokslardagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish yo‘lidan borish tavsiya etiladi.

Zamonaviy lingvistik yondashuv doirasida **til** va **nutq paradokslari** farqlanadi. Maqol va matallar, shuningdek, paradoks asosida qurilgan so‘zlar va so‘z birikmalari – **til paradokslari** deyiladi. **Nutq paradokslari** atamasi alohida muloqotni ifodalovchi individual muallif shakllarini ifodalaydi²⁵.

Til va nutq paradokslari umumiy va alohida xususiyatlarga ega o‘zgarmas komponentlar, alogizm, mantiqiy me‘yordan og‘ish, ziddiyat, gap ikki qismining ma‘naviy mos kelmasligi kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi. Til va nutq paradokslarining ba‘zi umumiy xususiyatlari sodda gaplar hosil qilishda ularning sintaktik tuzilishida kuzatiladi:

Best defense is offence. (Eng yaxshi himoya – bu hujum)

The longest way round is the nearest way home. (Maqsadga olib boruvchi yo‘l doim ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Biror narsani ehtiyotkorlik bilan va to‘g‘ri bajarish, oxir-oqibat, eng tez va eng samarali usulni isbotlaydi)

A brave retreat is a brave exploit. (Jasoratli chekinish – jasoratdir)

An obedient wife commands her husband. (Itoatkor xotin turmush o‘rtog‘i bilan chiroyli munosabatda bo‘ladi).

Nutq paradokslari ularni bir yoki bir nechta jumla qurish uchun ishlatilishi mumkin: *Lord Henry had not yet come in. He was always late on principle, his principle being that punctuality is the thief of time. (The Picture of Dorian Gray)* (Lord Genri hali kelgani yo‘q. U hamma joyga kechikib borishni o‘ziga odat qilib olgan edi. Uning nazarida hamma ishini aniq vaqti – soatida qiladigan odam vaqtdan yutqazadi).

Til va nutq paradokslarining mushtarak xususiyati umumlashganlik bo‘lib, u ko‘pincha maqol shaklida namoyon bo‘ladi. Maqollar umumlashtiruvchi ma‘no ifoda etadi. Paradoksal komponentlar *every*, *everybody*, *never* so‘zlari paradoksal ma‘noni umumlashtirish mezonini hisoblanadi.

²⁵ Семен Г.Я. Лингвистическая природа и функционирование стилистического приема парадокса: (на материале англ. яз.) : дисс. канд. филол. наук. – Одесса, 1986. – 197 с.

Paradokslarni o'rganishga bag'ishlangan tavsifiy adabiyotlarda paradoks hodisasi bo'yicha yagona nuqtayi nazarni uchratish qiyin. Biz tilshunoslar ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olingan, terminologik birlik uchun barcha talablarga javob beradigan yagona umumiy ta'rifga tadqiqotlarimiz jarayonida duch kelmadik.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, bir qator asarlarda – *mantiqsiz ibora*, *mantiqsiz gaplar*, ba'zi lingvistik tadqiqotlarda *paradoks til eksperimenti* yoki *til o'yini* kabi jumlar bilan ifodalanganligini uchratdik.

Mantiqiy lug'at va ma'lumotnomalarda, ilmiy asarlarda paradoks "kutilmagan, noodatiy, g'alati bayonot, haqiqatda umum qabul qilingan fikrdan keskin farq qiladigan, umum tomonidan qabul qilingan fikrga mos kelmaydigan, ustunlik qiladigan e'tiqodga yoki hatto sog'lom fikrga mos kelmaydigan, biroq rasmiy-mantiqiy jihatdan to'g'ri bo'lsa ham". Kabi ta'riflar mavjud. Paradoks –bu shunday fikrlashki, mantiqda, shuningdek, antinomiya deb ataladigan, bir xil darajada isbotlanadigan va to'g'ri yoki yolg'on deb ta'riflanmaydigan, bir - birini rad etadigan natijalarga olib keladigan fikrlashdir. Paradoks – bu mantiqiy qarama-qarshilik bo'lib, undan chiqish yo'lini topib bo'lmaydi.²⁶

Bu atama noto'g'rilikni anglatmaydi, balki to'g'ri, ammo qarama-qarshi xulosalarni yagona tuzilishdagi birikmani anglatadi. Tadqiqotlar olib borish jarayonida paradoks terminiga berilgan turli xil ta'riflarni uchratdik, ingliz tilidagi katta ensiklopedik lug'atda paradoksning quyidagi ta'rifi berilgan: paradoks (yunoncha *paradoxos* – *kutilmagan, g'alati*)

1) kutilmagan, noodatiy, an'anaga zid tasdiq, mulohaza yoki xulosa

2) mantiqda – mantiqan rasmiy ravishda to'g'ri fikr yuritish natijasida olingan, o'zaro qarama-qarshi xulosalarga olib keladigan ziddiyat.²⁷

Agar paradoks so'zini kompozitsiya sifatida talqin qiladigan bo'lsak, unda atama quyidagicha ta'riflanadi: *be'mani ko'rinadigan va sog'lom fikrga zid bo'lgan bayonot, umume'tirof etilgan fikrdan keskin farq qiladigan fikr turi*.²⁸

²⁶ Glossary of Logical Terms. <https://www.encyclopedia.com/humanities/encyclopedias-almanacs-transcripts-and-maps/logical-terms-glossary>

²⁷ Философский словарь. – М.: Политическая литература, 1973.

M.V.Davidov ingliz tilidagi paradokslarni o‘rgangan va asardagi matnning turi holatlarini **“tovushlar, paradokslar”** sifatida maksimal keng ta’riflagan. Rus va nemis tillaridagi lingvistik paradokslarni o‘rgangan boshqa olimlar, paradoksni odatiy qoidalarga zid bo‘lgan og‘ish turi sifatida belgilaydilar.

Zidlik ma’noni anglatuvchi stilistik vositalardan biri bo‘lgan, obrazlilikni, ekspressivlikni oshiruvchi, shuningdek, muallifning naqadar mahoratli ijodkor ekanligini ifodalovchi paradokslardan o‘z asarlarida ilk bor qo‘llagan Irlandiyalik shoir va dramaturg Oskar Uayldning asarlarida ritorik va adabiy paradokslarni uchratdik. Yana bir ingliz yozuvchisi, faylasuf G.K.Chesterton asarlarida ham adabiy va ritorik paradokslarga murojaat etganligini alohida ta’kidlashni joiz deb bildik. Ma’lumki, adabiyotlarning aksariyati paradoksal vaziyatlarga qaratilgan; Rabelais, Servantes, Stern, Borxes va Chesterton vaziyat va og‘zaki paradoksning ustalari sifatida tan olingan. O.Uayldning *“I can resist anything except temptation”* (*Men vasvasadan boshqa hamma narsaga dosh bera olaman*) va Chestertonning *“spies do not look like spies”*²⁹ (*ayg‘oqchilar josuslarga o‘xshamaydi*) (kabi jumlar ritorik paradoksga misol bo‘la oladi. Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, Uilyam Shekspirning *“Gamlet”* asaridagi qahramon Poloniusning *“though this be madness, yet there is a method in’t”*³⁰ (*aqldan ozgan narsaning oqilona sababi bor*) degan jumla ham ritorik paradoksga misol bo‘ladi. Shuningdek, paradokslarni mantiqsiz va majoziy bo‘lgan bayonotlar deb ham atash mumkin, *masalan*: *“The pike flew to the tree to sing”* (Pike (baliq turi) qo‘shiq aytish uchun daraxtga uchib ketdi). To‘g‘ridan to‘g‘ri ma’no mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi, ammo bu metaforaning ko‘plab talqinlari mavjud.

Tilshunoslikda frazeologik paradoks tushunchasi mavjud “voqelikni turkumlashtirishning ma’lum stereotiplarini buzish, shunday tarzda yuzaga keladiki, turkumlashtirishning yangi yo‘nalishi asl yo‘nalishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri qarama-qarshi bo‘ladi”. Ushbu ta’rif paradoksning kognitiv tabiatini ta’kidlaydi.

²⁸ Большой словарь иностранных слов. https://gufo.me/dict/foreign_words

²⁹ From “A Tall Story” in “The Paradoxes of Mr.Pond” Paperback. — 2011

³⁰ From “A Tall Story” in “The Paradoxes of Mr.Pond” Paperback. — 2011

Bizning tadqiqotimiz uchun paradoksnings ko‘plab ta’riflari orasida quyidagi umumlashtirilganlarini asos qilib olamiz: *paradoks* – ushbu masala bo‘yicha umumiy qabul qilingan, an’anaviy nuqtayi nazardan keskin farq qiluvchi *kutilmagan, noodatiy (hech bo‘lmaganda shaklda), hukm (bayonot)*. Paradoks badiiy matnning semantik muhitini, uning tarkibiga kiruvchi til birliklari ma’noni o‘zgartiradigan, amalga oshirilishi natijasida yangi ma’nolar hosil bo‘ladigan quyi darajadagi bashorat qilinadigan (oldindan aytib beradigan) nostandart semantik konstruksiyadir. Demak, paradokslarni ikkilamchi til hodisasi, semantik hodisa sifatida qaraymiz.

1.2.8. Paradoksal matn tushunchalarining lingvistik va aforistik tavsifi

Tilshunoslikda badiiy matn “mazmunan yakunlangan, yozma ko‘rinishida obyektivlashtirilgan (rasmiylashtirilgan), adabiy qayta ishlangan, ma’lum maqsadga qaratilgan va pragmatik munosabatga ega, turli ko‘rinishdagi leksik, grammatik, mantiqiy, stilistik bog‘lanishlar bilan birlashtirilgan, sarlavha va bir qator maxsus birliklardan iborat asar”³¹dir. Yoki sodda qilib aytganda yagona kommunikativ vazifa bilan birlashtirilgan ko‘plab turg‘un gaplar” matndir.

Aksariyat tadqiqotchilar ushbu ta’rifni qo‘llab-quvvatlaydilar, chunki matnning asosiy vazifasi uning kommunikativ funksiyasidir. Olim Z.To‘rayeva quyidagi ta’rifni beradi: “U aloqaning asosiy birligi bo‘lib, moddiy-mantiqiy ma’lumot berish funksiyasidan tashqari, baholash va boshqa pragmatik funksiyalarni ham bajaradi”³². N.Bolotnova buni quyidagicha ta’riflaydi: “Muloqotga yo‘naltirilgan, kontseptual jihatdan himoyalangan ma’lumotli va mazmunli hamda pragmatik ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lum bir nutq akti doirasidagi til tuzilmasi mahsuloti”³³. I.Arnold shunday deydi: “Matn hissiy va estetik ta’sirga mo‘ljallangan, tilshunoslikda esa pragmatik jihat nutq akti

³¹ Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования – М.: Наука, 1981. – 18 с.

³² Turayeva Z.1994. Linguistics of the text and the category of modality. Questions of Linguistics. No 3. pp. 31-111. Russia

³³ Bolotnova N.1992. Artistic text in communicative aspect and communicative analysis of lexical level units. Tomsk: The Tomsk University’s publishing house.pp. 22-282. Russia.

ishtirokchilariga nisbatan til birliklariga xizmat qiladi”³⁴. Bundan tashqari ilmiy adabiyotlarda “matnning pragmatik xususiyatlari *intellektual, hissiy, rasmiy* tuzilmalarga egaligi ham e’tirof etiladi”³⁵.

Muallifning fikrlari (ehtiyotlar, motivlar, maqsadlar, tamoyillar, niyatlar, malakalar) va adabiy shakldagi g’oya (mavzu, syujet, kompozitsiya, personajlar, adabiy yo’nalish va janrning o’ziga xos xususiyatlari) inson ongining shakllanishini belgilaydigan yagona hodisa sifatida namoyon bo’ladi. O’ziga xos tarkibiy, semantik, semasiologik, uslubiy, stilistik va boshqa vazifalarga ega bo’lgan milliy ijtimoiy lingvistik va lingvistik verballashtirilgan tuzilmalarni ifodalovchi nutq”³⁶ dir.

Badiiy matn ma’lum darajada “**muallifning portreti**”dir. Badiiy matn muallifning voqelik talqini sifatida yozuvchining maqsadini ro’yobga chiqaradi, uning g’oya va tasavvurlarini tasdiqlaydi, shuning uchun “yozuvchi badiiy matn makonida voqelikning shunday lavhalarini tanlab oladiki, ular unga tanish va bir paytda uning tasavvurlariga mos keladi. Shu sababli, muallif maqsadini yetkazish vositasi sifatida paradoksning tanlanishi tasodifiy emasligini ta’kidlash mumkin.

Badiiy matnni yaratish davridayoq paradoksga murojaat masalasi hal qilinadi, chunki qo’yilgan maqsad – bu yozuvchining ijodiy faoliyatining aks etishi, bu o’ziga xos “yopiq ma’noviy tizim, uning yopilishidan keyin o’zgartirish imkonsiz bo’lib qoladi. Yopiq ma’noviy tizim subyektiv, hali so’z bilan rasmiylashtirilmagan va faqat subyektning o’ziga tushunarli ma’no”. Adabiy g’oya bir vaqtning o’zida paydo bo’lmaydi, balki u shakllanish jarayonida ma’lum darajada o’zgarib, rivojlanib boradi va yozuvchining majmuaviy individual tafakkuri va dunyoqarashiga bog’liqdir. Aytish mumkinmi, “matn muallif uchun matnning ma’nosi va uning maqsadi bir-biriga to’g’ri keladi, lekin matnni idrok etuvchi (o’quvchi) uchun matnning ma’nosi faqat muallif g’oyasining bir

³⁴ Arnold I.2002. Stylistics. Modern English: A Textbook for High Schools. 4th ed., Rev. and additional. Moscow: Flint: Science. p. 61. Russia.

³⁵ Turayeva Z.1994. Linguistics of the text and the category of modality. Questions of Linguistics. No 3. pp. 31-111. Russia

³⁶ Dibrova E.2014. The modern Russian language. Theory. Analysis of language units. In 2 parts. Part 1.Ponetics and ortho epi. Graphics and spelling. Lexicology. Phraseology. Lexicography. Morphemic. Word formation.Moscow: “Academy” Publishing Center. p. 25. Russia.

variantidir xolos, matnni qabul qilish paytida uni qayta tiklashga harakat qilishdir.

Inson ijodiy faoliyati xususiyatlarini o'rganish jarayonida til paradoksi adabiy matnni idrok etishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi, subyekt (o'quvchi) tajribasi va idrok etilgan obyekt (matn) orasidagi ziddiyatdan iborat mazmunning psixologik jihatlari bilan izohlanadi.

Darhaqiqat, fikrlash jarayonlarining zamonaviy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, voqelikni paradoks orqali idrok etish qobiliyati, yangi badiiy voqelikda ma'nolarni qurishga imkon beradi. Shuning uchun matnning paradoksal belgilanishi paradoksning ma'nolarini qurishdagi imkoniyatlari va uning badiiy matnda pragmatik amalga oshirilishi nuqtayi nazaridan aniqlanadi.

Matnni umumxalq tilining xususiy vositalari majmuasini birlashtiradigan alohida maxsus murakkab tizim sifatida ko'riladigan tasavvurdan va "o'z kod tizimi"dan kelib chiqqan holda, badiiy matn tipiklashtirilgan hamda noyob va qurish uslublarini o'zida birlashtiradi deb tasdiqlash mumkin. Paradoks – bu holda noyob usullar guruhiga tegishli bo'ladi. Paradoks orqali badiiy matnga, insonning taqdim etilgan voqelikning lavhasiga nisbatan amaliy va ma'naviy faoliyatining umumlashtirilgan tajribasi uzatiladi, ma'lum bir turkumlash amalga oshiriladi. Buni jumlar va matn semantikasi sohasidagi ishlanmalar tasdiqlaydi. Ular arxetip deb atalgan inson xotirasiga kiritilgan prototiplarga murojaatda paradoksning sezilarli ta'sirini ochib beradi.

Badiiy matndagi paradoksga murojaat qilish orqali muallif o'zining subyektiv kashfiyotini namoyon qilishga harakat qiladi, bir–biriga yaqin hodisalarning noaniqliklarini shaxsiy idrok etishni ta'kidlaydi, qarama-qarshi qutbli hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikni ochib beradi va shu tariqa real dunyo va idrokning subyektivligi, dualligi (ikkilanganlik)ni yetkazib beradi.

Faraz qilaylik, paradoksal tarzda belgilangan matn yoki paradoksal matn – o'z ichiga paradoksni olgan matn. Ushbu ta'rif D.N.Ushakova fikriga ko'ra "paradoksallik" tushunchasi asosida tashkil etilgan: "paradoksallik – paradoksni

o‘z ichiga olgan”³⁷. Paradoksal belgilangan matn, badiiy matnni o‘zidek mualliflik tanlovining matn g‘oyasi, syujeti, kompozitsiya stil darajasidagi ma’lum aktlari natijasi hisoblanadi. Ushbu guruhning chegaralarini aniqlash imkonini beruvchi paradoksal belgilangan badiiy matnlarni farqlovchi belgilar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

1. Matnda qarama-qarshiliklarning dialektik o‘zaro ta’siri ifodalanganligi. Bunda badiiy ritorik chegaralaridan chiqish belgilanadi. Uning uchun qarama-qarshiliklarning mavjudligi yetarli: ya’ni antiteza, oksyumoron yoki kataxreza.³⁸

2. Haqiqatni ochib beradigan ziddiyatlarning mavjudligi. Bu yerda paradoksni ziddiyat usulining mohiyati hisoblangan hamda shakl va mazmunning mosligini uzatadigan absurdlik usulidan farqlash kerak.

3. Qarama-qarshilik (ziddiyat) ning kutilmaganligi. O‘quvchi uchun kashfiyot bo‘lmagan (yaxshilik-yomonlik, yorug‘lik-qorong‘ulik, nafrat-muhabbat) ziddiyatlarni ifodalovchi antitezadan farqli o‘laroq, paradokslik dastlab idrok etuvchi ongida bo‘lmagan ziddiyatli tushunchalar bilan shug‘ullanadi. Paradoksal matnga o‘quvchi diqqatini qayd etadigan uning refleksiyasini faollashtirib, muammoning muallif tomonidan idrok etiladigan muxolifat (qarama-qarshilik)ni kutilmaganligi xos bo‘ladi.

Badiiy matnni PM (paradoksal matn) – matn kategoriyaga o‘tkazish uchun uch belgining har biri kerak bo‘ladi, bunda ularning hech biri alohida yetarli bo‘lmaydi va faqat qolgan ikkitasi bilan birgalikda farqlovchi xususiyatga ega bo‘ladi.

Badiiy matnda paradokslar oddiy va misli ko‘rilmagan, kanonik³⁹ va yangilik o‘rtasidagi chegarani belgilab, mazmunni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Odatiy fikrlash algoritmlarini hisobga olmaganda, paradoks matnini qabul qiluvchini ma’noni yangi idrok etishga yo‘naltiradi. Paradoks orqali absurd bilan

³⁷ Ushakov D.N. Толковый словарь русского языка. The explanatory dictionary of the Russian language. Moscow: — 1939.

³⁸ **Kataxreza** [yun. katachresis – suiiste’mol qilish; noto‘g‘ri qo‘llash] Qarama-qarshi tushunchalarni bog‘lash, so‘zni o‘z asl (etimologik) ma’nosiga muvofiq bo‘lmagan holda qo‘llash. *Qizil siyoh* [siyoh so‘zi aslida “qora” ma’nosini bildiradi]. <https://davaktiv.uz/oz/menu/til-munosabatlar-kaliti>

³⁹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kanon.yun.qonun,qoida>

chegaradosh fikrlar ifodalanadi. Ular o‘quvchini reflektiv (aks ettiruvchi) pozitsiyasiga olib chiqadi va odatiy vaziyatga boshqa nuqtayi nazardan qarashga majbur qiladi, umum e’tirof etilgan hukmning qadriyatli mazmunini o‘zgartiradi.

Voqelikni paradoksal idrok etish badiiy matnda ma’nolarni taqdim etishning maxsus qobilyatini va matnni yaratish, yo idrok etishda turli universal mexanizmlardan foydalanishni belgilaydi. Bu holatni misolda ko‘rib chiqamiz: “He was always late on principle, his principle being that punctuality is the thief of time. (*U hamma joyga kechikib borishni o‘ziga odat qilib olgan edi. Uning nazarida hamma ishini aniq vaqti – soatida qiladigan odam vaqtdan yutqazadi.*)” (O.Wilde “The Picture of Dorian Gray”).

Bizning tadqiqotimiz uchun paradoksal ravishda belgilangan matnni, ma’no darajasida paradoksal bilan tavsiflanadigan paradoksal ibora birligi yoki matn tuzilmaviy sxemasi orqali aniqlanadigan uning formal ifodasidagi til paradoksi ishtirok etadigan polisemantik badiiy matn sifatida aniqlanadi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, paradoksal badiiy matnning polisemantligi, yadroning mavjudligi tufayli diametrial qarama - qarshi talqinni hosil qilmaydi.

Paradoksal belgilangan matnning tavsiflaridan biri unda paradoksal frazeologik birliklar mavjudligidir. A.V.Bersenevaning so‘zlariga ko‘ra paradoksal frazeologik birlik – shakli jihatdan qarama-qarshi frazeologik birlik, ya’ni komponentlarning mantiqiy-semantik qarama-qarshilikni o‘z ichiga oladi. Mantiqiy nomuvofiqlik badiiy matnga paradoksal obrazlilik bag‘ishlaydi, bu esa ekspressiya va emotsionallikni oshiradi. A.N.Bersenevaning “Nemis tilida paradoksal matnlarning strukturaviy–funktional xususiyatlari” nomli dissertatsiyasida, matndagi paradoksal metaforik va metonomik qayta ko‘rib chiqish natijasi hisoblanadi, bunda kutilmaganda bir voqelikning sohasiga tegishli bo‘lgan va bo‘lmagan turli tushunchalarning semantik rejalari yaqinlashadi.

Paradoksal matnlarda qarama-qarshilikning paydo bo‘lishi idrok etish obyekt (matn) ida “subyekt tajribasiga nisbatan bir-birini istisno qiladigan obyektning ikki holati haqida axborot” idrok etish obyekt (matn) ida birlashishi bilan bog‘lanadi.

Paradoksal matn paradoksallik kabi xususiyatga ega. Ilmiy-nazariy adabiyotlarda “paradoksallik” tushunchasi tez-tez uchrab turishiga qaramay, u lingvistik atama maqomiga ega emas. Faqat ba’zi tadqiqotlarda biz paradoksallikni ta’riflashga urinishni ko’ramiz. Masalan, L.S.Vgotskiy paradoksallikni “affektiv ziddiyat va mazmuni shakl bilan yo‘q qilish” deb ta’riflagan.

L.S.Vgotskiyning xizmati shundaki, uning “san’atning har bir asari o‘zida mazmun va shakl orasidagi ichki kelishmovchilikka ega” va “rassom aynan shakl yordamida shunday samaraga erishadiki, mazmun yo‘q qilinadi, go‘yoki so‘ndiriladi” degan fikrlardan iborat. Aytish mumkinki, bu so‘zlar ma’noni paradoks orqali amalga oshirish tamoyilining o‘zini tushuntirishni ham o‘z ichiga oladi.

Lingvistik lug‘at paradoksallikni “paradoksallikning sifati va xususiyati” sifatida ta’riflaydi, ya’ni uni paradoks bilan bog‘laydi. Paradoksallik tushunchasidan lingvistika adabiyotshunoslik, estetika, psixologiya bo‘yicha ishlarda keng foydalaniladi, bunda u eng umumiy ma’noda kutilmaganlik, fikrlar, obrazlarning g‘alatiligi, bayon mantiqiyliigi kabi ma’nolarda tushuniladi.

Paradoksallik so‘zini g‘alatilik (g‘aroyiblik), kutilmaganlik ma’nosida qo‘llashni va usul, badiiy matnni tashkil etishning tamoyili ma’nosida ishlatilishini farqlash kerak.

Stilistikada matn paradoksi deganda, bir-biriga nisbatan semantik qarama-qarshilikda bo‘lgan nostandart ma’nolarni yaratishda ishtirok etuvchi va matnni boshqa-boshqa tarzda talqin qilinishiga sabab bo‘ladigan turli-tuman leksik vositalarni birlashtirgan ko‘p jihatli hodisa tushuniladi.

Paradoksallik dunyoni ko‘rish usuli bilan belgilanadigan, “noaniq, nomuvofiqlik” subyektiv modallikni o‘z ichiga oladi, unda hayotiy voqealar ataylab g‘alati, kutilmagan tarzda tashkil etiladi va olamni badiiy idrok etish uchun zarur shart bo‘lib xizmat qiladi.

Paradoksal matnni tashkil qilish darajasida hikoya qilishning odatiy mantig‘i buzilishi yuz berayotganni aniqlash mumkin. Masalan, Oskar Uayldning “Baliqchining ruhi” hikoyasida qarama-qarshi asoslarning birlashishi natijasida

hosil bo'lgan paradoksal obrazli qurilmalar matndagi faktik va impilativ axborotlar orasida nomutanosiblikka olib keladi. Matndagi qarama-qarshi asoslar orasidagi antinomialarni hal qilib bo'lmasligi bu asoslardan birini neytrallashtirish orqali hal qilinadi.

Paradoksal matni tashkil etishning turli darajalarida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, asarning nomi, mavzu-romantik yo'nalishiga ega bo'lgan holda, "badiiy idrok etishning birinchi akti" hisoblanadi, chunki u "umuman va butunligicha asarni" ifodalaydi. Masalan, Teffning "O'tmishning bashoratchisi" hikoyasining sarlavhasida keltirilgan o'tmishning bashoratchisi oksyumoroni hermenevtik dominant hisoblanadi va o'quvchi refleksiya semantik qarama-qarshi leksik birliklarni birlashtirish orqali faollashtiradi va paradoksal matn tashkil etuvchi ma'nolar sohasini aniqlaydi. Paradoksal ta'siri qarama-qarshi ma'nolar to'qnashuvi natijasida yuzaga keladi: bashorat qilish kelajakdagi har qanday voqeani taxmin qilishni anglatadi va o'tmish uning ishtirokchisiga ma'lum bo'lgan voqealar va harakatlarni tasvirlaydi. Asar kontentida "bashoratchi" so'zining denotativ ma'nosini to'g'ridan-to'g'ri inkor etish yuz beradi, unga diametral qarama-qarshi belgilar beriladi. "Borish kerak – deb o'yladim men, bo'lmasa yashayapsan – hech nimani bilmayapsan. Borib hech bo'lmasa o'tmishni bilib olaman".

Asar nomining ma'nosini anglash o'quvchidan hikoya matnining mazmunini izohlashda mantiqiy ketma-ketlikni yaratishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishni talab qiladi. Hikoya qahramoni, bayramona turmush tarzini olib borgan holda, bashoratchining huzuriga tashrif buyurishi orqali o'zini ko'ngil xushlashga qaror qiladi. O'quvchi "bashoratchi" leksik birligining ma'nosini tiklab, o'z tajribasiga murojaat qiladi va biror narsani oldindan ko'ra oladigan, bashorat qiladigan odamni topadi. Ushbu ma'noni o'zlashtirish faqat sarlavhadagi qarama-qarshilikni anglash mumkin bo'lgan noto'g'ri tushunishni bartaraf etish va keyin asar matni ichidagi ma'nolarni izchil qurish: qahramonning asosiy muammosi uning hozirgi holatini idrok eta olmaslik va anglay olmaslikdir, uning hayotidagi voqealarni mustaqil baholay olmasligidir. Butun asarning ma'nosi-hayotning

mazmuni haqidagi savol matnning tuzilishi nuqtayi nazaridan hikoya sikli va boshlang'ich nuqtaga qaytish tamoyiliga muvofiq tashkil etilgan dialogdir.

Bunday rekrusivlik asarning uning qismlari nisbati orqali ifodalangan xususiyatni ham ta'kidlaydi. Bunday paradoksallikni N.A.Kupinaning "Muallif maqsadi yoki talqin qiluvchining fikri" asarida ham kuzatishimiz mumkin. Unda "matnning obrazli tuzilishining paradoksalligi" va "oppozitsion (qarama-qarshi) munosabatlarda bo'lgan matnli bloklarga tegishli bo'lgan bir chiziqli elementlar qatorida birikishni bir vaqtning o'zida amalga oshirish" orasida o'zaro aloqa kuzatiladi.

Paradoksallik tushunchasi haqidagi mulohazalar E.B.Temyanikovaning "Paradoksning kognitiv tuzilishi (strukturasi): ingliz tili materiallarida" asarida uchratish mumkin. Muallifning ta'kidlashicha, paradoksallik qandaydir bir adabiy janrga xos xususiyat bo'lib qolmay, balki adabiyotdagi butun yo'nalish yoki ma'lum davr yo'nalishlari majmuasi ham bo'lishi mumkin. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi odamlarning dunyoqarashi, madaniyatida aks etgan, inson mavjudligining barcha parametrlari o'zgarishi bilan bog'langan insonlar ongida keskin o'zgarishga, voqelikka ularning munosabatini ko'rsatadi. Xususan, adabiyotda o'sha davr yozuvchilarining paradokslarga moyilligini aks ettiruvchi yangi hikoya texnikasi paydo bo'ladi. Hikoya qilish texnikasining tahlili Syuzanna Nalbantyaning "Seeds of Decadence in the Late Nineteenth-Century Novel: A Crisis in Values Paperback" ("XIX asr oxiridagi romandagi tanazzul belgilari: qadriyatlar inqirozi") kitobida batafsil yoritilgan. [June18,1988] Muallifning ta'kidlashicha, "Asrlar davomida Yevropa yozuvchilarining ijodida paradoks o'zida deyarli muqarrar ravishda nafaqat hazil, komediyani, balki yaqqol, ba'zida *ojiz g'azab, og'riq ko'z yosh g'azabni* yashiradi. Bu paradoks ko'p hollarda fojea yoqasida turadi."

Xulosa qilib aytganda, paradoks tushunchasining quyidagi qirralarini qayd etishimiz mumkin: **muallif modalligi, asar uslubi, asarning kompozitsion chizgisi, adabiy janr tavsifi va yozuvchi ijodi tavsifi.**

Paradoks va aforizmni taqqoslashga aforistika bo'yicha ko'plab asarlar bag'ishlangan, ularda paradoks va aforizm ayniyatlashtiriladi. Paradoks bu "komik (hajviy) san'atning yakunlangan mustaqil asari va hajmi bo'yicha katta hajviy asarlarning ifodali vositasi".

Mustaqil faoliyat ko'rsatish qobilyati paradoks va aforizmni ayniyatlashtirish uchun asosidir. Aynan 1) aforizm 2) paradoksal aforizm farqlanadi. Antiteza parallelizmdan foydalanadigan paradoksal aforizimda ikkita qarama-qarshi g'oya grammatik ifodaga ega bo'ladi, tavsifiy adabiyotlarda aforizimdagi paradoks yoki aforistik paradoks haqida so'z boradi. Boshqacha qilib aytganda, bu ikki til hodisasi birlashib, emerjentlik tamoyili bo'yicha yangi funksional birliklar hosil qiladi: **aforistik paradoks** va **paradoksal aforizm**.

Aforizmlarning paradoksga murojaati maxsus effekt yaratishga intilish va shu bilan anglashni yanada chuqurroq darajaga siljishga ta'sir etishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari aforizmda paradoks bilish jarayonini unga singdirilgan qarama-qarshilik va vaziyatni qamrashning to'liq emasligi hisobiga jadallashtiradi.

Aforistik paradoks faqat o'z tadqiqotlari tufayli va hamma ham qodir bo'lmagan standart fikrlashdan uzoqlashish sharoitida yakunlanganlikka erisha oladi. Bu insondan o'rtacha tasavvurlar, stereotip va o'rnatilgan standartlardan mavhumlashtirish ko'nikmasini talab qiladi. Aforistik paradokslarda til vositalari ularga xos bo'lmagan funksiyalar va harakat qila boshlaydi. Masalan: antonimlar sinonim vazifasini bajaradi, sinonimlar antonimga aylanadi. *A man's house is heaven and hell as well.* (*Insonning uyi jannat ham, do'zax ham bo'lishi mumkin*)

T.N.Monyakinaning "Aforizmlar janrining lingvistik-stilistik xususiyatlari" asarida paradoks aforizm uchun "qurilish materiali" sifatida ko'rib chiqiladi, shuningdek, muallif paradoks usuli aforizmda originallikni yaratish vositalari orasida eng samarali deb hisoblaydi deb ta'kidlaydi.

Qisqalik, lakonizm, umumlashganlik, kutilmaganlik, alogizm singari paradoksning xususiyatlari paradoksal aforizm kontekstini shakllantirishga yordam beradi. Lakonizm, paradokslar va aforistik so'z-iboralarning badiiy asar tilining obrazlilikini kuchaytiruvchi va ma'noni qisqa ifodalovchi vositalar ekanligi

xususida fikr yuritar ekanmiz, shu o‘rinda mavzuga doir yana bir qiyosiy misollar tahlilini keltirib o‘tishni lozim topamiz. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, lakonizm (qisqalik) paradoks va aforizm kabi stilistik vositalar faqat ingliz tili va adabiyotigagina xos xususiyatlar bo‘lib qolmasdan, balki rus va o‘zbek adabiy tillarida va jonli so‘zlashuv nutqlarida ham keng qo‘llaniladi. Masalan, jahon adabiyotida yangi uslubga asos solgan va badiiy asar tilida qisqalikni yuksak qadrlagan A.P.Chexov va uni buyuk ustoz deb ulug‘lagan mashhur so‘z san’atkorimiz Abdulla Qahhor ijodida lakonizm, frazeologizm, paradoks va xalqona aforistik so‘z va iboralarning namunalarini ko‘plab uchratamiz. Jumladan, Chexovning “Buqalamun” (“Xameleon”), “G‘ilof bandasi” (“Chelovek v futlyare”), “Unter Prischebeev” va “Hasrat”⁴⁰ (“Gore”) hikoyalarda hamda Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin”, “O‘g‘ri”, “To‘yda aza”⁴¹, “Tobutdan tovush”^{*} singari asarlarining nomlanishida va tili-uslubida ham shunday stilistik figuralar va obrazli so‘z-iboralar mahorat bilan qo‘llanganligiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, maktab darsliklariga kiritilgan va jahon adabiyotidagi mashhur novellalar qatorida yuksak e’tirof etilgan birgina “O‘g‘ri” hikoyasining tili va uslubiga nazar tashlaylik. Shaklan qisqaligi va mazmunan teranligi bilan ajralib turadigan mumtoz bu hikoya tilida “Otning o‘limi itning bayrami” va “Yo‘qolmasdan oldin bormidi?” kabi iboralar mohirona qo‘llanganligiga amin bo‘lamiz. Eng muhimi, ular hikoyaning asosiy hayotiy mazmunini chuqurlashtirib, qahramonlar xarakteri va tilini individuallashtirish bilan birga, asarning ta’sirchanligini ham oshirishga xizmat qilganini ko‘rishimiz mumkin.

Paradoksning badiiy asarning g‘oyaviy-obrazli tizimdagi o‘rni mazmun va uni ifodalovchi xususiyat til vositalarining birligini tahlil qilish orqali o‘rganiladi.

Paradoks matn yaratuvchiga ega va matnning yaxlitligini yuzaga keltiradi. Paradoksning semantikasi undan umumiy tushunish doirasidan tashqariga chiquvchi va qarama-qarshiliklarni o‘z ichiga olgan harakatlar, hodisalar, jarayonlarni belgilash uchun foydalanishni nazarda tutadi: fikrlarni odatiy

⁴⁰ Chexov.A.P. Povestlar. Hikoyalar. Toshkent. 2013.

⁴¹ Qahhor A. Asarlar. Olti tomlik. 1-t. Toshkent. 2019.

harakatlardan va hodisalarning rivojlanishidan og‘ishi, harakatlarni nostandart bajarilishi, inson ichki holatining dialogi, shuningdek, qandaydir harakatlarning adekvatlik darajasidir.

Paradoks badiiy matn tarkibida matn yaratuvchi va ma’no ifodalovchi funksiyalar bilan birga bir qator stilistik funksiyalarni ham amalga oshiradi. I.V.Arnold ta’kidlaganidek, funksiya o‘zgaruvchi bir kattaliklarni boshqalaridan bog‘liqligi bo‘lgan funksiyaning matematik tushunchasi bilan o‘xshashligini o‘tkazib, shuningdek, stilistik funksiyaning noeksplitsitlik, akkumulyatsiya, irradatsiya singari muhim xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi.

Matndagi paradoksning vazifasini aniqlash uchun, o‘zida bayonot elementlarining umumiyliigi o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro bog‘liklikdagi ma’lumotlarni o‘rganish kerak, chunki “jamlanmadagi so‘zlar bevosita ma’noda ifodalagan narsadan ko‘proq narsani aytish mumkin”. A.V.Fedrov ta’kidlaydi: “Agar uslub til vositalarini tanlash va qo‘llashda tashkiliy tamoyil mavjudligi bilan tavsiflangan tildan o‘ziga foydalanish tizimi bo‘lsa, u holda stilistik hodisa... alohida lingvistik elementni bog‘lash va ishlatishdir, boshqa elementlar bilan o‘zaro bog‘liqlik. Bu shartda tilning alohida elementi uslubiy vosita vazifasini bajaradi, stilistik hodisani keltirib chiqaradi, stilistik funksiyaning tashuvchisiga aylanadi. Badiiy matndagi paradoksning vazifalarini aniqlash uchun kontekst muhim ahamiyatga ega”.

Paradoksning til tabiatini o‘rganish bo‘yicha dastlabki ishlarda paradoksning quyidagi funksiyalari qayd etilgan:

1) isbotlanish funksiyasi “Deshifrlash jarayoni o‘quvchi yoki tinglovchini hayratga soladigan shakldagi qarama-qarshilikdan boshlanadi. Dekodlash jarayonida qo‘shimcha ma’nolarni aniqlash yuz beradi, yozuvchining fikrlash bosqichini tiklashga yordam beradigan yashirin mazmun ochiladi”.

I was on the point of explaining to Gerald that the world has always laughed at its own tragedies, that being the only way in which it has been able to bear them. And that, consequently, whatever the world has treated seriously belongs to the comedy side of things. (Men Jeraldga dunyo har doim o‘z fojialariga kulib

kelganini va bu ulardan omon qolishning yagona yo'li ekanligini tushuntirmoqchi edim, shuning uchun ham dunyo jiddiy qabul qilgan hamma narsalar komediya tomonida) (O.Wilde. A Woman of No Importance, Act 3).

Muallifning fikricha, isbotlanuvchanlik paradoksning ma'lum inkorga yo'nalganlikni yaratadi. Paradoksdan foydalanish ba'zi hollarda muammoni yashirishga yordam beradi, behayo kontekstni yashirishga yordam beradi. Shunday qilib, Oskar Uayldning "Dorian Grey surati" romanida paradoks orqali Buyuk Britaniya bosh vaziri Addingtonga ishorani ko'rishimiz mumkin: To doubt is to decide, o'quvchilar orasida keskin reaksiyaga sabab bo'ldi, chunki uning faoliyatining asosiy tamoyillarini aks ettirgan. Paradoksning isbotlanuvchanlik funksiyasini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlariga A.Sherbina e'tibor qaratadi: "Haqiqat ham, yolg'on ham bir xil muvaffaqiyat bilan ifodalashning paradoksal shakli ortida yashirinishi mumkin"⁴². Boshqacha qilib aytganda muallif paradoks vositasida ham to'g'ri, ham xato tasdiqlarni bayon qilish mumkinligini tasdiqlaydi.

2) Ishontirish funksiyasi. Paradoks haqida gapirganda, isbotlash va ishontirish funksiyalarni farqlash kerak, chunki isbot fikrning obyektiv borliqqa mosligini ko'rsatadi, ishonch orqali esa ilgari surilayotgan tasdiqning to'g'riligi tasdiqlanadi. Oskar Uayld "Yolg'onning parchalanishi" kitobida ikki qahramon Vivian va Kiril o'rtasidagi dialogda san'atning tabiati haqidagi turli dalillar keltiriladi. Ocherkda, avvalo, barcha haqiqiy san'at yolg'on ekanligi va zamonaviy yozuvchilarning o'z asarlariga oddiy voqelikni kiritishni talab qilishlari "yolg'onchilikning tanazzulga uchrashiga" olib kelishi ta'kidlanadi. Insho, shuningdek, tabiatning san'at uchun zaif ilhom manbayi ekanligini va aslida san'atga taqlid qilishini ta'kidlaydi. Uchinchi dalil shuki, hayot san'atga nisbatan ko'proq taqlid qiladi. Uayld o'z davrining, uning fikricha, ideallariga zid bo'lgan bir qancha yozuvchilarni tanqid qiladi. "Yolg'onlarning parchalanishi" Uayldning XIX asr oxiridagi estetika harakati tamoyillariga sodiqligini ko'rsatadi, u "san'at uchun san'at" g'oyasini

⁴² А. Щербина. – М: Русская литература, 2000. Т 2. – с. 144-153.

ta'kidlaydi, bu yerda san'atning yagona maqsadi uning go'zalligidir. Ushbu asar o'sha davrda keng tarqalgan estetik g'oyalarni o'zida mujassam etgan bo'lib, san'atning tabiati haqidagi falsafiy munozarani bir-biriga yot bo'lishiga ishontirish uchun paradoksdan foydalanadi.

The only real people are the people who never existed, and if a novelist is base enough to go to life for his personages, she should at least pretend that they are creations, and not boast of them as copies. (Yagona bo'lgan haqiqiy odamlar - bu hech qachon mavjud bo'lmagan odamlar va agar yozuvchi yetarlicha asosga ega bo'lib, o'z qahramonlarini jonlantirib hayot baxsh eta olsa, u hech bo'lmaganda ularni ijodining mahsuli deb ko'rsatishi va o'xshash qahramonlari bilan maqtanmasligi kerak) (O.Wilde "The Decay of Lying"1.p.)

Ushbu paradoksdan *real* so'zining semantik kontekstual kengayishi yuz beradi, u ko'chma ma'noda "Haqiqiy san'at asari sifatida" kabi qo'llaniladi, so'zlarni g'ayrioddiy ma'noda qo'llash o'quvchining e'tiborini markazlashtirib jalb qilish va o'z qarashlarining to'g'riligiga ishonch hosil qilish maqsadida ta'sir etishga intilish bilan tushuntiriladi.

- 1) Matnni intellektuallashtirishning vazifasi.
- 2) Matnning aforistikligini yuzaga keltirish vazifasi.

Badiiy matnda aforistik ifoda yaratish funksiyasini paradoks orqali amalga oshirish doirasida kommunikativ va stilistik funksiyalarning qo'shimcha qatori amalga oshiriladi: 1) yangi bilimlarni yetkazish; 2) ekspressiv dekorativ funksiyaning shakllantirishning jozibali va yorqinligiga erishish; 3) ma'lum haqiqatni aktuallashtirish; 4) hajviy effektni yaratish, bayonotning qisqaligiga erishish; 5) atrofdagi voqelik hodisalarining qarama-qarshi xarakterini aks ettirish. Bu funksiyalar "bir vaqtning o'zida ham, turli kombinatsiyalar (birikmalar)da ham bir-birini to'ldirgan va bog'langan holda amalga oshiriladi".⁴³

Oskar Uayldning "Jiddiy bo'lish ahamiyati qanchalik muhim" pyesasidagi quyidagi dialogi boshqa sharoitlarda keraksiz dramatik ko'rinishi mumkin bo'lgan vaziyatlar suhbatning intellektual energiyasi bilan quvvatlandi:

⁴³ Манякина Языково-стилистическая характеристика жанра афоризмов. Дис. ... канд. филол. наук 2000. 47с

Lady Bracknell: I'm sorry if we are a little late, Algernon, but I was obliged to call on dear Lady Harbury. I hadn't been there since her poor husband's death. I never saw a woman so altered; she looks quite twenty years younger. And now I'll have a cup of tea, and one of these nice cucumber sandwiches you promised me.

(Agar biroz kechikkan bo'lsak, kechirasiz, Algernon, lekin men xonim Xarberiga qo'ng'iroq qilishga majbur edim. Uning bechora eri vafot etganidan beri bormagan edim. Men hech qachon bunday o'zgargan ayolni ko'rmaganman; u anchagina yigirma yoshga yoshroq ko'rinadi. Endi men bir piyola choy ichaman va siz menga va'da qilgan bodringli sendvichlardan birini yeyman.)

Algernon: I am greatly distressed, Aunt Augusta, about there being no cucumbers, not even for ready money. (Avgusta xola, hatto tayyor pulimizga ham bodring yo'qligidan qattiq qayg'uraman.)

Lady Bracknell: It really makes no matter, Algernon. I had some crumpets with Lady Harbury, who seems to me to be living entirely for pleasure now. (Bu haqiqatan ham muhim emas, Algernon. Xarberi Xonim bilan ozroq kichik kulchalar yedik, u menga hozir butunlay zavq uchun yashayotganga o'xshaydi.)

Algernon: I hear her hair has turned quite gold from grief. (Algernon: Eshitishimcha, uning sochlari qayg'udan oltin rangga aylangan.)

Bracknell: It certainly has changed its colour. From what cause I, of course, cannot say. (Qayg'u-alam, albatta, sochining rangini o'zgartirdi. Nima sababdan, men ayta olmayman). (O.Wilde. The Importance of Being Earnest).

6) Hazil (yumoristik) effektini yaratish. Paradoks pyesalarda dialog qonunlariga bo'ysunadigan yumoristik effektini yaratish vazifasini ham bajaradi. Maqsad va xulosa muallif tomonidan ataylab ajratilishi mumkin. Paradoksni savolning iborasi bilan ajratish diqqatni keskinlashtiradi va kulgi effektini kuchaytiradi. Ushbu holatni quyidagi misollarda kuzatishimiz mumkin.

1. *Lord Goring: If there was less sympathy in the world there would be less trouble in the world. (Agar dunyoda hamdardlik kam bo'lsa, muammolar kamroq bo'lar edi).*

Lord Caversham... That is a paradox, sir, I hate paradoxes. (Bu paradoks, janob, men paradokslardan nafratlanaman)

Lord G o r i n g. So do I, father. Everybody one meets is a paradox nowadays. It is a great bore. It makes society so obvious. (Men ham, otaman. Bugungi kunda uchrashadigan har bir kishi paradoksdir. Bu juda zerikarli. Bu jamiyatni shunchalik aniq ko'rsatadi).

Lord Caversham. ... Do you always really understand what you say, sir?(Siz har doim aytganlaringizni tushunasizmi, janob?)

Lord Goring... Yes, father, if I listen attentively. (Ha, ota, diqqat bilan tinglasam tushunaman) (O.Wilde. An Ideal Husband, act III).

2. Algernon: You don't seem to realize that in married life three is company and two is none. (Oilaviy hayotda uchta hamroh, ikkita hech kim emasligini tushunmayapsiz shekilli). (O.Wilde. The Importance of Being Earnest, act I).

Op. Two is company, but three is none. (Ikkita hamroh, uchta hech kim)

Matnning ushbu parchasida bayonot elementlarini almashtirish hazil effektini yaratishga olib keladi.

3. I never put off till tomorrow what I can possibly do – the day after. (Bugungi ishni ertaga qoldirma) (O.Wilde. Quotes)

Muallif “*Never put off till tomorrow what I can do today*” (*Bugun qila oladigan ishni ertaga qoldirma*) maqolining tarkibiy qismlarini qayta o'rnini almashtirish bilan matnda aniq ifodalanmagan ma'nolarga o'quvchining e'tiborini qaratadi. Shu tariqa ko'ramizki, paradokslarning funksiyalari qanday matnlarda, jumladan, komediyalarda qo'llanishiga qarab yanada kengayishi va xilma-xillik kasb etishi mumkin.

1.3.8. Paradoksal uslub va uning sintaktik xususiyatlari

Paradoksning lingvistik tabiatini o'rganish bo'yicha ishlarning eng katta guruhini paradoksni stil kategoriyasi sifatida o'rganish tashkil etadi. Ularni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Adabiy-badiiy paradoks bo'yicha ishlar.

2. Stilistik uslub sifatidagi paradoks bo'yicha ishlar.

Shuni ta'kidlash kerakki, paradoksni stilistik uslub sifatida qarashga nisbatan yagona fikr hozirgi vaqtda stilistikada mavjud emas.

Tilshunos N.Y.Shpektorova paradoksni stilistik kategoriya sifatida ko'rib chiqishning qonuniyligini asoslab, bunday talqin foydasiga quyidagi dalillarni keltiradi: "badiiy paradoks bir qator yozuvchilar uslubining o'ziga xos xususiyati bo'lib, yuqori darajadagi oldindan aytib bo'lmaydigan, mazmuni-obrazlilik, ifodalilik, belgilarga urg'u berish, turli hissiy ranglarning keng doirasi kabi fazilatlarini tashkil etgan "stilistik axborot" ataladigan narsaning tashuvchisidir".⁴⁴

Stilistika adabiy/adabiy-badiiy paradoks va paradoksning stilistik uslubi tushunchalarini ajratadi. Adabiy paradoks paradoksning stilistik uslubi tushunchasiga nisbatan ma'no qamrovi kengroq, chunki o'z ichiga aniq til strukturasi sifatidagi paradoksdan tashqari vaziyat yoki syujet kompozitsiyasini o'z ichiga oladi: Bu juhatdan O.Uayldning "Dorian Grey portreti" romani, "Baliqchi va uning ruhi" hikoyasi, "Jiddiy bo'lishning muhimligi" pyesasi muhimdir.

Paradoks nutq figurasi sifatida adabiy-badiiy paradoksni yaratish vositasi hisoblanadi.⁴⁵ Paradoks stilistik uslub sifatida Komiks nazariyasida ko'rib chiqiladi, u paradoksni g'alati tuyiladigan, aql bovar qilmaydigan, kulgili va qarama-qarshi yoki o'zida haqiqatni aks ettiradigan tasdiq sifatida belgilaydi. Komiks nazariyasida paradokslar aforizmlar, hazillar va kalambur (o'yin)lar bilan bir qatorda o'rganiladi. Nemis tili stilistikasi fanining darg'asi professor E.G.Rizel yumor va satiraning frazeologik usullarini ko'rib chiqish jarayonida stilistik paradokslarni tavsiflaydi, ularga quyidagilarni kiritadi:

1. Turli funksional leksikani aralashtirish.
2. Turli stilistik bo'yoqdor so'zlardan foydalanish.
3. Mazmun va shakl orasida nomuvofiqlikni ataylab yaratish.

⁴⁴ Шпекторова Н. Ю. К вопросу о литературно-художественном парадоксе (на материале произведений О. Уайльда) / Н.Ю. Шпекторова // Вопросы лексикологии, лексикографии и стилистики романо-германских языков: сб. науч. трудов. Самарканд: Самарканд. гос. ун-т, 1975. С. 218-225

⁴⁵ O'sha manba 12-bet

Paradoksni mustaqil stilistik vosita sifatida ko‘rib E.G.Rizel stilistik paradokslarning uchta guruhini ajratadi:

1.Faqat jumalarda amalga oshiriladigan yumor (hazil) va satirada ifodalash uchun barqaror stilistik vositalar. Bu stilning (uslubning) buzilishi bo‘lishi mumkin, ya’ni funksionalligi va semantik-ekspressiv bo‘yog‘i bilan farqlanadigan, o‘zaro ta’siri va muloyimlik dissonansni keltirib chiqaradigan, til struktura (tuzilma)larining ongli birikmasi.

2.Nutq predmeti va bayon etish shakli orasidagi tezkor ziddiyat, ya’ni shakl va mazmun o‘rtasidagi nomuvofiqlikka asoslangan vositalar.

3.Parodiyalash vositalari.

Badiiy adabiyotda paradoksdan muallif ko‘pincha hajviy effekt yaratish maqsadida foydalanadi. Hajviya nazariyasi estetikaning bo‘limi sifatida badiiy usullarga katta e’tibor beradi.

Hajviyaga, ya’ni satira va yumorga hajviy san’at nazariyasida quyidagicha ta’rif beriladi: “Shunday ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan – ziddiyat va nomuvofiqlik; maqsadlar –vositalar; shakllar–mazmun; harakat–vaziyat; mohiyat – uning namoyon bo‘lishi; shaxs–uning mohiyati; niyat-natija; asos-yuksaklik; go‘zal-xunuk; eski-yangi va hokazo, estetik ideallar nuqtayi nazaridan, voqelikning rivojlanishini obyektiv kechishiga javob beradigan, hissiy tanqid qilish, bo‘rttirib ko‘rsatish, satirik ta’sir qilish va hakoza larga loyiq”⁴⁶. Masalan: Дело в шляпе, Do‘ppisi osmonda, oshig‘i olchi.

Komiks nazariyasida paradoks voqelikdagi qarama-qarshiliklarni ochish vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi va estetik tanqid belgilariga mos keladi. Komiksning asosida ko‘p hollarda paradoks asosini tashkil etadigan qarama-qarshilik bo‘lib, hazil effektini yaratishga olib keladi: *Perhaps, one never seems so much at one’s ease as when one has to play a part. (Ehtimol, hech qachon odam rol o‘ynashi kerak bo‘lgandek o‘zini bemalol his qilmagan)(The Picture of Dorian Gray by Oscar Wilde: Chapter 15.135-bet)*

⁴⁶ Боров Ю.Б. Комическое и художественные средства его отражения /Проблемы теории литературы. – М.: Изд-во Академии Наука 1998. Т I. – с. 298-353.

Huddi shunday kuzatishni V.V.Ovsyannikovning “Ingliz nasrida yumorni ifodalashning til vositalari” deb nomlangan til jarayonlarini tizimlashtirish, yumor funksiyalarni ajratish bo‘yicha asarda, paradoksni ifodalash uchun stilistik uslub sifatida ko‘rib chiqiladi.

Paradokslar, ayniqsa, istehzoli tarzda yozadigan ironiyaga moyil yozuvchilarga xosdir, bu ironiya va paradoksning ayniyatiga olib keladi. “Ironiya - bu hajviy paradoks”. Boshqa tadqiqotlar bu hodisalar o‘rtasidagi farqni ta’kidlaydi. Ironiya muallif tomonidan bayonotga qarama-qarshi bo‘lgan ma’noni yetkazish uchun ishlatiladi, paradoksning o‘zida qarama-qarshilik mavjud bo‘ladi.

Umuman olganda, stilistikada paradoks katta darajada hissiy to‘yinganlik bilan tavsiflanadi, shuning uchun uning obrazlilik uning komponentlari (tabiiy qismlari)da qarama-qarshiliklar yo‘l berilishiga asoslanadi. Bunday yo‘l qo‘yilishlar asosida so‘zlar orasida yangi, notipik aloqalarini ochib beradigan metaforik va metanomik aloqalar yotadi.

O‘z vaqtida tadqiqotchilar orasida oksyumoron va paradoks kabi stilistik vositalarni farqlashni noo‘rin deb hisoblash va bu usullarni allegorik (majoziy yoki mantiqiy bo‘lmagan) aloqalarning ma’lum turi sifatida ko‘rib chiqish tendensiyasi mavjud edi. V.A.Solovyan paradoks va alogizmlarning klassifikatsiyasini ko‘rib chiqish, leksik va leksik-sintaktik alogizmlarni o‘z ichiga olgan, frazeologik birliklardan foydalanishda alogiklik va gaplarning alogik birikmasini ko‘rib chiqishni taklif qiladi.

Ilmiy nashrlarda paradoks va oksyumoronni ajratish masalasi bo‘yicha o‘xshash qarashlar uchrab turadi. Masalan, Y.A.Atayeva shunday deb hisoblaydi: “oksyumoron – paradoksning o‘zi; gangitib, o‘ylab ko‘rishga majbur qiladi. Ta’riflanadigan hodisa mutlaqo yangi, g‘ayrioddiy tomondan taqdim etiladi”.

V.V.Ovsyannikov oksyumoronni “potensial paradoks sifatida” talqin qilishni taklif qiladi.

Bizning fikrimizcha, paradoks va oksyumoronning lingvistik tabiatidagi o‘xshashlik shundan iboratki, ularning asosida elementlarni semantik belgi bo‘yicha nomuvofiqlik ta’riflanayotgan obyektini yangicha kutilmagan tomondan

kutilmagan, oldindan aytib bo‘lmagan so‘zlar birikmasi bilan to‘qnashadi. V.L.Naer “*semantik nomuvofiqlik*” haqida fikr yuritadi, matnda aynan qaysi stilistik birlik taqdim etganligini aniqlashda qiyinchiliklar uchrashi asosiy xususiyat hisoblanadi.

Oksyumoronda bir-biri bilan mantiqiy birlasha olmaydigan hodisalar birlashadi, masalan: *o‘lik sukunat, zerikkan optimist, halol o‘g‘ri*; paradoksda esa haqiqatda tasdiqlangan qarama-qarshilik mavjud.

Semantika nuqtayi nazaridan hozirgi vaqtda til paradokslarining quyidagi guruhlari aniqlangan:

1) Fe‘l yordamida ifodalangan, ularga xos bo‘lgan umumiy xususiyat asosida sinonimga aylangan antonim so‘zlar yoki iboralar bilan tuzilgan paradokslar.

2) So‘zlarning semantik muvofiqligi asosiy qonunining buzilishidan kelib chiqadigan paradokslar.

3) Baholovchi sifat/otning va baholovchi gapning mazmuni o‘rtasidagi ziddiyat asosida paydo bo‘ladigan paradokslar.

4) Birikayotgan so‘zlarning semantik hajmi nomuvofiqligiga asoslangan paradokslar.

5) Polisemantik so‘zning ikki leksiko-semantik varianti bir-biriga qandaydir yaqinlikda bo‘lib, o‘z ma‘nosini amalga oshiradigan paradokslar.

Agar paradoks uchun biz uning barcha xususiyatlarini aniqlaydigan aniq va murakkab ta‘rifni topolmasak, oksyumoron uchun lingvistika fani ko‘plab ta‘riflarni taklif qiladi. Masalan: “*oksyumoron – bu tushunchaga mos kelmaydigan xususiyatni, ma‘no jihatidan qarama-qarshi bo‘lgan tushunchalar birikmasidan iborat bo‘lgan, bema‘ni ko‘ringan, lekin aslida qarama-qarshilik xususiyatini ochib beruvchi semantik nutq figurasidadir: tirik murda, yosh chollar, sekin shoshil*”⁴⁷

Oksyumoron (yunoncha oxymoron so‘zma-so‘z, aqlli-ahmoq) – badiiy nutqning ma‘nosini boyitib, hayot hodisalarining uzviy nomuvofiqligini ochib berishga imkon beruvchi stilistik usul. Oksyumoronning alogik (mantiqsiz) tabiati

⁴⁷ O.S. Axmanova. Tilshunoslik atamalar lug‘ati. 1966.B. - 274

uning formal mantiq qonunlari va qoidalarini qasddan buzish, voqelikning real jarayonlariga moslikdan chekinish emas – narsalar mantig‘i.

Paradoks va oksyumoron stilistik usul sifatida quyidagi tizimli xususiyatlarga ega:

- 1) alogik (mantiqsiz) tuzilma.
- 2) allegoriya (boshqacha aytish) va ikki ma’nodan foydalanish.
- 3) antinomiyaning paydo bo‘lishi: lingvistik (til) yoki kontekstual.
- 4) kontrast va ayniyatning bir vaqtning o‘zida mavjudligi.
- 5) qarama-qarshilik.

Biz paradoksni va oksyumoronni paradoksallik funksiyasini amalga oshiruvchi vositalar guruhiga kiritish mumkin deb hisoblaymiz. Ko‘rsatilgan taxminni illyustratsiyalash uchun misol keltiramiz.

The optimist is a better reformer than the pessimist; and the man who believes life to be excellent is the man who alters it most. It seems a paradox, yet the reason of it is very plain. The pessimist can be enraged at evil. But only the optimist can be surprised at it. From the reformer is required a simplicity of surprise. He must have the faculty of a violent and virgin astonishment. It is not enough that he should think injustice distressing; he must think injustice absurd, an anomaly in existence, a matter less for tears than for a shattering laughter. On the other hand, the pessimists at the end of the century could hardly see it against its black and eternal background. Nothing was bad, because everything was bad. Life in prison was infamous – like life anywhere else. The fires of persecution were vile – like the stars. We perpetually find this paradox of a contented discontent. (Optimist pessimistdan ko‘ra yaxshiroq islohotchidir; hayotning ajoyib ekanligiga ishongan odam esa uni eng ko‘p o‘zgartiradi. Buning sababi juda oddiy bo‘lishiga qaramasdan, ammo bu paradoksdan ko‘rinadi. Pessimist yovuzlikdan g‘azablanishi mumkin. Ammo bundan faqat optimist hayratga tushishi mumkin. Islohotchidan talab qilinadigan narsa hayratlanishning soddaligidir. U kuchli va sof hayratlanish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. U adolatsizlikni qayg‘uli deb bilishning o‘zi yetarli emas; u adolatsizlikni bema’nilik, mavjudlikning anomaliyasi, ko‘z yoshlari uchun

emas, balki istehzoli kulgu uchun sabab deb bilishi kerak. Boshqa tomondan, asr oxiridagi pessimistlar uni qora va abadiy fonda zo'rg'a farqlay olishdi. Hech narsa yomon emas edi, chunki hamma narsa yomon edi. Qamoqxonadagi hayot boshqa yerdagidek uyatli edi. Quvg'in olovlari yulduzlar kabi dahshatli edi. Biz doimo qoniqarli bo'lgan norozilik ma'nosini ifodalovchi paradoksga duch kelamiz. (*Chesterton.G. Charles Dickens. Chapter XI*)

Ushbu paradoksal ravishda belgilangan matn parchasida paradoksallik paradokallashtirish vositalari (paradoks va oksyumoron) hisobiga amalga oshiriladi, buning natijasida butun matn ma'nosi oxirgi jumlada **contented-discontent** (mazmum jihatdan mos kelmaydigan) qarama-qarshiligi orqali ochib beriladi. Hikoya ichidagi paradokslarning o'zaro bog'liqligi muallifning fikrini kuchaytirish istagi bilan izohlanadi, paradokslash vositalarining biroz ortiqchaligi o'quvchi e'tiborini faollashtiradi.

Bir nechta tadqiqotchilar paradoksni ham o'z ichiga olgan til rekursiyalarining sintaktik xususiyatlariga bag'ishlangan bir qator ishlarni o'rganish natijasida, paradoks faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lgan matnni tashkil etishning quyidagi darajalari qayd etiladi:

- 1) ibora
- 2) sodda gap
- 3) qo'shma gap
- 4) murakkab gap
- 5) mikromatn
- 6) matn

Paradoks tarkibida qo'llaniladigan grammatik kategoriyalar ichida infinitiv⁴⁸ konstruksiyalar alohida o'rin tutadi, bu gapning kompozitsion – sintaktik va ekspressiv baholash funksiyalari bilan bog'liqdir. Infinitiv konstruksiyalar kengaytirilgan ergash gaplarga nisbatan kamroq miqdordagi til vositalarini faollashtirishni talab qiladi. Masalan: *Nowadays to be intelligible is to be found*

⁴⁸ **Infinitiv** ([lotincha](#): modus infi nitivus — noaniq) (fe'ning noaniq shakli) — fe'ning harakat (holat, jarayon)ni anglatadigan, shaxs, son va mayl kategoriyalarini ko'rsatmaydigan shakli (mas, bormoq, o'qimoq)

out. (O.Wilde. Lady Windermere's Fan) (*Hozirgi vaqtda tushunish uchun bilish lozim*), bu yerda mavzu va olmoshning dominant komponentlari fe'ning infinitiv shaklida ifodalangan.

E'tibor beradigan bo'lsak, infinitivda paradoksni amalga oshirish va qo'llashning keng tarqalgan shakl bo'lib, ko'pincha parallel konstruksiyalar keltirib chiqaradi. Ba'zi tadqiqotchilar paradoksni o'ziga xos **antiteza** deb hisoblashadi, bu parallelizm va takrorlanishning o'ziga xos turi bo'lib, deyarli har doim parallelizm ham, takrorlanish ham, paradoksda ham hukmronlik qiladi. Bu usullar ko'pincha yaqin, o'zaro ta'sirida harakat qiladi va tizimli ravishda bir-birini to'ldiradi.

I always find out that one's most glaring fault is one's most important virtue. (O.Wilde "A Woman of No Importance") (*Men har doim insonning eng ko'zga ko'ringan xatosi uning eng muhim fazilati deb bilaman*).

Ko'pincha paradoksda **xiazm**⁴⁹ qo'llaniladi – birinchi gapning predmeti ikkinchisining to'ldiruvchisiga aylanadi va ikkinchisining predmeti birinchisining to'ldiruvchisiga aylanadi: paradoksda ifodalangan fikr yopiq doirani hosil qiladi. Bu esa paradoksal aforizmlar uchun xarakterlidir. Xiazmdan foydalanish paradoksning qisqaligi, ixchamligi, shuningdek, qarama-qarshi tushunchalarning uyg'unligi va davomiyligi yordam beradi. Paradoks strukturasi kulminatsiya (climax), o'sish (gradation) va tushurish (anticlimax) ni kuzatish mumkin.

"She is really wonderful, and full of surprises. Her capacity for family affection is extraordinary. When her third husband died, her hair turned quite grey from grief". (O.Wilde. "The Picture of Dorian Gray") (*U haqiqatan ham ajoyib va g'aroyibotlarga boy inson. Uning oilaga bo'lgan mehr-muhabbati ajoyibdir. Uchinchi eri vafot etganida, uning sochlari qayg'udan oqarib ketdi*).

⁴⁹Xiazm asosan, ikkita gapdan tashkil topgan matn ko'rinishlarida uchraydi. Xiazm «X» harfi shaklida namoyon bo'luvchi uslubiy vositadir. Ikkinchi gap birinchi gap komponentlarining teskari tarzda joylashuvidir. Bunda yozuvchining asosiy maqsadi ikkinchi gapda berilgan bo'ladi. Birinchi gap ikkinchi gapdan anglashiladigan ma'noni bo'rttirib ifodalashga xizmat qiladi. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

O'sish bilan jumladagi so'zlarning tartibi o'zgarishi buzilishi mumkin, shuningdek, bayonotning ma'nosi va hissiy tarangligi asta-sekin o'sib boradi. Bunday gaplar umumlashtirish bilan tavsiflanadi:

"The old believe everything: the middle-aged suspect everything; the young know everything". (O.Wilde. Critical Writings of Oscar Wilde) (*Keksa odamlar hamma narsaga ishonadilar: o'rta yoshlilar hamma narsadan shubhalanadilar; yoshlar hamma narsani biladi*)

Shakllanishi, masalan, maqolda antonimik almashtirish ishlatilganda hosil bo'ladi.

She was maintaining the prime truth of woman, the universal mother: that if a thing is worth doing, it is worth doing badly. (B.What is worth doing at all is worth doing well). (Biror narsaning qadrli yoki qadrli bo'lishi uchun mukammallik shart emas degan fikrni ta'kidlaydi. Ayollik va onalik nuqtayi nazaridan, agar biror narsa mukammal bajarilmagan bo'lsa ham, baribir buni qilishga arziydi. Muhimi, harakat qilingan va xolis niyat bo'lishida. Bu hayotning ko'p jabhalariga taalluqli bo'lib, mukammallikka intilish hayratlanarli ekanligini eslatib turadi, ammo nomukammallikdan tushkunlikka tushmaslik va shunchaki urinishning qadrini qadrlash ham muhimdir).

Umuman olganda, qarama-qarshiliklar barcha sintaktik tuzilmalarda kuzatiladi, ular ikki turga bo'linadi: **implitsitiv** (yashirin) va **eksplitsitiv** (aniq). Bayonotning mantiqiy me'yori so'z va so'zlar guruhi o'rtasidagi yashirin qarama-qarshilik paydo bo'ladi, ularning ishtiroki bu bayonotni paradoksga aylantiradi. Paradoks qarama-qarshi bo'lgan va paradoksal fikr bog'langan mantiqiy to'g'ri gaplarda bilvosita ifodalanadi. Aniq qarama-qarshilik bir gapning ikki qismi yoki bir nechta jumlar orasidagi eng paradoksal bayonotda kuzatiladi.

I bob bo'yicha xulosalar

Paradoksning lingvistik tabiatini hijjalab va batafsil o'rganishda bir til paradoksini o'rganishga yondashuvning xilma-xilligi ushbu hodisani filologik germenevtika doirasida bu fenomenni o'rganishning dolzarbligini tasdiqladik.

1. Quyidagi ta'riflarga aniqlik kiritilgan.

Paradoks – bu kutilmagan, noodatiy (hech bo'lmaganda, shaklda) ushbu masala bo'yicha umum qabul qilingan, an'anaviy fikrdan keskin farq qiladigan hukm (bayonot, gap). Paradoks badiiy nutqning semantik makonini o'zgartiradi, uning tarkibiga kiruvchi til birliklarining ma'nosini o'zgartiradi, oldindan aytib berishning quyi darajasidagi nostandart semantik konstruksiyani yaratadi, uni amalga oshirish natijasida yangi ma'no hosil bo'lishi ma'lum bo'ldi.

Paradoksal matn – bu ma'no darajasida paradoksallik bilan tavsiflanadigan va paradoksal bayonot, ibora va matn birligining tuzulmaviy sxemasi bilan aniqlanadigan formal ifodadagi til paradoksi mavjud bo'ladigan polisemantik badiiy matn shuni ta'kidlash kerakki, paradoksal badiiy matnning polisemantikligi diametrial qarama-qarshi talqinni hosil qilmasligi aniqlandi.

2. Paradoks matn hosil qilish funksiyasiga ega va matnning yaxlitligini yaratadi. Paradoks semantikasi uni umumiy tushunish doirasidan chiqadigan harakatlar, hodisalar, jarayonlarni belgilash uchun qo'llanilishini nazarda tutadi va quyidagi qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oladi: fikrning dastlabki harakatidan og'ishi va hodisalarni rivojlanishi, harakatlarni nostandart bajarilishi, insonning ichki holatini ikkilanganligi, shuningdek, qandaydir harakatni adekvatligi darajasi.

3. Matn darajasi nuqtayi nazaridan paradoks so'z birikmasi, sodda gap, qo'shma gap, murakkab gap, mikromatn, matn darajasida xizmat qilishi mumkin.

4. Paradoksni psixologik idroki asosida paradoksal belgilangan matnni ma'lum elementini oldindan aytib bera olmaslik hisobiga yaratadigan aldangan kutish effekti yotadi. Paradoksning kognitiv tabiati nuqtayi nazaridan paradoksallikning effekti asosida kognitiv dissonans tamoyili yotadi.

5. **Prezumpsiya (eksplikatsiya)** va **implikatsiya** badiiy matnlarda paradoksni amalga oshirish sxemalarni shakllantirish uchun tayanch elementlari

hisoblanadi. Barcha sintaktik strukturalarda ikki turga: **implitsitiv** va **eksplitsitiv** ajratish mumkin bo'lgan oppozitsiyalar kuzatiladi. Implitsitiv oppozitsiya bayonotlarning mantiqiy me'yorlari, so'z va so'z guruhlarida hosil bo'ladi, uning mavjudligi bu bayonotni paradoksga aylantiradi. Paradoks qarshi qo'yilgan mantiqiy to'g'ri bayonotlar va ularga paradoksal tasdiqlar implitsitiv ifodalanadi. Implitsitiv oppozitsiya paradoksal bayonotning o'zida bir gap yoki bir nechta gaplarning ikki qismi orasida kuzatiladi.

6. Paradoks metafora singari ijtimoiy guruhning qadriyatlarini aks ettirishi mumkin, olamni idrok etishni shakllantiradi va atrofdagi olam haqida yangi bilimlarni olish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bunday yo'l qo'yishlar asosida so'zlar orasida yangi, notipik bog'lanishlarni ochadigan metaforik va metanomik aloqalar yotadi.

7. Voqelikni paradoksal idrok etish badiiy matndagi ma'nolarni ifodalashning maxsus qobilyatini va matnni yaratish/idrok etishda turli universal mexanizmlardan foydalanishni belgilaydi.

8. Paradoksni qurish uchun **til mexanizmlarining** ikki guruhi aniqlanadi:

1) qarama-qarshiliklar texnikasini amalga oshiradigan qurish mexanizmlari guruhi.

2) komponentli tahlil guruhi.

9. Paradoks yaratishning lingvistik vositalari matn darajasiga qarab beshta guruhga bo'linadi: *grafik, fonologik, morfologik, leksik va sintaksis* darajalarda bo'ladi.

II BOB. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA PARADOKSNING MA’NO HOSIL QILISH POTENSIALI

2.1.8. Paradoks uslub kategoriyasi va allegorik –aforistik tabiati

Ayrim tadqiqotlarda paradoksning mohiyati va xususiyatlari talqinida, jumladan, mantiqiy sxemasi va uning lingvistik amalga oshirilishi o‘rtasidagi munosabatlar masalasida turli fikrlar bildiriladi.

Xususan, paradoks va aforizmni qiyoslashga aforistika bo‘yicha bir qator asarlar bag‘ishlangan, ularda paradoks va aforizm ayniyatlashtiriladi. Shu bilan birga, paradoks bu “komik, ya’ni hajviy adabiyotning yakunlangan mustaqil bir namunasi va asari va hajmi jihatdan katta komik (hajviy) asarlarning ifodali vositasi degan qarash ilgari surildi.

Darhaqiqat, mustaqil faoliyat ko‘rsatish qobilyati paradoks va aforizmni ayniyatlashtirish uchun yetarli asosdir. Ayni vaqtda aforizm va paradoksal aforizm farqlanadi ham antiteza parallelizmdan foydalanadigan paradoksal aforizimda ikki qarama-qarshi g‘oya grammatik ifodaga ega tavsifiy adabiyotlarda aforizimdagi paradoks yoki aforistik paradoks sifatida qaradi. Boshqacha qilib aytganda, bu ikki til hodisasi birlashib, emerjentlik tamoyili bo‘yicha yangi funksional birliklar hosil qiladi: aforistik paradoks va paradoksal aforizm.

Badiiy matn turlicha talqin qilinishi va tushunilishi mumkin, bu individning otnologik tajribasining subyektiv xususiyati va badiiy matnning obyektiv parametrlari bilan bog‘liq. Badiiy matn parametrlariga refleksiyaning uyg‘otishi o‘lchovi sifatida badiiylik va murakkablik darajasi kiradi. Hozirgi vaqtda lingvistikada matnlarni murakkablik darajasiga ko‘ra ikkita tizimga ko‘ra guruhlash odatiy holdir: “kuchli va kuchli bo‘lmagan matnlar” va “yig‘ilgan, yoyilgan va ortiqcha matnlar” guruhlari matnini uni lug‘at tarkibini tahlil qilish natijasini ham o‘z ichiga oladi.

Yoyilgan matn aniq semantikaga ega so‘zlarda ifodalangan badiiy detallar bilan to‘yintirilgan bo‘ladi. Bunday matn axborotga boy, biroq tushunish jarayonini zaif tarzda faollashtiradi. Bu turdagi matnlarni matnning ma’no sohasi

bilan bog‘liq bo‘lgan semantik tushunchaga muvofiq ko‘rib chiqish taklif etiladi. Ortiqcha tipdagi matnlarda leksik birliklar soni talab darajasidan oshib ketadi. Ular ma‘lumotlar bilan boyitilgan va matnning ma‘no sohasi bilan bog‘liq bo‘lgan obyektiv tushunchani talab qiladi.

Tadqiqot uchun material tanlashda faqat bitta o‘quvchining proyeksiyasiga imkon beradigan, tashqi strukturani tavsiflovchi bayonotlarga keltiriladigan, ko‘plab o‘quvchilar talqiniga yo‘l ochib beradigan matnlar tanlanadi.

“Dorian Grey portreti” romani – paradoksal badiiy matn bo‘lib, ma‘noga boy va muallif tomonidan shunday tashkil etilganki, o‘quvchiga asarning chuqur mazmundor tuzilishini ma‘lum bir darajada talqin qilishni talab qiladi. Shu maqsadda matnning muhim jihatlariga e‘tibor qarataylik.

Ma‘noli matnlar, “Dorian Grey portreti” romani, “Jiddiy bo‘lish qanchalik muhim”, “Ideal turmush o‘rtoq” va “E‘tiborga noloyiq ayol” pyesalari predmetlashtiruvchi tipdagi tushunishning barcha tiplarini faollashtirishning ustun kelishiga yordam beradi. Ushbu asarlarning matnlilik parametrlari aniqlikdan tashqariga chiqish va “matnning olingan mazmunli tasvirini boshqa aniqliklar bilan bog‘lashni taqozo etadi.

Tanlangan badiiy materialni tushunishning ko‘p ma‘noli ekanligi matnga kiritilgan, o‘qish va tushunish jarayonida o‘quvchi tomonidan qurilgan tushunish usullarini tez-tez o‘zgarishini anglatadi. Oskar Uayldning badiiy asarlari kontekstida ma‘lum davrlar belgilari va ma‘lum axloqiy-estetik kategoriyalar timsoli sifatida kiritilgan boshqa san‘at asarlarining mavjudligi tushunishning ko‘p ma‘noliligiga ta‘sir qiladi. Buyuk shoir va mutaffakkir A.Navoiy: “So‘zdan murod ma‘no” deganlar. (“Muhokamat-ul- lug‘atayin”)

O.Uayld matnlarida ham badiiy matnning vazifalaridan biri –inson ongining asosiy o‘lchovi bo‘lgan ma‘no translyatsiyasi yaqqol namoyon bo‘ladi. Biroq ma‘noni tushunish, agar matn qabul qiluvchi tomonidan o‘z tajribasi prizmasi orqali qabul qilinsa va yangi narsalarni olish bilan birga sodir bo‘ladi.

O.Uayld asarlarini tushunish o‘quvchidan ma‘lum bilimga ega bo‘lishni, shuningdek, asarning leksik - frazeologik tarkibi va sintaktik jihatdan tashkil etish

usullarini tahlil qilishni talab qiladi. O'quvchi muallifning ma'lum bir til usullaridan foydalanishning individual maqsad va vazifalarini tushunish zaruratiga duch keladi. Har bir asar ortida o'quvchi uning madaniy – tarixiy muhitni va muallif mansub bo'gan millatni bilishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O.Uayldning “estetik individualizm” davridagi matnlari talqiniy murakkabligi bilan ajralib turadi va tadqiqotchilar tomonidan “kechki” F.Nitsshe bilan taqqoslanadi. Darhaqiqat, O.Uayld asarlaridagi paradokslar F.Nitsshe falsafiy aforizmlarini takrorlaydi.

“We regard Nature as the collection of phenomena external to man, people only discover in her what they bring to her.” (O.Wilde “The Decay of Lying”) (Biz tabiatni insonyatning tashqi olamida sodir bo'ladigan hodisalar yig'indisi sifatida ko'ramiz, insonyat unda faqatgina o'zlari tufayli vujudga kelgan narsani ko'rishlari mumkin).

“Faqat bo'sh odamlar tashqi ko'rinishga qarab hukm qilmaydi. Ko'rinmas narsa emas, balki ko'rinadigan narsa – bu dunyoning haqiqiy siri”. Taqqoslang: “Sizning tanangizda oliy ongingiz (donoligingiz) tanangizga nima uchun kerakligini kim biladi?”

Bunday matnlarni talqin qilish o'quvchidan predaktsiyalarni tushunish harakatlari sifatida ma'nolarini qurishga tayyor bo'lishni talab qiladi; vaziyatlarning ma'nosi; vaziyatlarning ma'nosini shaxs ma'nolari bilan o'zaro bog'langanligi; individ olamini tashkil etuvchi ma'nolar; meta-metama'nolar nazarda tutiladi.

Badiiy matnda paradoksning ma'no hosil qilish imkoniyatini o'rganish va uning tabiatini ma'no yasash vositalari sifatida aniqlash badiiy matnni tushunish jarayonini o'rganish bilan uzviy bog'liq.

“Tushunish” va “ma'no” tushunchalari paradoksal belgilangan badiiy matnda ma'no hosil qilish mexanizmini o'ziga xosligini aniqlash uchun asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Tilshunoslik tafakkur rivojlanishining turli bosqichlarida tushunish muallifning individual tafakkurini aniqlash sifatida, borliq imkoniyatlarini idrok

qilish qobiliyati, o‘z-o‘zini anglash vositasi sifatida va badiiy matn ma’nosini aniqlashga yo‘naltirilgan anglangan harakat sifatida ko‘rib chiqiladi.

Ma’lumki, filologik germenevtika faoliyatining sohasi – matnni ma’no darajasida va mazmun talqini darajasida o‘rganishdan iborat.

Ayni vaqtda, filologik germenevtika nuqtayi nazaridan tushunishni boshqacha aks ettirish sifatida ham o‘rganadi – gnoseologik obraz va mavjud tajriba orasidagi bog‘lanish sifatida ko‘rib chiqadi, bu bog‘lanish shunday ishlaydi: obraz mavjud tajribaga asoslanadi, tajriba esa o‘zgargan munosabat predmetiga aylanadi.

G.I.Bogin qarashlariga muvofiq Filologik germenevtikaning predmeti tushunish hisoblanadi – matn shaklida taqdim etilgan idealni idrok etish va o‘zlashtirishdir. Faol tushunishni egallash “odam o‘zini dunyoga qarayotganini ko‘radi” jarayonini nazarda tutadi. Bunday vaziyatda o‘z harakatlarini anglash zaruriyati paydo bo‘ladi. Shunday qilib, tushunish nafaqat badiiy matn mazmunini anglash, balki ana shu samarali tushunishga erishishga yo‘naltirilgan o‘z harakatlarini anglash ham tushuniladi. Shunga muvofiq tushunish – bu bir vaqtda ham holat, ham ongli jarayondir.

Zamonaviy germenevtika (tushunish) bo‘yicha yaratilgan tadqiqotlarda matnning uchta yo‘nalishini ajratib ko‘rsatish mumkin. O‘quvchi badiiy matnni tushunish va talqin qilish jarayonida foydalanadigan kognitiv birliklar va kognitiv tuzilmalarni ochib beruvchi ishlar. O‘quvchi tushunish jarayonida quradigan badiiy matn ma’nolari tipologiyasining parametrlarini o‘rganish. Badiiy matnni talqin qilishning ko‘pligini tushuntiradigan, ma’nolarni tushunish jarayonida va talqin qilishning individuallik mezonlari bo‘yicha ma’nolarni tarkibiy tashkil etish bo‘yicha ishlanmalar. Paradoksal belgilangan matnda paradoksning ma’no hosil qiluvchi imkoniyatlarini o‘rganish so‘nggi guruhga kiradi.

Ilmiy adabiyotlarda “tushunish” istilohining ma’no tushunchasi turli nuqtayi nazarlardan ko‘rib chiqiladi. Badiiy matnni tushunish – fikrlash faoliyat qabul qiluvchi ma’lum ma’nolarni quradi. Fikrlash faoliyati qabul qiluvchi tomonidan o‘z fikrlash harakatlarini anglash sifatida ko‘rib chiqiladi, fikrlash harakati ostida

qabul qiluvchi harakatlarini faollashtirilgan tasavvurlar sifatida tushuniladi va ilmiy-falsafiy talqin etiladi.

Psixologik intellektual faoliyatning nazariyasida tushunish jarayoni va shu jarayon natijasi sifatida ko'rib chiqiladi. Agar tushunish ostida jarayonning kechishi va natijasi ko'rib chiqilsa, unday holatda individ har qanday obyekt yoki hodisani idrok qiladi va ular signal yoki belgi sifatida qayta ishlanadi. Qayta ishlangan material turi va tuzilishi, shuningdek, olingan natijalarni qayta ishlash uslubi o'z tabiatiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Tushunish, bilish ishlaydigan sohalarida amalga oshiriladigan bo'lsa torroq doirada bo'ladi, potensial tushuniladigan obyektlar sinfi amalda potensial bilish mumkin sinfga to'g'ri keladi.

Tilshunos K.Meng tushunishning ana'naviy-germenevtik konsepsiyasini, tushunish subyekti faqat inson, tushunish obyektlari – ijtimoiy dunyo elementlari va hodisalari, masalan, matnlar, insonning harakatlari va xatti-harakatlari, tarixiy hodisalar va boshqalar. Ijtimoiy dunyo unda yashovchi individlar o'zlarini va o'z ijtimoiy voqeligini talqin qilish bilan tavsiflanadi. Noijtimoiy voqelikda bunday jarayon yo'q. Ushbu konsepsiya doirasida tushunish ijtimoiy ma'nolar tizimini qayta qurish nazarda tutiladi. Bunda K.Meng tushunishni bilish yoki tushuntirish jarayonlari bilan aynan bir xil deb qaramaslik kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tushunish – harakatlari tushunishning obyekti hisoblangan subyektlarning ma'no tuzilmalarini qayta qurishni anglatishi mumkin⁵⁰.

Bilish va tushunish tafakkur funksiyalaridir. Professor G.P.Shedroviskiyning dastlabki asarlarida tafakkur, bir tomondan, bola rivojlanishining eng dastlabki bosqichida sodir bo'ladigan ramziy ko'p tekislikni almashtirish sifatida, ikkinchi tomondan, masalalar va muammolarni hal qilishning mohiyati sifatida talqin qilingan. Tilshunos G.I.Bogin "Matnni tushunish ontologiyasiga" maqolasida, tushunishni faol fikrlash jarayoni sifatida tahlil qilib tushunishni turli usul va turlari o'zaro bog'liqligi fenomeni mavjudligi bilan tavsiflanadi, matnlar tushunishning turli tiplariga yo'naltirilgan holda yaratilgan deb hisoblaydi:

⁵⁰ Менг К. Речевое общение, коммуникативная компетенция и понимание. -2000.С 55

semantik, kognitiv va obyektiv. Bundan tashqari badiiy matnlar tushunish turlari orasidagi obyektiv farqlari, matnlarda aks etgan voqelikning o'zlashtirilayotgan va refleksiv ishlab chiqiladigan vaziyatlardagi obyektiv farqlarga bog'liq, tushunish turlari o'rtasidagi farq ularning o'zaro o'tkazmasligi yoki ularning mutlaq mustaqilligini anglatmaydi.

Faol tushunish jarayonida aqliy harakatlar qilish, o'z harakatlarini anglash zarurati tug'iladi. Shuning uchun tushunish shaxsning – o'z harakatlaridir. Badiiy matnlar mazmunini anglash, shuningdek, nimanidir tushunish, uni o'z fikrining predmetiga aylantirish demakdir.

Germenevtik yondashuv doirasida maqsad paradoksal badiiy matn mazmunini o'zlashtirish, ya'ni tushunish adekvat talqin qilish va matn ma'nolarini tushunishdan iborat. Tushunish paradoksi muammosini tadqiq qilish doirasida ma'no tushunchasi muhim, chunki ma'noni tushunish talqinida bo'g'inlab ifodalanganga tegishli. Inson ijtimoiy va madaniy-tarixiy muhitda taqdim etilgan matnlar haqida fikr yuritar ekan, o'z borlig'ini, haqiqiylikni saqlash yoki yo'qotish imkoniyati xavotiri oldida turgan insonga ta'rif berishini ta'kidlab o'tadi.

Faylasuf Xaydegger qarashlarida insonning asosiy "kundalik tajribasi" yuqori darajadagi qadriyatlarni anglashdan uzilgan holda o'z kelajagi uchun qayg'urish hissidan iborat, biroq Xaydegger ma'no tushunchasini hozirgi paytda bo'lish doirasi bilan cheklab qo'yadi, bu esa bizningcha, anglangan bo'lish imkoniyatini cheklaydi. Shu boisdan Marten Xaydegger fikriga qo'shilish qiyin.

Ma'no mazmun va ahamiyat bilan birga matnni ideal voqeligi bilan bir qatorda asoiy matnni tushunish bo'yicha faoliyatni rivojlantirish mumkin bo'lgan matnli mazmundorlik konstruksiyasi hisoblanadi. Bu tarkibning bir qismi bo'lib, uni o'zlashtirish matnni adekvat o'zlashtirishning asosiy maqsadi va sharti hisoblanadi. Matnning o'zi eng umumiy ma'nodan tashqari, paydo bo'ladigan refleksning o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladigan va to'g'ri nominatsiya vositasida uzatilmaydigan ma'nolarning turli tiplarini o'z ichiga olishi mumkin. Til paradoksi orqali ifodalangan ma'nolarni ko'zda tutish tashkiliy refleksiyani talab qiladi. Ushbu qoida G.I.Boginning fikri bilan tasdiqlanadi, unga muvofiq, ma'nolar

“tushunish singari tuzilmalar, boshqa tabiati refleksiya sifatida chiqadi va agar ular matnda to‘g‘ri nominatsiya vositasida belgilanmagan bo‘lsa, ularni ko‘zda tutib bo‘lmaydi, faqat refleksiv akt orqaligina”. Shuning uchun PM-matni o‘zlashtirishda konstruksiyalangan ma‘no, matnda o‘zlashtirish kerak bo‘lgan ideal realliklar va ushbu ideal realliklarni, ya‘ni tushunish uslublari, o‘zlashtirish mexanizmlari – ma‘nolardan tashkil topgan murakkab konstruktlarda ko‘rinadi.

Ma‘no tushunish jarayonini ta‘minlaydi, biroq tushunish bilish bilan bir xil narsa emas. P.Shedroviskiyning “Ahamiyat va ma‘no” asarida ma‘no “tushunish jarayonini tashkil etuvchi vosita sifatida chiqadigan ma‘no haqidagi bilim shakli”, butun matnning ma‘nosi esa, faoliyat va kommunikatsiya vaziyatlari elementlari orasidagi barcha bog‘lanishlar va munosabatlar, inson tomonidan xabar matnini tushunishda yaratiladigan yoki tiklanadigan konfiguratsiya”.

Shedroviskiyning keyingi ta‘rifiga ko‘ra, ma‘no “tadqiqotchi tomonidan tushunish jarayonlarini statistik qayd etishda yaratiladigan” alohida voqelik sifatida tushuniladi. Ma‘no tushunish harakatlari bilan bog‘liq bo‘lib, tadqiqotchi tomonidan tushunish jarayonlarini statistik qayd etishda yaratiladigan muhim voqelik sifatida belgilanadi.

G‘arb tilshunosligida ma‘no tushunchasi ahamiyat yoki noema⁵¹ tushunchalari bilan bog‘liq. J.Layonz ma‘no oson farqlanadigan semantik yetarli tashkillashtirilganlik va hech qanday ma‘no tashkil etmaydigan semantik yetarlicha tashkillashtirilmagan” sifatida qabul qilinishi mumkinligini ta‘kidlaydi.

M.Forester ma‘noning beshta uchrashi mumkin bo‘lgan turlarini belgilaydi: *havola, mantiqiy shakl, kontekst, konseptual tuzilma, madaniyat sifatidagi ma‘nolar*.

J.Dilyoz ma‘no muammosi tadqiqotida, mental qurilma sifatida ma‘no qabul qilinsa, badiiy matni idrok etishda aniqlash mumkin bo‘lgan tasavvurlarni qabul qiladi. “Ma‘no – mumkin bo‘lgan belgilashlarni amalga oshirish va hatto ularni

⁵¹ Noema (ko‘plik: noemata) so‘zi yunoncha nōēma so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “aqliy ob‘yekt” degan ma‘noni bildiradi. Faylasuf Edmund Gusserl noemani fenomenologiyada fikr, hukm yoki idrokning ob‘ekti yoki mazmunini belgilash uchun texnik atama sifatida ishlatgan, ammo uning asarida uning aniq ma‘nosi bahs mavzusi bo‘lib qolmoqda. <https://en.wikipedia.org/wiki/Noema>

shart-sharoitlarini o‘ylab ko‘rish uchun, men allaqachon joylashgan sohaga o‘xshash”.

Ma’no tushunchasining noema tushunchasi bilan almashtirish aks ettirishni o‘rganish masalasida kuzatiladi va uni “inson faoliyatining u yoki bu aks ettiriladigan makonda aks ettirishni qayd etishning dastlab ma’no hodisasi tushuniladi”.

PM matni o‘zlashtirishda konstruksiyalanadigan ma’no murakkab konstruksiya bo‘lib, tushunishning yuqori darajasida bo‘ladi. A.A.Bogatrevning ma’no tushunchasiga nisbatan quyidan oliyga chiqish imkoniyati holatidan ko‘rib chiqib, ma’no – qadriyatlarining oliy darajasidagi PM –matnlarni o‘zlashtirishda konstruksiyalanadigan ma’nolarning mantiqiy o‘zaro bog‘liqligi kuzatiladi.

A.A.Bogatrevning fikriga ko‘ra ma’no uch qatlamli darajaga ega:

ma’no – idrok (kategoriyalangan sezgilar yoki ular haqidagi tasavvurlar).

ma’no – harakatlar va *ma’no*- operatsiyalar maqsadga muvofiq harakat qiluvchi kuchlarni aniqlashni nazarda tutuvchi.

ma’no – qadriyatlar (g‘oyalar olami bilan bog‘liqlik, inson mavjudligining bitmas-tugunmas oliy predmetlari va yakuniy maqsadlari).

Bunday tizim doirasida avvalo ma’no-idrok, keyin ma’no-operatsiyalar, so‘ngra ma’no qadriyatlar paydo bo‘lishi yoki hosil bo‘lishi kerak. Ya’ni paradoks, subyektivlik parametrini inkor etmaydigan ham muallif, ham o‘quvchi uchun ahamiyat kasb etgan yuqori darajadagi umuminsoniy qadriyatlarni taqdim etish va idrok etishning shakli hisoblanadi. Shuning uchun PM-matnlari o‘zlashtirishda, “o‘zida bilimlarni yig‘uvchi va kommunikatsiya bo‘yicha hamkorni istalgan faktlarini hisobga olish”, bu holatda paradoksal belgilangan badiiy matn muallifi, o‘z ichiga presuppozitsiyalarni olgan ekstra lingvistik bilimlar muhimligini belgilash zarur. Paradoksal badiiy matn tushunishda “asar muallifini ko‘rish va tushunish ” muhim, bu boshqa subyektini ko‘rish va tushunishni anglatadi. Mos

ravishda badiiy matnni tushunish doimo o'quvchini matn bilan, muallif bilan dialog jarayon⁵².

Ma'no – qadryatlar tomonidan hosil qilingan yangi badiiy g'oyalar PM- matn ichida yo'q va o'quvchi ularga egalik qilmaydi. Ular ma'lum mazmundagi va maxsus mazmundagi matnni o'zlashtirishda hosil bo'ladi. PM–matnlar mazmundorligini o'zlashtirish jarayoni o'quvchidan fikrlash faoliyatini, uni refleksiya jarayoniga murojaatini talab qiladi. Tushunishga refleksiya yordamida erishiladi. PM – matnlarni o'zlashtirish uchun idrok qilish, tushunish, ma'no hosil qilish, ma'nolarni ko'paytirish jarayonida hosil bo'lgan juda katta tajriba refleksiyasi, ushbu tajriba aynan ko'plab izchil va mantiqan bir-biriga bog'liq mikrokontentlar bilan harakatlar jarayonida hosil bo'ladi. Matnni tushunish o'quvchi shaxsining rivojlanish darajasi, uning refleksiya qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Refleksiyani qayd etish ma'no hodisasini amalga oshiradi. Bu refleksiya haqidagi nizomda o'z tasdig'ini topadi, “o'zlashtirilayotgan vaziyat va individning mavjud tajribasi orasidagi” bog'liqlikni ko'rsatadi. Refleksiya-sezgirlikdan keyingi ikkinchi tajriba manbayi, insonni aqlliroq va insonparvar qiladigan, shaxs va hamjamiyatlar (ularning oknologik konstruksiyasi) aqliy va ruhiy tuzilmasini takomillashtirish imkonini beradigan muhim insoniy konstruksiya hisoblanadi.

Lingvogermevtika doirasida tushunish natijasi sifatida ma'no, mavjud bilimlar tizimi yoki u bilan, matnni tushunish jarayonida subyekt tomonidan yaratiladigan ideal fikrlash modeli sifatida ma'no munosabatga kirishadigan bilim sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy matnda ma'no shunday tarzda tashkil etilganki, qabul qiluvchining xotirasida saqlanib qolib, matnni yagona tuzilma sifatida tushunishga imkon beradi va “badiiy asarning umumiy konstruksiyasini yoki karpasini tashkil etadi”.

Filologik germenevtika atamalarida ma'no ishlab chiquvchi tomonidan, shakl predmetlanishi mumkin, ma'no esa – berilishi, qabul qiluvchi matn shaklidan chiqarib olinishi mumkin. Predmetlashtirish va predmetlashtirishdan chiqarishni

⁵² O 'sha manba 7-bet

mos ravishda matn shaklida taqdim etilgan ishlab chiquvchining fikrlash faoliyati vaziyatining “qotishi” va “tiklanishi” sifatida aniqlanishi mumkin.

2.2-§.Badiiy matnda paradoks va uning sintaktik xususiyatlari

Filologik germenevtikaga muvofiq, o‘quvchining badiiy matn mazmunini o‘zlashtirish jarayonida paradoksga duch kelishi mantiqiy jihatdan “germenevtik vaziyat” tushunchasi bilan I.V.Soloveva bog‘liq bo‘lib, tushunish jarayonida to‘xtalish sifatida, subyektiv rasmiylashtirilgan yuz bergan tushunmaganlikni his qilish sifatida, yoki tushunmaslikni hisobga olish. I.V.Soloveva “Matnni qabul qiluvchi harakatlarida germenevtik vaziyatlar tipologiyasi” nomli ishida, yuz beradigan tushunmaslikni anglaganlik faktori qo‘shimcha ravishda germenevtik vaziyatni mahsuldor tushunmaslik sifatida tavsiflaydi, chunki tushunmaslikni ko‘zda tutish davri qabul qiluvchi tomonidan ma’noga chiqish yo‘lini izlashning keyingi jarayonini belgilaydi.

Germenevtik vaziyatlarni paydo bo‘lishi teng darajada refleksiyaning matnga yo‘nalganligining o‘ziga xosligi bo‘lgan tushunish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari bilan ham, matn tuzilishi bilan ham shartlanadi. Matnning tarkibiy tashkil etilishi va uni tushunish uslubi orasidagi o‘zaro aloqa, paradoksnii badiiy matnda ma’nolarni konstruksiyalash vositasi sifatida o‘rganishning asosi hisoblanadi.

Ushbu ishda I.V.Soloveva tomonidan matnli mazmundorlikni o‘zlashtirish bo‘yicha makon konstruksiyalarini izohlash uchun kiritilgan “germenevtik dominantlar (ustunliklar)” tushunchasi qo‘llaniladi. Germenevtik dominanta (ustunlik) matnni tushunish bo‘yicha faoliyatning asosi sifatida ko‘rib chiqiladi. Muallif germenevtik dominanta tushunchasini shakllantirishda, tadqiqotni psixofiziologiya sohasiga o‘tkazishga intilish yo‘qligini aytib o‘tgan holda, A.A.Uxtamskiyning dominanta tushunchasi bilan o‘xshashligini ataylab keltirib o‘tadi.

Germenevtik dominanta refleksiv harakatning undan o‘quvchi tajriba tushunish, matnni birlashtirishdan ish boshlaydigan va germenevtik doiraning

shakllanish chegarasini belgilab beradigan o‘ziga xos boshlang‘ich nuqtasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Paradoksal belgilangan badiiy matn uchun paradoks shunday dominanta hisoblanadi.

Germenevtik vaziyat doirasida I.V.Soloveva ideal voqelik sohasi formatlari sifatida quyidagi ma’no turlarini belgilaydi.

- 1) Prediksiyalarni tushunish aktlari sifatidagi ma’nolar
- 2) Shaxs ma’nolari bilan o‘zaro bog‘langan faoliyat va kommunikatsiya vaziyatlari ma’nolari
- 3) Individ dunyosini yuklantiruvchi ma’nolar, shu jumladan, ekzistensial
- 4) Meta-meta ma’nolar
- 5) G‘oyalar yoki badiiy g‘oyalar

Tushunish va talqin qilish ikki jarayon bo‘lib, ularning kechishi alohida-alohida bo‘lishi mumkin: tushunish talqin qilishsiz ham mumkin (tushunganlik ifodalanmaganda); talqin qilish tushunishsiz bo‘lishi mumkin, agar u ma’nolarni qurish bilan yakunlanadigan tushunishning anglangan jarayonini ifodalamas.

Umuman olganda, filologik germenevtikada talqin qilish deganda tushunishning shunday so‘zli qayd etilishi anglashiladiki, uning natijasida qabul qiluvchi tomonidan ma’nolarni qurish amalga oshiriladi. Biroq talqin qilish tushunchasining bir ma’noli izohi yo‘q.

Talqin qilish tushunchasining ta’rifini Arnold, Bogina, Vasileva, Galperina, Zadornovoy, Kubryakovoy, Murzina, Oborinalar asarlarida uchratishimiz mumkin.

Interpretatsiya (talqin qilish) – real narsalar va hayot faoliyati dunyosi, madaniyat dunyosi va madaniy qurilmalar bilan ma’lum munosabatlarga kirishish mexanizmi.

Tilshunos G.I.Boginning fikriga ko‘ra “*interpretatsiya*” – bu aytilgan refleksiya demakdir. Interpretatsiya cheksiz bo‘lishi mumkin emas, lekin ko‘pincha interpretatorning maqsad va vazifalariga bog‘liq. Interpretatorning maqsad va vazifalaridan qat’i nazar “o‘z tezaurus doirasidagi qabul qiluvchining maqsadli funksiyasi” interpretatsiyalash jarayonida badiiy matn ma’nolarini qurishni o‘z ichiga oladi.

Интерпретация (*interpretation*) – bu nutqli va nutqsiz harakatlarning ma'nosini aniqlashdagi jarayon, natija va bir munosabat bo'lib, biroq uni amalga oshirish uchun taxminiy obyektни interpretatsiyalash kerak bo'ladi.

Интерпретация maqsadga qaratilgan faoliyat bo'lib, muallifda harakatlarning maqsadga muvofiqligiga doim ham aniq ishonmay, talqin qiluvchining mahalliy (oralik) va global maqsadlari bilan qaytar aloqaga ega.

Matnning interpretatsiyasi asosida ikkita asosiy tamoyillari yotadi –“bevosita lingvistik muhitni hisobga olishni nazarda tutuvchi mahalliy talqin etish tamoyili va olingan axborotni ma'lum bilimlar, o'tmish tajriba bilan bog'lash imkonini beradigan analogiya tamoyili”⁵³.

Badiiy matn talqinlarining ko'pligi badiiy matn parametrlariga bog'liq, tushunish jarayonlarining o'ziga xosligi esa, o'quvchining bilimlari, ko'zda tutiladigan tasavvurlarning umumlashtirishning individual uslublariga bog'liq. Interpretatsiyaning ikkita turini ajratishadi: izohlovchi va predmetlaydigan.

Agar interpretatsiyalanayotgan matn ortiqcha, mazmunni keraksiz qayta aytib berish va shaxsning vaziyatga o'z munosabatini tavsiflash bo'lsa, unda interpretatsiya faqat “o'qishning davom ettirilgan akti”ga aylanadi va o'quvchining uni matn bilan o'zaro ta'sirda emotsional va psixologik kechinmalarning mezonlariga aylanadi, bunda ma'nolar tushunish chegaralaridan qoladi.

Интерпретatsiyani predmetlashtirish interpretatsiyalanayotganning o'rnini egallamaydi, ularni bekor qilmaydi. Ushbu turdagi interpretatsiya muallifning fikrlash jarayoni tiklanishini nazarda tutadi.

Predmetlashtirilmagan interpretatsiya ma'nolarni qurishni talab qiladi. Bu turdagi interpretatsiya tushunishning predmetlashtirilgan turi tufayli rivojlanadi. Predmetlashtirilmagan interpretatsiya dastlabki matn o'rnini olmaydi, uning o'rniga turmaydi, “uning oldida” turishga harakat qilmaydi, faqat unga yo'l ko'rsatuvchi sifatida vazifani bajaradi, yoki bu shuni: tushuniladiganga yo'l

⁵³ Жалагина Т.А. Контекстуальная вариативность: значение и функции // Подвижность языковых подсистем. –Тверь.: ТГУ, 1994. – С. 53 -60.

ochadigan sifatida chiqadigan, biz bilan uchrashish “tashqariga chiqish” imkoniyatini beradi.

Til paradokslarini tahlil qilishda interpretatsiyaning predmetlashtirilmagan turi ustunlik qiladi deb tahlil qilamiz. U yoki bu tasavvurni ko‘rib chiqish yoki boshqa tasavvur va ma‘nolarni qurishga olib keladigan maqsadga yo‘naltirilgan o‘quvchilarning fikrlash harakatlari tizimi faollashtiriladi. Ushbu jarayonga nisbatan kontekstual taxmini belgilash mumkin. Bir badiiy matnni ko‘p martalab interpretatsiyalash mumkin, bunda “interpretator xotiraga suyanib tahlil qiladi”. Faqat matn va kontekstning keyingi tahlili interpretatsiyaning birinchi varianti qanchalik to‘g‘ri bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Interpretatsiyaning lingvistik tabiatini tavsiflashda biz “falsafiy hermenevtika”ning asochisi faylasuf Xans Georg Gadamer tomonidan taklif qilingan hermenevtik interpretatsiyani amalga oshirishning bosqichlarini tavsiflash maqsadga muvofiq deb tahlil qilamiz:

1.Tushunmovchilik. Tushunishdan oldin har doim qiyinchiliklar, kelishuv o‘rnatishdagi to‘siqlar, chalkashliklar mavjud. “Tushunish” yo‘lida qayerda to‘siqlar bo‘lsa, u allaqachon zaruriy shart sifatida berilgan... Tushunishga qizg‘in irodaviy harakat, begona, provakatsion, chalg‘ituvchi bilan to‘qnashuvini sezishdan boshlanadi.

2.Savol berish. Oldinga siljishning ilojisi yo‘qligi mo‘ljal olishning dastlabki sxemalarini qayta ko‘rib chiqish va fikrlashga undaydi. “Tushunishda ikkilanish, hayratlanish va to‘xtalish, haqiqatga qarab siljish uni bilishga qizg‘in intilish bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘langan.

3.Oldindan tushunish. Boshqa birovning fikriga ochiqlik – bu o‘z qarashlari, xato fikrlari va an‘analari sohasidan, boshqa fikr (yaqin-begona) chegarasiga tushunishimizning asosi sifatida chiqish hisoblanadi.

4.Interpretatsiyalarning hermenevtik doirasi, unda harakat matnning bir butun sifatida dastlabki tasavvurdan uning qismlariga, qismlarning ma‘nosidan umumiy ma‘nosidan umumiy ma‘noni oydinlashtirishgacha davom etadi.

5.Tushunish (insayt (tushuncha), tahlil)-umumiy ma'noga daxldorlikning yuzaga kelishi.

6.Umumiy ma'no. Interpretatsiya doimiy ravishda ma'noga intiladi, shu bilan bir vaqtda matn orqali interpretator (tarjimon)ning mavjudligini oydinlashtiradi. Matnni tushunishda bevosita ma'no interpretatsiya vositasida kengayadi.

2.3-§.Paradoksning kognitiv tabiati: alogik (mantiqsiz) til birliklari va ziddiyat, prezumpsiya, presuppozitsiya va implikatsiya

Kognitiv paradigma doirasida paradoks strukturasi ajratish voqelikni konseptual modellashtirish mexanizmi sifatida anglangan. Kognitiv lingvistik tadqiqotlarda paradoksni tubdan yangi talqin, paradoks, kognitiv asoslari negizida lingvokognitiv birlik sifatida ko'rib chiqila boshlandi. Paradoksning yangi talqini kognitiv paradigmadagi fikrlash tabiatini tubdan yangi tushunishga suyanadi.

Kognitiv tadqiqotlarda ilgari abstrakt va mantiqiy tabiatga ega bo'lgan tafakkur, endilikda ongning eng muhim elementlari sifatida o'zining obrazli jihatlari bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Kognitiv fan tilni ongning strukturalari olamni konseptuallashtirish va turkumlashtirishda tilning roli haqidagi axborot manbai sifatida ko'rib chiqadi. J.Lakoffga muvofiq, tafakkur uchun, harakatlar va nutqdan ko'ra asosiyroq bo'lgan narsa yo'q. Turkumlashtirish inson tajribasi va tasavvurining natijasi, idrok, harakat faolligi va madaniyatning birikmasidir.

Kognitiv yondashuvga muvofiq, idrok etish, bilish va tushunish kognitiv jarayonlari, paradoksning chuqur tuzulishini ko'rib chiqish alohida qiziqish uyg'otadi. Barcha kognitiv jarayonlar, u yoki bu tarzda ong bilan bog'liq bo'lib, psixologiya sohasidagi so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson ongi, uning ichki ruhiy dunyosi paradoksal xususiyatlarga ega. Inson ongining anatomik tuzilishi bir vaqtning o'zida tasdiqlash va inkor etishda ifodalangan mantiqiy ziddiyatni o'z ichiga olgan paradoksning asosidir.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan paradoksni idrok etishning asosida kognitiv dissonans yotadi. Paradoks ikkita elementning qarama-qarshiligidan kelib

chiqadi, ularda o‘xshash narsa mavjud, ya’ni ikkita tashkil etuvchidan struktura hosil bo‘ladi va bir tashkil etuvchining xususiyatlari ikkinchisida takrorlanadi.

Paradoks – bu qarama-qarshilikni yaratish, ya’ni tashqi qarama-qarshi tushunchalar, ichki birlikka ega bo‘lgan ikki qarama-qarshi kontekstning birikmasidir. Shu bilan birga kognitiv tilshunoslik sohasidagi paradoksga oid asarlarida paradoksning qarama-qarshi va qarama-qarshi assotsiativ mohiyati nafaqat kognitiv disonans mexanizmida ifodalanishi qayd etilgan. Assotsiatsiya jarayoni muhim rol o‘ynaydi. Assotsiatsiya tufayli odam geterogen belgilar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni ko‘radi va qarama-qarshi kontseptual tuzilmalarni bitta bayonotda birlashtira oladi.

Kognitiv tilshunoslik sohasidagi so‘nggi tadqiqotlarda bevosita “hozir” kechayotgan jarayonlar haqida gap ketadi, “triada sintezi metodologiyasining asosida quriladigan, mental sintez mantig‘ida aks etgan murakkab jamiyat dinamikasidagi yangi ijtimoiy reallik” shakllanishini qayd etishadi.

Kognitiv tilshunoslikda sintez paradoks mantig‘ini va haqiqatni ochib beradi, buning natijasida sintez paradoksning kognitiv strukturasi qurish mexanizmiga kiritilishini taklif qiladi.

Filologik germinenektivikada ham, kognitiv tilshunoslikdagi kabi paradoks va metaforani ularning faoliyatida o‘xshashligi ta’kidlanadi. S.Tis, L.Koen va J.Mason metafora xususiyatlariga uning yaratuvchi vazifasini kiritishadi, u dunyoni ko‘rishning yangi usullarini yaratish imkoniyatidan iborat. Metafora ikkita alohida belgi yoki mavzu maydonini bog‘lab, qiymatlar bilan ishlaydi va obyektning tashqi ko‘rinish yoki xulqini ikkinchisining xarakteristikalarini yordamida tushuntiradi. Biroq ma’no tashkil etish jarayonida metaforalar an’anaviy tasavvurlar asosida yangi tasavvurlarni yaratadi: metafora ishlashi uchun, o‘rnatilgan qiymatlar tizimidan foydalanish kerak, bunda me’yoriy xarakteristikalar shubha ostiga olinadi. Metafora “o‘xshashlik va farq orasida osilib turadi”.

Paradoks bunday xarakteristikalarga ega, “Yangi konsepsiyani yaratadi, odatiy stereotiplarni buzadi va umum qabul qilingan ma’noga asoslangan bilimlarni shubha ostiga qo’yadi” degan fikrda hech qanday qarama-qarshilik yo’q.

Kognitiv tilshunoslikda paradoks obyektiv borliqni bilish vositasi sifatida ta’riflanadi, u “yashirin haqiqat joyi”ni ifodalash bilan birga yaratuvchi funksiyani bajaradi. Paradoks atrofdagi voqelik haqida aniqroq tasavvur hosil qiladi, bir-biriga bog’liq bo’lmagan ikkita qarama-qarshi kontekstni birlashtiradi. Metafora singari, paradoks ijtimoiy guruhning qadryatlarini aks ettirishi mumkin, dunyoni idrok etishni shakllantirishi va atrofdagi dunyo haqida yangi bilimlarni olish vositasi bo’lib xizmat qilishi mumkin.

Paradoks, paradoksallikka bag’ishlangan tadqiqotchilik va tavsifiy adabiyotlarda, paradoks, ziddiyat va kontradiktivlik tushunchalaridan foydalanishda nomuvofiqlik mavjud bo’lib, ular sinonim emas, ma’lum til hodisasining faoliyatining o’ziga xos sohasi belgilaydi. Har bir tushunchaning tavsifini berish va terminologik amaliyotda aniq belgilangan chegaralarini belgilash muhim ko’rinadi.

Paradoksning ta’rifi shuni ko’rsatadiki, u ko’pincha uni keng tushunish imkoniyati tufayli qarama-qarshilik bilan bog’liq, ammo paradoks va ziddiyat sinonim tushunchalar emasligini ta’kidlaymiz, chunki ziddiyat paradoksning paydo bo’lishi uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

Katta ensiklopedik lug’atda ziddiyatga quyidagicha ta’rif beradi – biri ikkinchisini inkor etadigan ikkita bayonotning mavjudligi (mulohazada, matnda, nazariyada); ushbu gaplarning kon’yunksiyasi yoki ularning ekvivalentligining isbotlanuvchanligi; kengroq ma’noda – aniq turli xil obyektlarning ayniyati haqida tasdiq. Ziddiyat (qarama-qarshilik) yoki unga olib keluvchi mulohazalarning mantiqiy buzuqligini yoki bu fikrga asos bo’lgan asoslarning nomuvofiqligini ko’rsatadi – bu holat ko’pincha ziddiyat (qarama-qarshilik)ni kamaytirish va bilvosita dalillar orqali rad etishda qo’llaniladi.

Tilshunos V.Y.Proppning ta’kidlashicha, ziddiyat “kulgi obyektida emas, uning subyektida emas, balki ular o’rtasidagi qandaydir munosabatlarda” bo’ladi.

Shunday qilib, ziddiyatning (qarama-qarshilik) bir qutbi atrofidagi haqiqatda, ikkinchisi-o‘quvchida. Propp o‘quvchining “to‘g‘ri” (ya’ni tipiklashtirilgan, qoliplashtirilgan) tasavvurlari va u kuzatgan reallik o‘rtasidagi muvofiqlik yo‘qligi haqida gapiradi.

“Zamonaviy ingliz tili frazeologiyasi kursi”da A.V.Kunin quyidagi ziddiyat tiplarini ajratib ko‘rsatadi:

- 1) mantiqiy ziddiyat, ikkita bir-birini rad etadigan tushunchani birlashtirish;
- 2) bevosita ziddiyat, unda tushunchaga xos bo‘lmagan belgi qo‘yiladi;
- 3) absurd ziddiyat, turli sohalardagi tushuncha va belgilarni birlashtiruvchi.

Paradoks va ziddiyat haqida gapirganda, ziddiyat qarshi qo‘yish emasligini ta’kidlash kerak, bu paradoksni qurish usullaridan biridir: “Nowadays all the married men live like bachelors and all the bachelors live like the married men” O.Wilde. “The Picture of Dorian Grey” (*Hozirgi kunda barcha oilali erkaklar talabalar kabi yashaydilar va barcha talabalar oilalilar kabi yashaydilar*).

Bizning fikrimizcha, paradoks va ziddiyat munosabatlari masalasida ularning alohida guruhlariga bo‘linishi o‘rinlidir. V.S.Biblarning yozishicha, “paradoksning jonli suvi ongning ijodiy kuchini yangilaydi, bilish predmetini dastlabki antinomik yashirin zahiralarini ko‘rish imkonini beradi”.

Antinomiya va paradoks tushunchalarini solishtirganda shuni ta’kidlash joizki, antinomiya metatil tushunchasining o‘zida mavjud bo‘lgan nominal ziddiyatdir, paradoks – bu qarama-qarshi xulosaga kelish uchun zarur bo‘lgan qandaydir mulohaza.

Shuni ta’kidlash kerakki, paradoks va antinomiyaning ajratishning sinovdan o‘tkazilgan mezoni mavjud. Paradoksal vaziyatning “hajmi” bilishning turli darajalarining prinsipial nomuvofiqligi haqida gap boradigan barcha muammolarni o‘z ichiga oladi, masalan: emperik va nazariy, oqilona va asosli. “Paradoksallik”- bu nomuvofiqlikning eng umumlashtirilgan xususiyati. Antinomik vaziyatda qoida tariqasida, bir xil darajadagi muammoli tesizlar, ya’ni tezis va antitezis, o‘rtasidagi nomuvofiqlik nazariy yoki emperik bilim doirasida ushbu bosqichda mazmunli bo‘lmagan vaziyatni tavsiflaydi.

Tilda paydo bo'ladigan antinomiylar, qoida tariqasida, tubdan diskret shakllanishlar sifatida baholanadi, ular ma'lum bir og'zaki konstruktsiya bilan bog'liq, ularni fikrlash jarayonining uzluksizligining adekvat ifodasi deb aytish qiyin. Biroq real til makonida bu "noqulaylik" kamdan-kam hollarda qoqilish, tubdan yengib bo'lmaydigan qadam bo'ladi. Biz buning tasdig'ini aniq lingvistik tadqiqotlarda topamiz, ular uchun antinomik muammolar bilan "til o'yini" ma'noni shakllantirish va ma'no yaratishning juda samarali elementi bo'lib chiqadi.

Antinomiyaning sharhlashda tadqiqotchilar N.S.Trubeskiyning oppozitsiya nazariyasidan foydalanishadi, u har qanday oppozitsiya tizimida ikki guruhni ajratadi: bir o'lchovli va ko'p o'lchovli. Bir o'lchovli oppozitsiyada oppozitsiyaning ikkala a'zosi ega bo'lgan diametral – qarama-qarshi belgilar faqat ushbu oppozitsiyaning ikki a'zosida mavjud bo'ladi – antonimlarda. Ko'p o'lchamli oppozitsiyalarda umumiy belgilar jamlamasi taqqoslash uchun kengroq va faqat ushbu oppozitsiya a'zolari bilan chegaralanmaydi, balki ushbu tizimning boshqa a'zolariga ham tarqaladi.

L.A.Gruzberg "Antinomiya" asarida qayd etishicha, odatda absolyut qarama-qarshi narsalar taqqoslanadi, masalan: ichki yaxlitlik – nomuvofiqlik, xilma-xillik – bir xillik, o'zgarma-o'zgaruvchan, bir xillik-o'ziga xoslik, chegara cheksizlik.

Antinomiya deganda, odatda, bir obyekt haqida ikkita o'zaro qarama-qarshi bo'lgan mulohazalar yig'indisi tushuniladi, ularning har biri ushbu obyektga nisbatan to'g'ri va ulardan har biri bir xilda ishonchli mantiqiy asosni tan oladi. Antinomik mulohazalar voqelik va voqealarni alohida tushunish, obyektga va butun dunyoga alohida qarashning natijasidir – birlik, qarama-qarshiliklarning uyg'unligi, yaxlitlik nafaqat vayron bo'lmaydi, aksincha, qarama-qarshi tashkil etuvchilarning o'zaro ta'siri bilan ta'minlanadi.

Paradoksda ziddiyat (qarama-qarshilik)ning mavjud bo'lishi haqida bir ma'noli fikr shakllanmaydi va bu yerda matndagi til paradoksi va mantiqiy paradoks keskin ravishda ajratish kerak. E.B.Temyannikovanning tadqiqotida adabiy paradoks "o'zida hech qanday mantiqiy ziddiyat (qarama-qarshilik) ni o'z

ichiga olmaydi. Bu holatda mulohaza yuritish o'zining mantiqiy tuzilishi va mazmuniga ko'ra to'g'ri deb hisoblanadi va tashqi ko'rinishida u umume'tirof etilgan qarashlarga to'g'ri kelmasligi uchungina paradoks hisoblanadi".

Mantiqiy paradoks yechilmaydigan ziddiyatni o'z ichiga oladi, adabiy paradoksda esa zohiriy ziddiyat mavjud, ya'ni adabiy paradoksda ziddiyatning mavjudligi haqiqatda inkor etiladi. N.Y.Shpektorovanning nuqtayi nazari boshqacha, uning ta'kidlashicha, "barcha turdagi paradokslar, shu jumladan, adabiy paradokslar asosida qarama-qarshilik yotadi". Badiiy matnlar ichidagi paradokslar matn qurishning intuitiv jarayonining elementlariga o'xshab ko'rinishi mumkin, ammo ularning mazmuni va tuzilishining tahlili elementlari o'rtasidagi munosabatlarda aks etadigan bir qator o'ziga xos usullarni aniqlashga imkon beradi, ular bu jarayonda obyektiv ishtirok etadi va paradoks yoki paradoksal bayonotlar elementlari o'rtasidagi munosabatlarida aks etadi.

Tilshunos G.A.Shpektrovaning fikriga ko'ra, paradoks alogik (mantiqsiz) birikmalar bilan bir qatorda bo'lib, ular "bir nechta jumlalar, yoki o'z mazmuniga ko'ra oldingi gap mazmuniga zid bo'lgan, uni butunlay chiqarib tashlaydi". Qarama-qarshilik – bu tushunchalar orasidagi mantiqiy munosabat bo'lib, ulardan biri ikkinchisining inkori bo'lib, ular orasida uchinchi, o'rta varianti bo'lishi mumkin emas: bir vaqtning o'zida to'g'ri bo'lolmaydigan va bir vaqtning o'zida yolg'on bo'lolmaydigan ikkita oddiy taqqoslanadigan takliflar o'rtasidagi mantiqiy munosabat: ulardan birining haqiqiyliigi, albatta, ikkinchisining yolg'onligini anglatadi yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Kontradiktorlik qarama-qarshiliklarning o'zaro bog'lanishining u yoki bu usuli orqali amalga oshiriladi. Bu mazmunga ham, tilga ham, til paradoksidagi ichki munosabatlarga ham tegishli. Bunda qarama-qarshiliklar sifatida real obyektlar ularning xususiyatlari bilan mental fenomenlar – fikriy obrazlar, tushunchalar, so'zlar va ularning ma'nolari qarama qarshilik vazifasini o'tashi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan tushunchalarning chegarasini aniqlashga nisbatan G.L.Tulchinskiyning yozishicha, "Birinchi darajali vazifa paradoks va qarama-

qarshiliklarni izlab topish va yo‘q qilish emas yoki ularni tobora ko‘proq maxsus texnik usullar yordamida emas, balki paradokslarni “xotirjamlik bilan” ko‘rib chiqishga urinishda, ularning ichki mantig‘i, mexanizmlar va tamoyillarni aniqlashga urinishdan iborat. Boshqacha qilib aytganda, til qarama-qarshiliklarni qanday hosil qilishini tahlil qilish zarur”. Boshqacha aytganda, til qarama – qarshiliklarni hosil qiladi, ular keyinchalik paradoksdan amalga oshiriladi.

Paradoksning keyingi tadqiqotlarida paradoksning barcha shakllariga xos bo‘lgan parametr aniqlandi –yagona yechimning yo‘qligi sababli paradoks o‘rta asrlarda nasriy va poetik asarlarni yozish qoidalari to‘plamigacha keltirilgan nutq nazariyasi doirasida matnni bezash vositalari qatoriga kiritilgan. Paradoksal badiiy matnning ma‘nolarini qurishga ta’siri nuqtayi nazaridan **prezumpsiya**⁵⁴ va **implikatsiya** hodisalarining lingvistik tabiatini ko‘rib chiqish kerak.

Bir qator tadqiqotchilar paradoks bayonotining semantik va pragmatik prezumpsiya yoki me‘yoriy buzilishi deb hisoblashadi. Bunda ular, semantik prezumpsiya yolg‘on bo‘lishi, yolg‘on prezumpsiyaning buzilishi haqiqiy, mantiqan normal jumlaning berishi va shu sababli paradoksga olib kelmaydi deb ta’kidlaydi. Turli til tilshunoslarida bir xil prezumpsiyaning haqqoniyligi haqida turli fikrlarga ega bo‘lishi haqidagi xulosaga duch kelamiz. Bundan tashqari, nafaqat jumlaning ma‘nosini, balki nutqda o‘ziga xos foydalanishni ham hisobga olish kerak.

Tilshunos B.A.Uspeniskiyning so‘zlariga ko‘ra “har qanday paradoks bu prezumpsiyani buzishdir”. Paradoks “ba’zi bir ortodoksal⁵⁵ fikrga zid keladi, bu tabiiy ravishda prezumpsiya deb ataladi”.

Zamonaviy tadqiqotlarda matnda paradoks mavjudligini aniqlash uchun, bayonot tuzilishini soddalashtirish taklif etiladi. Bayonotning transformatsiyasi natijasida yuzaga keladigan, aniq qarama-qarshilikni o‘z ichiga olgan minimal til birligi paradoksal prezumpsiya sifatida aniqlanadi. Paradoksal prezumpsiya –

⁵⁴ Ehtimollik yoki taxminga asoslangan faraz, faktning aksi tasdiqlanmaguncha, shu faktning yuridik to‘g‘ri deb topish <https://uz.wiktionary.org/wiki>

⁵⁵ Ortodoksal (yun.) — qandaydir sohada belgilangan qoida va tamoyillarga hech ikkilanmay ergashish. <https://milliycha.uz/ortodoksal/>

oddiy yoki murakkab mantiqiy taklif sifatida ifodalangan paradoksallikning mantiqiy tashuvchisidir. “Ertadan keyin qilish mumkin bo‘lgan ishni ertaga qoldirma” paradoksda tabiiy inkor “ertaga qoldirish”, “bugun qilish” deb qaraladigan lingvistik prezumpsiyaning buzulishidir.

Prezumpsiya bayonot kontekstida paradoksallikning mavjudligini belgilaydigan paradokslarga misol keltiramiz.

I adore political parties. They are the only place left to us where people don't talk politics. (Men siyosiy partiyalarni yaxshi ko'raman. Bizda siyosat haqida gapirilmaydigan bitta joy bor)

I love talking about nothing. It is the only thing I know anything about. (Men lom-mim demaslikni yaxshi ko'raman. Bu men biladigan yagona narsa)

A man who allows himself to be convinced by an argument is a thoroughly unreasonable person. (O'zini muzokara bilan ishontirishga imkon beradigan odam mutlaqo aql bovar qilmaydigan odamdir.)

Nowadays, with our modern mania for morality, everyone has to pose as a paragon of purity, incorruptibility, and all the other seven deadly virtues and what is the result? (Bugungi kunda, axloqqa bo'lgan zamonaviy tushunchamiz bilan har bir kishi poklik, halollik va boshqa barcha yetti o'lik fazilatni namuna sifatida ko'rsatishi kerak va natija nima?)

Umuman olganda, paradoksdagi semantik prezumpsiyani mantiqiy tahlil nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishimiz mumkin:

A jumla B jumlaning prezumpsiyasi hisoblanadi, agar A ning yolg‘onligi B ning semantik anomalligiga olib kelsa, yoki aksi bo‘lsa: agar B ning haqqoniyligi A ning semantik normalligining zaruriy sharti bo‘lsa.

Semantika sohasiga til paradokslari, pragmatika sohasiga – nutq paradokslari kiradi. **Pragmatik prezumpsiya** tushunchasi, paradoks qay tarzda umum qabul qilingan fikrni inkor etadi va uni o‘zgartirishini tushuntirishga yordam beradi.

Pragmatik prezumpsiyani aniqlashda nutq akti hisobga olinadi, unda ma’ruzachi va tinglovchining umumiy bilim elementi, fon bilimlari deb element ishtirok etadi.

Keyinchalik, biz lingvistikada presuppozitsiya atamasi bilan ifodalanadigan paradoksni tushunish jarayoniga shaxsning bilimi qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqamiz, shuningdek, paradoksal matnda tizimli fikrlash faoliyati jarayoni tahlilida amalga oshiriladigan ushbu atamaning metafunksiyasini ko'rsatamiz. Buning uchun presuppozitsiya tushunchasining terminologik ta'rifini ko'rib chiqamiz.

Presuppozitsiya tushunchasi falsafiy mantiqqa kiritilgan. Amalda undan G.Frege⁵⁶ foydalangan, keyinroq B.Rassel⁵⁷, garchi ular tegishli atamani ishlatmaganlar. Presuppozitsiya atamasi va uning batavfsil ta'rifi P.Storen tomonidan kiritilgan. Presuppozitsiyaning turli xususiyatlariga asoslangan turli ta'riflari mavjud. Presuppozitsiyaning umumlashtirilgan ta'rifi sifatida quyidagilarni tasavvur qilish mumkin: presuppozitsiya deb bayonotning shunday propozitsion komponentiga aytiladiki, uning yolg'on ekanligi bayonotni noo'rin yoki anomal qiladi. Shuningdek, presuppozitsiya deganda shunday sharoit tushuniladiki, mumkin bo'lgan olam undagi gapning to'g'ridan to'g'ri ma'noga ega bo'lishi uchun javob beradi.

Presuppozitsiya atamasining uchta tushunchasi mavjud:

A) nutq akti tipi va ishlarning holati haqidagi faktlar majmuasi o'rtasidagi munosabat.

B) bayonot yoki haqiqiyliги boshqa bir bayonotni baholashning haqiqiyliги uchun (haqiqat yoki yolg'on) zaruriy shart bo'ladi.

S) gapning o'ziga qarama-qarshi bo'lgan, jumla bilan ifodalangan va ko'p turdagi nomaqbul harakatlar va aniq nutq harakatlari o'rtasidagi munosabatlar.

Mantiqiy, pragmatik va semantik presuppozitsiya mavjud. Paradoksal matnlar uchun oxirgi turdagi presuppozitsiya xos. Pragmatik presuppozitsiya jumlaning "ko'zda tutilgan" ma'nosida tushunilishi uchun mavjud bo'lishi kerak

⁵⁶ Friedrich Ludwig Gottlob Frege was a German philosopher, logician, and mathematician. https://en.wikipedia.org/wiki/Gottlob_Frege

⁵⁷ Bertrand Arthur William Russell, 3rd Earl Russell was a British mathematician, philosopher, and public intellectual. https://en.wikipedia.org/wiki/Bertrand_Russell

bo‘lgan shartlar yoki kontekstlarni ifodalaydi (ya’ni so‘zlovchining mo‘ljallangan ma’noni yetkazish niyati amalga oshishi uchun).

Semantik presuppozitsiya gap va u ifodalagan gap o‘rtasidagi munosabatni tavsiflaydi. Odatda bu tur gapni talaffuz qilish va tushunishning pragmatik shartlaridan mavhum narsa sifatida tushuniladi. Xususan, semantik presuppozitsiyalar grammatik jarayonlarga ta’sir qiladi.

Yashirin ma’nolar kabi presuppozitsiya ham bilvosita ifodalangan “yashirin” parametrlarga ishora qiladi. Presuppozitsiya tushuniladigan ma’no emas, balki paradoksnig ma’nosini tushunish uchun zarur bo‘lgan bilimdir (nutq predmeti haqidagi asosiy bilim).

Paradoksal matnda yashiringan ma’noni tushunishda matn osti muhim rol o‘ynaydi. Yashirin ma’no va matn osti o‘rtasida chegara chizish, ikkinchisi ta’rifining noaniqligi tufayli juda qiyin. Lingvistik adabiyotlarda bu kategoriya, masalan, Silmanda, ham “so‘z bilan ifodalanmagan, biron bir voqea yoki bayonotning yashirin ma’nosi”, badiiy asarning bir qismi sifatida, yoki “chuqur ma’no” va “muallif tomonidan atayin og‘zaki ifodalanmagan ma’no”.

Matn osti tushunchasi implikasiya tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq, u lingvistikaga mantiqdan unga mantiqda berilgan ta’rif bilan birga kirib kelgan: “Implikasiya deb shunday shartli gapni tushunishadi, qabul qilinganni, ya’ni odatiy tilda ko‘p jihatdan “agarunda...”ga mos keladigan, mantiqiy bog‘lanish yordami bilan murakkab bayonotga ikki gapni bog‘laydigan mantiqiy operatsiya”⁵⁸.

Implikasiya (lotincha bog‘lanish) - nazarda tutish, matn osti, ifodalanmagan, noaniq, bilvosita “o‘ralgan” ma’noli hodisalarni qamrab oladi. Bayonotlar implikasiyasi – ikkita dastlabki bayonotlardan tuzilgan yangi bayonot: asos va oqibat, faqat asos to‘g‘ri va oqibat noto‘g‘ri bo‘lgan hollarda noto‘g‘ri bo‘ladi.

Implikasiyani o‘shish va chuqurlashish, shuningdek, xabarning semantik va emotsional –psixologik mazmunini ikkinchisini ma’no tashkil etish birliklari

⁵⁸ Kandakov N.I. Logika – M., 1999. – 191s

uzunligini oshirmasdan o'zgartirish"ga olib keluvchi matnni tashkil etish usuli sifatida ko'rib chiqishadi.

Bir qator mualliflar implikasiya va kontekst atamalarini sinonim sifatida ishlatib ularni, ushbu so'zni boshqa so'zlar, gaplar yoki xabarlarini butunligicha lingvistik muhit, yoki "gapiruvchilar uchun umumiy predmetli vaziyat" sifatida izohlaydilar. Shu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, so'z aniq tilning leksik tizim elementi sifatida o'z tabiatiga ko'ra mustaqil faoliyat ko'rsata olmaydi. So'zning o'zida tilni tashkil etishning yuqoriroq darajasiga kirish belgilari mavjud, aynan gapda va bu "so'zning grammatik belgilanishi uni tildagi ikki tomonlama bog'liqligining eng yorqin ko'rsatkichi hisoblanadi: bir tomondan boshqa so'zlardan, ikkinchi tomondan gapning grammatik tuzilishi bog'liqligi"⁵⁹. Ushbu tadqiqot uchun adabiy matn qiziqish uyg'otadi, uning implikatsion to'yinishi ajralmas mohiyatni tashkil etadi. Paradoksni tushunishda, tushunilayotganning hajmi va xarakteri qabul qiluvchi subyektga bog'liq bo'ladi. Qabul qiluvchi zarur bilimga ega bo'lmagan yoki so'z ma'nosining xususiyatlarini sezmasa, implitsitiv axborotni ilg'amasligi, noto'g'ri tushunishi mumkin. Agar bilim tushunishga mos bo'lmasa unda badiiy matnni tushunish jarayonida mavjud bilimlarni faollashtirish matnni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

U yoki bu tarzda til paradokslarini yaratish mexanizmlari masalasi ko'tarilgan ishlarni o'rganish jarayonida ikkita guruh aniqlandi:

- 1) Qarama-qarshilik texnikasini amalga oshiruvchi qurish mexanizmlari
- 2) Komponentli tahlil guruhi

Birinchi guruhga quyidagi qurish mexanizmlari kiradi:

- 1) Qarama-qarshiliklarning shunday birlashuvini, ular bir butunlikni tashkil etadi, ularning elementlari u yoki bu tarzda bir-birini to'ldiradi, boyitadi, bir-birini o'zgartiradi, bir-biriga yangi maqom beradi.
- 2) Hodisani bir tomonlama taqdim etishdan foydalanishning samarasiz ekanligini namoyish etish uchun qandaydir fenominni uning qarama-qarshisi bilan to'ldirish

⁵⁹ Колшанский Г.В. О природе контекста // Вопросы языкознания. – 1998. № 4. – С. 47-49.

3) Turli tabiat voqeliklarini birlashtirish.

4) Qarama-qarshi haqiqatni tasdiqlash maqsadida haqiqatda istalmagan yoki imkonsiz bo'lgan harakat va hodisalarni izohlash uchun haqiqiy va xayoliy birlashtirish.

5) Timsollar, bayonotlarning turli talqinlarini birlashtirish.

Paradokslarni qurish mexanizmlari kognitiv tilshunoslikda eng to'liq tavsiflangan, chunki paradoks strukturasi ongning aqliy jarayonlariga o'xshaydi. "Inson ongining anatomik strukturasi bu tasdiq va inkor, aytilgan va nazarda tutilgan, istalgan va haqiqatni birgalikda mavjudligida ifodalangan mantiqiy qarama-qarshilikni o'z ichiga olgan paradoksning asosidir"⁶⁰.

Paradoksning kontradiktor va assotsiativ mohiyati ziddiyat (qarama-qarshilik)ni yaratish sifatida, ya'ni ichki birlikka ega qarama-qarshiliklar kontekstlarni birlashtirish, nafaqat kognitiv dissonans mexanizmida ifodalanadi. Assotsiativlik muhim rol o'ynaydi, chunki assotsiyalar paradoks tabiatining o'ziga joylangan va uning muqarrar xususiyatidir. Assotsiativlik deganda leksik darajadagi birliklarning ona tilida so'zlashuvchilar ongida til tizimi, tushunchalar dunyosi va atrofdagi voqelik hodisalari bilan assotsiatsiyalarni uyg'otish salohiyati va universal qobiliyati tushuniladi.

Dunyoqarashning assotsiativligi tufayli odam geterogen denotat o'rtasidagi o'xshashlik yoki farqni ko'radi, bu qarama-qarshi konseptual tuzilmalarni bitta paradoksal bayonot doirasida birlashtirishga imkon beradi.

Paradoksning qurish mexanizmini tavsiflash uchun kognitiv tilshunoslik triadik sintez metodologiyasi asosida ko'rilgan sintez mantig'idan faol foydalanadi va paradoksning lingvokognitiv hodisa sifatida yaxlitligini ta'minlaydigan paradoksal sintez mexanizmini ochib beradi.

Paradoks paradoksal giperstrukturalarni kognitiv modellashtirish metodi yordamida kognitiv tilshunoslikka mos ravishda ramkaga solingan struktura holatida o'rganiladi. Paradoksning kognitiv strukturasi paradoksal sintezning eksplitsitiv va implitsitiv strukturalarini freyimli tahlili orqali ochib beriladi. Ikkita

⁶⁰ O'sha manba 10-bet

bir-birini inkor etadigan hukmlar tezislarining assotsiatsiyasi asosida birlashtirganda ierarxik struktura quriladi, u kamida elementdan iborat, uning yuqori darajasida bir butun sifatida ishlaydigan yakuniy natijaviy tipdagi paradoks joylashadi.

Paradoksal sintezning natijasi lingvokognitiv hodisa sifatida paradoks bo'lib, o'zaro qarama-qarshi tezislar paradoks tuzilishidagi aksiomalar bilan ifodalanadi, masalan: paradoksal kontekstdagi obyektiv-predikativ nomuvofiqlik.

Ikkinchi guruhga paradoksal bayonotlarning tarkibiy tahlilidan foydalaniladigan qurish mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

1) Bayonot tarkibiy qismlaridan birini antinomik almashtirish:

The amount of women in London who flirt with their own husbands is perfectly scandalous. It looks so bad. It is simply washing one's clean linen in public. (Wilde-online-info. <https://www.wilde-online.info/the-importance-of-being-earnest-page5.html>) (Londonda o'z jufti haloliga noz-karashma qiladigan ayollar soni haddan tashqari ko'p. Bu juda yomon ko'rinadi. Bu shunchaki, shaxsiy muammolarni boshqalar bilan baham ko'rish demakdir)

to wash one's dirty linen in public

2) Maqolning birinchi komponentini almashtirish:

Fathers should be neither seen nor heard? That is the only proper basis for family life. (O.Wilde. The Wit of Oscar Wilde) (Otalar ko'zga ko'rinmasligi kerakmi? Bu hayot uchun yagona to'g'ri asosdir)

Children should be seen and not heard. (Bolalar ko'rinishi kerak, lekin ularning ovozlari eshitilmasligi kerak degan jumlaning ma'nosi quyidagicha: kattalar suhbat o'tkazadigan xonada bolalar tinglashlari kerak, lekin ularni to'xtatmasliklari (eshitishlari) kerakligini anglatadi)

3) Maqollarni o'zgartirish:

Lord Henry had not come in. He was always late on principle, his principle being that punctuality is the thief of time. (O.Wilde. The Picture of Dorian Gray, ch.XI) (Lord Genri hali kelgani yo'q. U hamma joyga kechikib borishni o'ziga

odat qilib olgan edi. Uning nazarida hamma ishini aniq vaqti – soatida qiladigan odam vaqtdan yutqazadi)

Procrastination is the thief of time. (*“Kechiktirish – vaqt o‘g‘risi” degani bo‘lib, kechiktirish, ya‘ni narsalarni keraksiz ravishda ortga surish – odamlarning ko‘p vaqtlarini behuda sarflanishiga olib kelishini anglatadi*)

4) Kommunikativ ibora birligini o‘zgartirish:

“You gallop with a loose rein.”

“Pace gives life,” was the riposte.

“I shall write it in my diary to-night.”

“What?”

“That a burnt child loves the fire.”

“I am not even singed. My wings are untouched.”

“You use them for everything, except flight.” (O. Wilde. The Picture of Dorian Gray, ch. XVII)

“Siz mahkam bo‘lmagan, jilovdasiz.”

“Tezlik hayot beradi”, deb javob berdi.

— Buni kechqurun kundaligimga qayd etib qo‘yaman.

“Nima?”

“Og‘zi kuygan qatiqni puflab ichadi”

“ Mening qanotlarim qayrilmagan”.

“Siz ularni uchishdan tashqari hamma narsa uchun ishlatasiz.”

Burnt child dreads the fire. (People avoid the things that have hurt them)
(Og‘zi kuygan qatiqni puflab ichadi) vositasida amalga oshiriladi.

Bugungi kunga qadar tilshunoslar paradoks yaratishning juda ko‘p lingvistik vositalarini tavsifladilar. Tilning strukturaviy darajalariga nisbatan paradoksni yaratish uchun til vositalarining bir nechta guruhlari mavjud bo‘lib, ular yetarlicha to‘liq o‘rganilgan.

1. Grafik darajadagi paradokslarni yaratish vositalari guruhi

1) So‘z chegaralarini ko‘chirib o‘tkazish va omofonlardan foydalanish:

“If you step onto a plane and recognize a friend of yours named Jack, do’t yell out “Hi, Jack!” (Agar siz samolyotga chiqsangiz va Jek ismli do’stingizni tanib qolsangiz, “Salom Jek!” deb baqirmang),

2) So‘z yoki iboraning harflarini qayta joylashtirish orqali tuzilgan so‘z yoki iborani bildiruvchi anogrammadan foydalanish,

3) Boshqa so‘zlarning birinchi harflardan hosil bo‘lgan va ba’zan qisqartirish sifatida ishlatiladigan so‘zlar bo‘lgan akronimlardan foydalanish.

2. Fonologik darajadagi paradoks yaratish uchun vositalar guruhi:

1) urg‘uni ko‘chirish va intonatsiyani o‘zgartirish,

2) Paronomaziya (paronomik attraksiya) tovush o‘xshashligiga ega bo‘lgan so‘zlarni ataylab yaqinlashtirish,

3) Malopropizmlar,

4) Spunerizmlar.⁶¹

3. Morfologik darajada paradokslarni yaratish vositalari guruhi:

1) Affiksatsiya, ya’ni alohida morfemlardan yangi til birliklarini yasashda foydalanish;

2) Qo‘shma so‘zlarning qo‘llanilishi va ma’no jihatdan o‘zgartirish: I should have been a country-western singer. After all, I’m older than most western countries; (*Menda ko‘proq hayotiy tajriba bor va men kengroq auditoriya bilan muloqatga kirisha olaman. Bundan tashqari, men har doim musiqa orqali hikoya qilishni yaxshi ko‘raman va mamlakat g‘arbiy qo‘shiqlari ko‘pincha haqiqiy hayot muammolarining hamda hissiyotlarining mohiyatini qamrab oladi*)

3) Alliteratsiya bilan, paradoks yasash alohida tovush, bo‘g‘in, so‘zlarning keraksiz takrorlanishi bilan birga kelganda: I brought a brick to break the window with. And a spare brick in case it’s double-glazing. (*Deraza sindirish uchun g‘isht olib keldim. Har ehtimolga qarshi ortiqcha bitta g‘isht ham olib keldim, agarda u ikki qavatli oyna bo‘lishi mumkin*)

4) Leksik darajada paradoks yaratish vositalari guruhi:

⁶¹ Спунеризация – англиз черкови рухонийси исми New College (Oxford) Спунер (1844-1930) бўйича, товушларни ноинтерперетацион кўчириш, одатда бошлангич ҳолатда.

1. Ta'riflanayotgan obyektни uni boshqa predmetli sohalarining birliklari: epitet va munosabatlar figurasi bilan adekvatligini (mosligini) aniqlash imkoniyati tufayli qayta ko'rib chiqishga yordam beradigan yo'llar.

2. Ko'p ma'noli so'zlar: There are only two kinds of pedestrians –the quick and the dead. (Piyodalarning faqat ikki turi mavjud –chaqqon va sekin harakatlanuvchilar)

3. Sinonimiya: I'm as pure as the driven slush. (*Axloqiy juhatdan mukammal insonman*)

4. O'xshash yoki yaqin ma'noli iboralarni almashtirish:

5. Allyuziyadan foydalanish, uni adekvat talqin qilish qo'shimcha madaniy bilimlarni talab qiladi.

6. Paremiya⁶² yoki frazeologik birliklarni yangilash: til ongning ajralmas stereotiplashgan (qolipga solingan) qismi bo'lgan, paremiologik birlikning kutilmagan kontekstda qo'llanilishi, paradoksni yaratishga olib keladi: Where there's a will, there's a way to avoid lawyers' fees. (*Ishonch bor joyda imkon bor*)

5. Sintaktik darajada paradoksni yaratishning vositalar guruhi:

A) Asindeton⁶³ - Change is inevitable.... except from vending machines. (O'zgarish muqarrar.... avtomatlashtirilgan savdo mashinasidan tashqari),

B) Ellips,

S) Sintaktik tivtologiya.

Paradokslarni yaratishning til vositalarining ko'pligi badiiy paradoksallik kategoriyasining namoyon bo'lishining variantivligi haqida gapirish imkonini beradi.

Paradoksni tushunishning asosiy mexanizmlari: Paradoksni tushunishning asosida kognitiv dissonans yotadi, ya'ni tashqi qarama-qarshi kontekstlar yoki qarama-qarshi, biroq ichki birlikka ega tushunchalarni birlashtirish. Bunda paradoksning kontradiktor assotsiativ tabiati nafaqat kognitiv dissonans

⁶² **Паремнология** сўзи грекча "paronimia" (хикмат) "logos" (фан) сўзларидан олинган бўлиб, маълум бир тилдаги мақол, матал, афоризм каби хикматли иборалар тизимини ўрганадиган фандир[<http://samxorfil.uz/yangiliklar/paremiyalarning-turli-tizimdagi-tillarda-umumiy-xususiyatlari>]

⁶³ **Asindeton** so'zi yunoncha: âsôndénon, "bog'lanmagan" so'zdan olingan bo'lib, bog'lovchilar bir qator bog'langan bo'laklardan ataylab tushirib qo'yilgan. Masalan, "Keldim, ko'rdim, zabt etdim".

mexanizmida, balki paradoks tabiatida yotgan va uning tavsifi hisoblangan assotsiativ mexanizmga asoslanadi. Ham muallif, ham o‘quvchi tomonidan til vositalarining idrok etilishida assotsiativlikning muhimligi haqida R.Bertolet “Bilvosita nutq nazariyasi” tadqiqotida gap ketadi. U muallifning maqsadi til vositalarining tanlovini belgilab berishini ko‘rsatadi: Ular shunday tanlanadiki, o‘quvchida aynan ushbu konkret vaziyatda kerak bo‘ladigan assotsiatsiyalarni uyg‘otish uchun tanlanadi. Ya’ni paradoksni til vositasi sifatida tanlash, paradoksallikning intensiyasini amalga oshirishning har bir alohida holatida u yoki bu kontekstli parametrlarining dolzarbligini aniqlaydi. Bunda, muallif paradoksal assotsiativ bog‘lanishlarni ifodalash uchun shaklini aniqroq topsa, shunchalik ma’no tashkil etishning funksiyasi muvaffaqiyatli amalga oshiradi.

Idrokning assotsiativligi insonga elementlar orasidagi o‘xshashlik yoki farqni ko‘rish va yagona paradoksal kontekst doirasida qarama-qarshi konseptual strukturalarni birlashtirish imkonini beradi. Agar mantiqiy paradoks holatida mantiqiy isbotlash jarayonida qarama-qarshilik kuzatilsa, unda til paradoksiga nisbatan, umuman boshqa qarama-qarshilik kuzatiladi, aynan jumlaning ikki qismi orasida. O‘quvchiga ta’sir o‘z ichiga paradokslarni olgan qarama-qarshiliklar hisobiga amalga oshiriladi.

Paradoksni anglashda muhim rolni, shakllangan bilimni buzish va ma’noni tiklashda bir vaqtda yuzaga keladigan **kognitiv dissonans** o‘ynaydi.

Paradoksni anglashning quyidagi bosqichlari ajratiladi:

1) Ikki ta mustaqil semantik maydonning aralashuvi natijasida hosil bo‘ladigan zarba. Ushbu maydonlarni qisman qamrab olish matnni butunlay buzilishi taassurotini qoldiradi.

2) Matnni umum qabul qilingan me’yorlar bilan o‘zaro bog‘liqligi shu tarzda o‘zgarib, rad etish hissi, o‘zgartirishga intilish, odatdagiga tenglashtirishga olib keladi.

3) Shu tarzda o‘zlashtirilgan matnni qayta o‘qish.

Tadqiqotimizda tanlab olingan badiiy matnning paradoksal belgilangan qismlaridagi til paradoksi, kognitiv, mantiqiy bog‘lanishlar amalga oshirilishiga

asoslanadigan uchta sxemaga muvofiq amalga oshirilishini aniqlaymiz. Bunda alogik (mantiqsiz) bog‘lanishlarning kutilmaganlik darajasi gap tarkibidagi jumlar soniga to‘g‘ri proporsional munosabatda bo‘lishi: so‘zlar soni qancha ko‘p bo‘lsa, aynan bayonotni keyingi qismlari inkor etadigan sifatni ta’kidlaydiganlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, ajablanish shunchalik ko‘p bo‘ladi va aksincha.

Sxemani ko‘rib chiqamiz:

1-sxema: Umumiy asos

A B C - B va C qarama-qarshi haqiqatlar

Lorg Goring: Life is never fair, Robert. And perhaps it is a good thing for most of us that it is not. (Hayot hech qachon adolatli emas, Robert. Ehtimol, ko‘pchiligimiz uchun bunday emasligi yaxshidir)

Bir tasdiqdan ikkita qarama-qarshi haqiqat keltirib chiqariladi. Birinchi asos, hayot doimo adolatsiz. Birinchi haqiqat – bu ko‘pchiligimiz uchun yaxshi. Ikkinchi haqiqat – hamma uchun ham adolatsiz emas, biroq ko‘pchilik uchun. Natijada yangi ma’no shakllanadi – adolatsiz hayot – ko‘pchilik uchun to‘g‘ri.

2-sxema: Umumiy natija

Algeron: Oh! There is no use speculating on that subject. Divorces are made in Heaven. (Oh! Bu mavzuda taxmin qilish befoyda. Ajralishlar osmonda hal etiladi.)

Ajralishlar osmonda bo‘ladi, degan kinoya paradoksal izohda maqolga ishora mavjud: *Marriages are made in Heaven. (Nikohlar osmonda qilinadi)*

Muallif iborasining ma’nosini tushunish o‘quvchining ushbu iborani bilishiga bog‘liq. Frezologik iboralardan foydalanish, muallifga fikrlashni rag‘batlantirish, bu bilimlarni qayta faollashtirish asosida qabul qiluvchi bilan yaqin aloqa o‘rnatishga yordam beradi.

3-sxema: Paralel

A S - A va S xulosa ma’no bo‘yicha qarama-qarshi

V D V va D xulosaga

If you pretend to be good, the world takes you very seriously. If you pretend to be bad, it doesn't. Such is the astounding stupidity of optimism. (Agar siz o'zingiz yaxshi bo'lsangiz, dunyo sizni juda jiddiy qabul qiladi. Agar siz o'zingiz yomon bo'lsangiz, unday emas. Bu optimizmining hayratlanarli darajadagi ahmoqligi)

Paradoksning psixologik idroki asosida ma'lum bir elementning oldindan aytib bo'lmaydiganligi tufayli yuzaga keladigan aldangan kutish ta'siriga asoslanadi. (R.Yakobson atamasi) Aldangan kutish effekti paradoksni tushunish bilan bog'liq uchinchi psixolingvistik jarayondir.

Aldangan kutish effekti ta'siri mexanizmini I.V.Arnold tomonidan ko'rib chiqiladi. "Nutqning uzluksizligi, chiziqchilik har bir alohida elementning tashqi ko'rinishini avvalgilari tomonidan tayyorlanishini va o'zi keyingisini tayyorlaydi... agar bu fonda past ehtimollik elementlari paydo bo'lsa, unda surish kabi harakat qiladigan uzilish paydo bo'ladi: tayyorlanmagan va kutilmagan idrok etishga qarshilik yaratadi, ushbu qarshilikni yengib o'tish o'quvchi tomonidan sa'y-harakatni talab qiladi va shuning uchun unga kuchliroq ta'sir qiladi".

Biz o'rganayotgan ishlarda paradoksni ro'yobga chiqarish tabiatini aniqlaydigan aldangan kutish effektidan tashqari, bashoratchilikka hissa qo'shuvchi elementlarni to'plash yo'li bilan yaratuvchi kuchaytirilgan kutish tushunchasi uchraydi. "Aldangan kutish – umuman boshqa elementni kutishni kuchayishi fonida past bashoratchilik elementining paydo bo'lishi". Paradoksda ushbu hodisa doimo ishtirok etadi, chunki til paradoksining o'ziga xosligi kontrast va o'xshashlikning bir vaqtning o'zida amalga oshirilish hisoblanadi.

Paradoksni idrok etishda aldangan kutish effektining yuzaga kelishini tushuntiruvchi mexanizmlar orasida, bog'lanish tushunchasi uchraydi, uni "ekvivalent elementlarni ekvivalent pozitsiyalarga joylashtirish, u tufayli butun yagona struktura shaklida shakllanadi" deb ta'riflanadi. Bog'lanish "Asosan formal –grammatik va leksik vositalar yordamida faktlari chiziqchi-izchil birlashtirishdan iborat bo'lgan bir yopiq butun lingvistik hodisaning strukturaliy mohiyat"ni aks ettiradi. Bog'lanish qarama-qarshi tendensiya sifatida paradoksda aldangan kutish effektini pasaytiradi.

Aldangan kutish effekti hodisasi va kuchaytirilgan kutish hodisasi paradoksni idrok etish jarayonida muhim vazifani bajaradi va o'z tabiatiga ko'ra lingvistik fenomen emas, balki psixolingvistik fenomen hisoblanadi.

Shunday qilib, paradoksni tushunish asosida assotsiativlik, kognitiv dissonans, aldangan kutish effekti va kuchaytirilgan kutish mexanizmlari yotadi.

II bob bo'yicha xulosalar

Til paradoksi va paradoksal matn tushunchalariga aniqlik kiritiladi, paradoks, ziddiyat va kontiradiktorlik tushunchalarining chegaralari belgilanadi.

1. Paradoksning mavjud sxemalari va badiiy matnning turli darajalarida paradokslarning mavjud sxemalarini o'rganish O.Uayldning paradoksal badiiy matnlari uchun sxemalarini aniqlash imkonini berdi.

2. Filologik germenevtika doirasida o'tkazilgan O.Uayldning paradoksal tarzda belgilangan badiiy matnlari bo'laklarining amaliy tahlili natijalari uchinchi bobda paradoksallikni badiiy matnda ma'nolarni tashkil etishning metavositasi sifatida ko'rib chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

3. Paradoks tili va tizimli fikrlash faoliyati sxemasining ma'lum sathida ma'nolarni aktuallashtirish orasida aloqa aniqlandi, paradoksal badiiy matnda refleksiyaning qayd etishning ketma – ketligining tayanch sxemalari aniqlandi.

4. Badiiy matnda paradoksni germenevtik detal sifatida amalga oshirish, qabul qiluvchini tushunish yo'lida, matnning paradoksal berilgan vaziyatda refleksiyaning uyg'otish va yo'naltirishdan iborat. Mos ravishda badiiy matndagi paradoks funksiyasini, matnni tushunishga olib keluvchi germenevtik aktning muvaffaqiyatli kechishi va hosil bo'lishini ta'minlovchi sifatida aniqlandi.

5. Hozirgi kunda paradoks yaratishning lingvistik vositalari tavsiflandi. Tilning strukturaviy darajalariga nisbatan paradoksni yaratish uchun til vositalarining bir nechta guruhlari mavjud bo'lib, ular yetarlicha to'liq o'rganilgani aniqlandi. Shuningdek, paradokslarni yaratishda til vositalari quyidagi guruhlarga ajratilganligi dalillandi.

I. Grafik darajadagi paradokslarni yaratish vositalari guruhi.

II.Fonologik darajadagi paradoks yaratish uchun vositalar guruhi.

III.Morfologik darajada paradokslarni yaratish vositalari guruhi.

IV.Leksik darajada paradoks yaratish vositalari guruhi.

V.Sintaktik darajada paradoksni yaratishning vositalar guruhi.

6.Paradoksni tushunishning asosiy mexanizmlari batafsil yoritildi.

Paradoksni tushunishning asosida kognitiv dissonans yotishi, ichki birlikka ega tushunchalarni birlashtirishi misollar yordamida dalillandi. Bunda paradoksning kontradiktor assotsiativ tabiati nafaqat kognitiv dissonans mexanizmida, balki paradoks tabiatida yotgan va uning tavsifi hisoblangan assotsiativ mexanizmga asoslanishi aniqlandi. Paradoksni til vositasi sifatida tanlash, paradoksallikning intensiyasini amalga oshirishda har bir alohida holatida u yoki bu kontekstli parametrlarining dolzarbligi aniqlandi. Agarda muallif paradoksal assotsiativ bog‘lanishlarni ifodalash uchun shaklini aniqroq topsa, shunchalik ma’no tashkil etishning funksiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirishi dalillandi.

III BOB. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA PARADOKSLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

3.1.§. Lingvomadaniyatshunoslik – til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi fan sifatida

Zamonaviy tilshunoslikda tilni inson madaniyatini talqin qilishning mahsuldor usuli sifatida o‘rganishga ehtiyoj mavjud. Sababi, til- inson tafakkuri tizimi va ruhiyati tabiatning kaliti sanaladi, u millat xususiyatlarini ko‘rsatishga xizmat qiladi. L.T.Yelmslev fikriga ko‘ra til “qanday qilib shaxsiyat uslubini, shuningdek, o‘tmishda yuz bergan hayotiy voqealarni tushunishga yo‘l ocha oladi”⁶⁴. Shuni ham ta’kidlash lozimki, tilshunoslikka hozirgi zamon fanining barcha asosiy turlari bilan bog‘liqligi uchun unga ko‘p qirrali fan sifatida qaraladi.

XX asr tilshunosligida bir qator ahamiyat berilishi lozim bo‘lgan jihatlar ham mavjud. A.Primov⁶⁵ o‘z asarida bu haqida shunday deydi:

1. Tilshunoslik har doim boshqa, xoh tabiiy, xoh ijtimoiy fanlar bilan bajonidil aloqaga kirisha oladi. Biologiya, sotsiologiya, psixologiya bilan lingvistikaning yaqindan aloqasi bois biolingvistika (bu yo‘nalish o‘zbek tilshunosligida hozircha shakllangan emas), sotsiolingvistika, psixolingvistika tarkib topdi. 60-yillardan e’tiboran injener lingvistikasi, keyinroq matematik lingvistika, buning zamirida esa kompyuter lingvistikasi vujudga keldi. Bunday aloqalar natijasi o‘laroq tilshunoslikka oid tadqiqotlarda turli tuman tushunchalarni ifodalovchi terminlar shakllandi. Shunga qaramasdan, tilshunoslikda uning predmetiga mos xususiyatlargina saqlanib qolaverdi, mos tushmaydiganlari o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib ketadi yoxud sof lingvistik mazmun bilan qanoatlandi.

2. Kiritilayotgan tushuncha uchun aniq ta’rifning yo‘qligi uning samarali qo‘llanilishiga to’sqinlik qila olmadi, “lisoniy bilish”, “lisoniy qiyofa”, “borliqning lisoniy tasviri”, “diskurs”, “konsept” singari terminlar mohiyati qator izlanishlar negizida aniqlashtirib borildi.

⁶⁴Ельмслев Л.Т. Прологомены к теории языка. –М.: КомКнига, 2006. – 248 с.

⁶⁵Примов А.И. Тилшуносликнинг долзарб муаммолари. Адабиёт учкунлари нашриёти. –Т.:2019, 9-бет.

3. Tilshunoslikda L.T.Yelmslevning glossematika nazariyasidan boshqa biron bir lingvistik loyiha va lingvistik ta'limot o'zining mantiqiy poyoniga erishmadi, amalda mujassam bo'lmadi. Shunday qilib, lingvistika uchun mustaqil maqomining tabiiyligi va aksincha, boshqa fanlarning ta'siri sezilarli bo'lsa-da, ammo o'ziga xos xususiyatiga ega ekanligi namoyon bo'ldi.⁶⁶ Shu boisdan bugungi kunda tilshunoslik prizmasida olib borilayotgan lisoniy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

“Tilning mohiyatini o'rganish har bir millatning ma'naviy merosi, tarixi, milliy qadriyatlari, madaniy boyliklarini chuqurroq anglab yetishga imkon yaratib beradi. Til va madaniyat o'rtasidagi aloqa, milliy mentalitetni anglash tilning mohiyati va uning kommunikativ funksiyasini chuqur va ilmiy o'rganib, tahlil qilishga zarurat yaratib berdi. Xalqlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va o'zaro madaniy aloqalar ham jadallik bilan rivojlanmoqda. Shuningdek, bu aloqalarni shakllantirib, mustahkamlash maqsadida yangi tillarni o'rganish va ishlatish ham kengayib bormoqda. Yangi tilni o'rganish sizga o'sha millatning madaniyatini o'rganishingizga va kerak bo'lsa his qilishingizga imkon beradi. Shu ma'noda, til va madaniyat o'rtasidagi aloqani o'rganish dolzarb masala bo'lib qoldi. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator masalalarni o'z ichiga olgan, alohida yo'nalish va predmetni o'z ichiga olgan yangi soha –lingvomadaniyatshunoslikning yuzaga kelishiga asos bo'ldi”⁶⁷.

“XX asrning 90 – yillarida tilshunoslik bilan madaniyatshunoslik orasida yangi fan sohasi, lingvomadaniyatshunoslik (lingvokulturologiya) paydo bo'ldi. U tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida tan olindi. Agar madaniyatshunoslik insonning tabiat, jamiyat, san'at, tarix va boshqa ijtimoiy va madaniy borliq

⁶⁶ Ельмслев Л.Т. Метод структурного анализа в лингвистике, в кн. 4, М., 1965. - С. 35.

⁶⁷Худойкулов.В Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий хусусиятлари (италиян тилидаги иборалар мисолида).Oriental Renaissance:Innovative, educational, natural nad social sciences. Volume1/ISSUE 11. ISSN 2181-1784

sohalarida o‘z-o‘zini anglash xususiyatini o‘rgansa, tilshunoslik tilda olamning lisoniy manzarasining mental modellari sifatida aks etuvchi dunyoqarashini o‘rganadi. Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tadqiqot predmeti esa doimiy o‘zaro ta’sirlashish holatida bo‘lgan til va madaniyat hisoblanadi”⁶⁸. Lingvomadaniyatshunoslikning vazifalariga til va madaniyatning o‘zaro munosabatlarini o‘rganish, til va etnos, til va xalq mentalitetini tasvirlash kiradi.⁶⁹ Lingvomadaniyatshunoslikning kategorik apparatining asosini tushunchalar, lisoniy shaxsiyat va konsept, shuningdek, hali o‘z yakunini topa olmagan epistemologik shakllanish tashkil qiladi.

“Lingvomadaniyatshunoslik (lotin tilidan: *lingua* - til, *cultur* - madaniyat, *logos* - fan, ta’limot) - tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesimida paydo bo‘lgan zamonaviy rivojlanayotgan fandır. U tilni millat mentalitetini ifoda etuvchi madaniy hodisa sifatida o‘rganadi. Boshqacha qilib aytganda, xalqning madaniyati uning tilida aks etadi”⁷⁰.

Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslikda yangi sohalardan bo‘lmish kommunikativ tilshunoslik va matn lingvistikasi, matnni o‘rganishdagi antropotsentrik yondashuv, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvoo‘lkashunoslik, etnolingvistika kabi sohalariga oid masalalarni tahlil qilish yo‘nalishidagi tadqiqot ishlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

“Lingvomadaniyatshunoslik – “til va madaniyat” ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligi, bu bog‘liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Bir tomondan lingvomadaniyatshunoslikning

⁶⁸ Шайхисламов Нурсултон Замон ўғли «Лингвокультурологиянинг фанлар системасидаги мақоми ва унинг этнолингвистика, сотиолингвистика ва этнопсихоллингвистика билан боғлиқлиги». Мақола.2020

⁶⁹Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М., 1996-С.94-97,216-135.

⁷⁰ Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. Пособие. – М.: Академия, 2001-208с.

insoniyatning madaniy til faktoridagi o‘rni, boshqa tomondan esa, til faktoridagi insonning o‘rnini o‘rganadi. Lingvomadaniyatshunoslikning o‘rganish obektiga ko‘ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o‘rganish obektiga bo‘lgan yondashuviga ko‘ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo‘lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog‘liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spesifik qoidalarni o‘rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o‘ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug‘ullanadi”⁷¹.

G.G.Slishkinning ta’kidlashicha, “lingvomadaniyatshunoslik inson omiliga, aniqrog‘i, insondagi madaniyat omiliga yo‘naltirilgan. Lingvomadaniyatshunoslikning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo‘lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmasiga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi”⁷². Darhaqiqat, ushbu tilshunoslik sohasining diqqat markazi til va madaniyatni tadqiq etishga yo‘naltirilgandir.

“N.Alefirenko lingvomadaniyatshunoslikni quyidagicha tavsiflaydi: Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, u sintezlovchi xususiyatga ega;

- lingvomadaniyatshunoslikning asosiy e’tibori tilda izohlanadigan madaniy dalillarga qaratiladi;

- lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslik fanlariga kiradi, shuning uchun uning tadqiqot natijalaridan ona tili va chet tillari o‘qitish jarayonida amaliy foydalanish mumkin;

- lingvomadaniyatshunoslik tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishlari

- a) lisoniy shaxs;

⁷¹ Амонова М. О «Лингвомаданиятшunoslikning фанининг тарихий ва назарий негизлари». Мақола

⁷²Слышкин Г.Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. –М.: Издательский центр «Академия», 2000.

b) til madaniy qadriyatlarning semiotik gavdalantirish tizimi hisoblanadi”⁷³.

Bizningcha, lingvomadaniyatshunoslik – tilshunoslikdagi mustaqil sohalardan biri bo‘lib, ushbu doiradagi qolgan yo‘nalishlarga nisbatan yangi yo‘nalishdir. Lingvomadaniyatshunoslikning o‘rganish obyekti til va madaniyatdir, ya’ni hozirgi kunda tilshunoslik doirasida keng ommalashayotgan ushbu soha madaniyatni tilda qay tarzda ifodalanishi haqidagi bilimlar majmuasidir.

Lingvomadaniyatshunoslik XX asr oxirida lingvistikada antropologik paradigmalar mahsuli sifatida maydonga kelganki, uning boshlanishi, asosan, V. fon Gumboldt nomi bilan bog‘liq.

Lingvomadaniyatshunoslik sohasiga bag‘ishlangan ishlarni kuzatish natijalari asnosida aytish mumkinki, XX asr oxirlariga kelib Rossiyada (Moskvada) to‘rtta lingvomadaniyatshunoslik maktablari shakllandi, bular quyidagilar:

1. Akademik Y.S.Stepanov asos solgan lingvomadaniyatshunoslik maktabi. Metodologik jihatdan bu maktab fransuz tilshunosi E.Benvenist konseptiga yaqin turadi. Uning maqsadi –madaniyat birliklarini diaxronik aspektda tavsiflash. Ularning mohiyati turli davrlarga mansub matnlar yordamida, ya’ni faol til sohibi emas, balki boshqa, xolis kuzatuvchi tomonidan tekshiriladi. Lingvomadaniy yo‘nalishining taraqqiyotida Y.S.Stepanovning bir necha marta nashr etilgan kitobi katta rol o‘ynadi.

2.N.D.Arutyunova rahbarligidagi lingvomadaniyatshunoslik maktabi bo‘lib, bu maktab vakillari qadimgi turli davrlarda bitilgan matnlardan olingan universal tushuncha va terminlarni tadqiq qiladi. Bu atamalar ham real til sohiblari emas, balki tashqi kuzatuvchilar tomonidan tekshiriladi, tadqiq qilinadi. Dunyoqarashni ifodalovchi tushunchalar shaxsga va jamiyatga tegishli, milliy o‘ziga xos va umuminsoniy bo‘lishi mumkin. Ular tafakkurning turli kontekstlari, ya’ni badiiy va ilmiy tiplarida mavjud. Xuddi shunday tushunchalarni madaniyatshunoslar, din tarixchilari, antropologlar, faylasuflar va sotsiologlar tomonidan o‘rganishni taqozo etadi.

⁷³Алефиренко Н.Ф. Лингвокультуроология. Ценностносмысловое пространство языка. Учебное пособие. – М.: Флинта, Наука, 2010. –С. 21.

3. V.N.Teliya asos solgan lingvomadaniyatshunoslik maktabi. U Rossiya va xorijda frazeologizmlarni lingvomadaniy tahlil qiluvchi Moskva maktabi nomi bilan tanilgan. Til mohiyatini jonli til egalarining refleksiya nuqtayi nazaridan, ya'ni madaniy semantikani bevosita til va madaniyat subyekti orqali o'rganadi. Bunday konsept A.Vejbiskayaning so'zlovchining nutqiy mental holati imitatsiya haqidagi pozitsiyasiga yaqin turadi.

4. Rossiya Xalqlar do'stligi universitetida V.V.Vorobev, V.M.Shaklein va boshqalar tomonidan yaratilgan lingvomadaniyatshunoslik maktabi. Bu maktab vakillari E.M.Vereshchagin, Kostomarovlar konseptini rivojlantiradi. Bu yo'nalish ekvivalenti bo'lmagan til birliklari –muayyan madaniyatgagina xos, spesifik, kumulativ (to'plovchi, til egalarining tajribasini mustahkamlovchi) funksiyali, so'zlovchining ongida bor so'zlarni o'rganadi. Tillar o'rtasidagi farq madaniyatlar o'rtasidagi farqqa bog'liq, ular leksik birliklar va frazeologizmlar materialida yaqqol ko'rinadi, chunki tilning nominativ vositalari ko'proq g'ayrilisoniy voqelik bilan bog'liq⁷⁴.

Head-bosh komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish V.N.Teliya ilmiy nashrlariga tayanishni talab etadi. Boisi, olim frazeologik birliklar borasida va ularning lingvomadaniy xossalarini keltirib chiqarishda ahamiyatga molik nazariyalar taqdim etgan.

Xorij tilshunoslariga qo'shimcha ravishda bir qator o'zbek olimlari ham lingvomadaniyatshunoslik xususida so'z yuritganlar. O'zbek tilshunosligida ushbu soha rivoji so'nggi o'n yillikni o'z ichiga oladi. Qisqa davr bo'lishiga qaramay bu sohaga xos bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, o'zbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvomadaniy yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", "O'xshatishlar-obrazli tafakkur mahsuli", N.Saidrahimovanning "Lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar", "Lingvomadaniyatshunoslikning komponentlari" nomli

⁷⁴ Маматов А.Э. Замонавий лингвистика. Ношир, 2019 –Б. 26-27

maqolalarini, D.Xudoyberganovning “Matnning antropotsentrik tadqiqi” mavzusidagi monografiyasi, “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”ni belgilash mumkin⁷⁵.

Z.I.Soliyevaning nomzodlik ishi o‘zbek va fransuz tillaridagi sentensiya, ya’ni axloqiy-ta’limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.⁷⁶ Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasida lingvomadaniyatshunoslik, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o‘zbek tilshunosligida lingvomadaniyatshunoslik haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin.

Maqolada lingvomadaniyatshunoslik nazariyasining shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo‘lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvomadaniyatshunoslikdagi madaniyatning ma’nosi “aqliy-ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmuyi (madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati)” demakdir. Shunday bo‘lgach, nutq madaniyatining o‘rganish muammolari boshqa, lingvomadaniyatshunoslikning o‘rganish obyektini tamoman boshqadir”.

Lingvomadaniyatshunoslik sohasida keng ko‘lamda tadqiqotlar olib borgan V.A. Maslova ushbu sohaning rivojini uch bosqichga ajratadi:

⁷⁵ N.Mahmudov, D.Xudoyberganova. “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” T. “Ma’naviyat” 2013.

1) Fan shakllanishiga turtki bo‘lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.Fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir) kabi tilshunoslarning ishlari;

2) Lingvomadaniyatshunoslikning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) Lingvomadaniyatshunoslikning rivojlanish bosqichi⁷⁷.

Keltirilgan davrlar mobaynida sohaga xos misli ko‘rilmagan tadqiqotlar olib borildi, natijada esa bir qator bahsga sabab bo‘luvchi munozaralar o‘z ilmiy asosi va tasdig‘ini topdi.

XXI asr boshiga kelib lingvomadaniyatshunoslik dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Lingvomadaniyatshunoslik tilni madaniy fenomen sifatida o‘rganuvchi fan bo‘lib, o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi.

Jumladan, V.N.Teliya bu haqida shunday yozadi: “lingvomadaniyatshunoslik inson omiliga, aniqrog‘i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvomadaniyatshunoslik markazi madaniyat fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik paradigmmaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir”⁷⁸. V.V.Vorobev “lingvomadaniyatshunoslik – sintezlovchi toifadagi kompleks ilm sohasi bo‘lib, u madaniyat va til o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va ta’sirlashuvlarni o‘rganadi. Bu jarayonni yagona lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmunga ega birliklarning yaxlit tarkibi sifatida mazkur jarayonni zamonaviy nufuzli madaniy ustuvorliklarga (umuminsoniy me’yorlar va qadriyatlar) qaratilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiradi”⁷⁹, –deb ko‘rsatadi.

G.G.Slishkinning fikriga ko‘ra, “lingvomadaniyatshunoslik inson omiliga, aniqrog‘i, insondagi madaniyat omiliga yo‘naltirilgan. Lingvomadaniyatshunoslik markazining madaniyat fenomenidan iborat bo‘lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi”⁸⁰.

⁷⁷ Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. Пособие. – М.: Академия, 2001-208с.

⁷⁸ Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.: Школа «Языки русской культуры», 1196- С.222.

⁷⁹ Воробев В.В. Лингвокультурология. Теория и методы. –М., 1997.

⁸⁰ Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. – М.: Академия, 2000. – С. 128.

Lingvomadaniyatshunoslikning o'rganish obyekti haqidagi fikrlar borasida bir to'xtanga kelingan bo'lsa-da, ayrim munozarali qarashlar ham yo'q emas. Masalan, V.N.Teliyaning fikriga ko'ra, lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o'rganadi. V.A.Maslova esa bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o'rganadi, deb hisoblaydi. Shuningdek, V.N.Teliya lingvomadaniyatshunoslik obyekti umuminsoniy xarakterga ega bo'lishini ta'kidlasa, V.A.Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvomadaniy xususiyatlari alohida o'rganilishi lozim ekanligini ta'kidlaydi⁸¹.

Tilshunos A.E.Mamatov lingvomadaniy problematikaning murakkabligiga ko'ra, jamiyatda til va madaniyatning har tomonlama foydalanilishi va vaqt o'tgani sayin rivojlanishi sabab bo'ladi, degan fikrni bildirib quyidagilarni yozadi:

Birinchidan, til va madaniyat o'zida umuminsoniy kategoriyalarni ifodalaydi, ya'ni til va madaniyat insoniyatning spesifik sifati tarzida;

Ikkinchidan, ular individga nisbatan o'ziga xos munosabatga ega (madaniyat va til insonning jamiyatda mavjud bo'lish usuli sifatida);

Uchinchidan, bu kategoriyalar etnos bilan bog'liq (madaniyat va til etnosning spesifik sifati);

To'rtinchidan, til va madaniyatning o'zaro ta'sir spesifikasi ularning turli ijtimoiy guruhlarga munosabatida namoyon bo'ladi (til va madaniyat ijtimoiy-guruhiy tasavvur va qadriyatlarning ifoda vositasi sifatida)⁸².

Hozirgi vaqtda lingvomadaniyatshunoslik jahon, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e'tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi⁸³. Mazkur o'quv qo'llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, obyekti va predmeti, yo'nalishlari yoritib berilgan, muayyan til birligini lingvomadaniy tahlil qilish namunalari ko'rsatilgan⁸⁴.

⁸¹ Бу ҳақда қаранг: Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение: Учебное пособие. – М.: Флинта, 2011. – 176 с.

⁸² Маматов А.Э.Замонавий лингвистика.Ношир, 2019. –Б.-8.

⁸³ Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.

⁸⁴ Maslova V.A. Ko'rsatilgan o'quv qo'llanma.

Lingvomadaniy tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalar tadqiq etilganini ko‘rish mumkin:

1) muayyan nutqiy janrning lingvomadaniy xususiyatlari. Bunda ko‘pincha miflar, xalq og‘zaki ijodiga xos janrlar tili tahlil etilgan;

2) muayyan uslubda yozilgan asarda lingvomadaniy konsept ifodalanishi tadqiqi. Bunda, asosan, badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan;

3) qiyosiy aspektdagi ishlar. Bunda, asosan, rus tilidagi lingvomadaniy birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan;

4) lingvomadaniyatshunoslikning pedagogika fani bilan bog‘liq jihatlari. Bunda talabalarda lingvomadaniy birliklarni aniqlash va tahlil etish malakasini hosil qilish asosiy maqsad qilib olingan.

Til va madaniyat bir-birini to‘ldiruvchi va birgalikda ravnaq topuvchi hodisalardir. Tilni madaniyatsiz madaniyatni esa tilsiz tasavvur etish mushkuldir. Bir tilni o‘rganmoqchi bo‘lgan inson o‘z-o‘zidan madaniyatini ham o‘rganadi yoki aksincha. Aytish mumkinki, til va madaniyat birga singadi, shu boisdan ham tilshunoslik doirasida yangi lingvomadaniyatshunoslik sohasi vujudga kelgan. Lingvomadaniyatshunoslik o‘zining lingvomadaniy tahlillari hamda til va madaniyatni birgalikda lisoniy voqelanishini o‘rganishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

3.2.§. Til birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamini idrok etishdagi o‘ziga xos jihat va xususiyatlarning tilda aks etishini o‘rganish lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishining asosiy maqsadlaridan biridir. Mazkur sohaning obykti o‘zaro munosabatdagi til va madaniyat bo‘lib, predmeti esa o‘zida madaniy ma’no va mazmuni ifoda etuvchi til birliklari hisoblanadi. Ma’lumki, “lingvomadaniyatshunoslikda madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi. Bunday til birliklari **lingvomadaniy birliklar** termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy

birliklar sanaladi”⁸⁵. Keltirilgan bayonlarga qo‘shimcha ravishda, tilshunoslik doirasida olib borilayotgan keng ko‘lamli tadqiqotlar samarasi sifatida til birliklarining soni ortib bormoqda. Misol uchun, leksema (til qurilishining leksik ma‘no anglatuvchi lug‘aviy birligi)⁸⁶, frazema (ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma‘noviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma‘noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan turg‘un bog‘lanmalarning umumiy nomi)⁸⁷, frazeoema, stilema⁸⁸, tekstema va diskursema shular jumlasidandir.

Lingvomadaniyatshunoslikda LVaysgerber tomonidan tilshunoslikka olib kirilgan olamning lisoniy manzarasi tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Olamning lisoniy manzarasi voqelikni idrok etishning tilda muhrlangan va muayyan lisoniy jamoa uchun xos bo‘lgan tuzilishi, olamni idrok etish va konseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usulidir⁸⁹. Qo‘shimcha ravishda, olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmuyi bo‘lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo‘lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvomadaniyatshunoslikning asosiy vazifalari hisoblanadi⁹⁰.

Til va madaniyatni lisoniy hodisa sifatida tadqiq etuvchi lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslikda o‘ziga xos lingvomadaniy tahlillari va xususiyatlari bilan muhim ahamiyat kasb etadiki, bu kabi xususiyatlar, asosan, lingvomadaniy va til birliklarida namoyon bo‘ladi. Mavjud til birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari xususida so‘z ketganda, avvalo, nutqning jozibadorligi va majoziylikni oshiruvchi va tadqiqotimiz yo‘naltirilgan frazeologik

⁸⁵ Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. –М.: Флинта: Наука, 2013. –Б.243

⁸⁶ Qomus.Info. Онлайн Энциклопедия.

⁸⁷ Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари, Т., 1966.

⁸⁸ Усаров И.К. Проблемы общей стилистики сложных предложений (на материале асиндетона, полисиндетона, антитезы и хиазма) Автореф. дисс. канд. наук. Ташкент, 2004. 25 стр.

⁸⁹ Қаранг: Махмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – №3. –Б. 3-12.

⁹⁰ Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. –М.: Флинта: Наука, 2013. –Б.243

birliklarning lingvomadaniyatshunoslik jihatidan ajralib turuvchi belgilariga to‘xtalib o‘tishimiz joizdir.

“Frazeologik birliklar xalqlarning madaniyati va milliy mentalitet haqidagi ma’lumotlarni ifodalaydigan til birliklari hisoblanadi. Frazeologik iboralar orqali xalqning milliy mentaliteti, millatning etnomadaniyati haqida kerakli ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin. Umuman olganda, frazeologiya millatning yashash tarzi, madaniyati, milliy an’analari va bilimining yorqin ifodasi demakdir. Frazeologik birliklar millatning madaniyatini ko‘rsatadigan ma’lumotlar manbayi va muayyan lingvomadaniyatni ifodalaydigan yorqin til birligi”⁹¹.

“Frazeologik birliklar aynan madaniyat haqidagi axborotni, milliy mentallikni ifodalaydigan til birligidir. Frazeologik ma’noning madaniy ma’no komponenti baho munosabatni anglatishi bilan birga u yoki bu millatning milliy mentaliteti, etnomadaniyati to‘g‘risida ma’lumot beradi. Umuman, frazeologizmlar u yoki bu xalqning hayot tarzi, madaniyati, ma’rifati, milliy mentalitetining yorqin ifodasidir. Frazeologik birliklar u yoki bu xalqning madaniyati haqida ma’lumot beruvchi manba hamda milliy-madaniy lingvokulturemani ifoda etuvchi birlik sanaladi. Frazeologik birliklarning birlamchi ma’nolari deyarli yo‘qoladi yoki interpretatsiya, ya’ni talqin qilinadi. Shu ma’noda, frazeologizmlar ikkilamchi til hodisasi deb qaraladi. Ayrim olimlar frazeologizmlarni semantik hodisa deb qaraydi. Shunga qaramasdan frazeologizmlarning so‘z – komponentlari o‘z ma’nolarini saqlashi va lingvomadaniy ma’no foni saqlangan holda anglashiladi”⁹².

Ta’kidlash joizki, zamonaviy tilshunoslik rivoji va taraqqiyotida frazeologiyaning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Bir qator tilshunos olimlar tomonidan qayd etilganidek, tilning frazeologiyalarga boyligi har bir xalqning milliy-madaniy o‘ziga xosligini ifodalaydigan vosita bo‘lib xizmat qiladi. Chunki mohiyatan, bunday til birliklari shu til foydalanuvchilarining milliy madaniyatini aks ettiradi. Shu sababdan ham

⁹¹ В. Худойкулов. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий хусусиятлари (италиян тилидаги иборалар мисолида). *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural nad social sciences*. Volume1/ISSUE 11. ISSN 2181-1784

⁹² Анисимова З.Н. Фразеологические единицы типа «прилагательное + существительное» в современном английском языке /с приложением словаря фразеологических единиц/. Дисс. канд. филол. наук. М., 1954. –С. 428

bugungi ko'pgina tilshunoslar frazeologik birliklarni o'rganishga alohida e'tibor berib kelishmoqda⁹³.

Misol tariqasida keltirib o'tish o'rinliki, V.N.Teliya "semantik tuzilishiga ko'ra frazeologik birliklar xalqning davomiy rivojlanish jarayonini ifodalaydi, madaniy qoldiqlar, standartlar, timsollarni avloddan avlodga olib uzatadi, muhrlaydi va yozib qo'yadi"⁹⁴ va "tilning frazeologik tarkibi-oynadir. Unda milliy-madaniy umumiylik o'z aksini topadi, milliy o'zlikni anglash namoyon bo'ladi. Aynan frazeologizmlar til vakillariga olamni idrok qilishga va anglashga undaydi"⁹⁵ degan fikrlarni olg'a surgan. Frazeolog olimlardan biri N.M.Shanskiy "frazeologiya insonning til faoliyatidagi o'zligini ifodalovchi, murakkab va komplikativ voqelikdir"⁹⁶ deb ta'rif beradi.

Shu ma'noda, frazeologizmlarni tadqiq qilish va tatbiq qilish jarayonida:

1) ko'pgina iboralarning umumiy ma'nolari yoki ularning tarkibidagi so'zlarning ma'nolari xalq ruhi, uning madaniyat izlarini o'z ichiga oladi va ular aniqlanib o'rganiladi;

2) frazeologik birliklarning semantik tuzilishida milliy-madaniy ma'lumotlar saqlangan va u insonlarning dunyo haqidagi tasavvurlarini ifodalaydi;

3) frazeologizmlarning milliy-madaniy o'rganish jarayonida konnotativ xususiyatlari namoyon bo'ladi. Lingvistika va lingvomadaniyatshunoslikda muqobilsiz leksikon termini keng tarzda ishlatiladi.

Muqobilsiz leksikonlar boshqa tilga tarjima ham qilinmaydi va ularni tildagi boshqa konseptlar bilan taqqoslab ham bo'lmaydi. Bunday leksemalarning mohiyati faqatgina o'sha xalqqa tegishli bo'lgan milliy obyektlar, an'analar, milliy

⁹³ N.Mahmudov, D.Xudoyberganova. "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati" T. "Ma'naviyat" 2013.

⁹⁴ Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.: Школа «Языки русской культуры», 1196- С.222.

⁹⁵ Телия В.Н. Первоочередные задачи и методические проблемы исследования фразеологического состава в контексте культуры // Фразеология в контексте культуры. — М., 1999. С. 13-24.

⁹⁶ Шанский, Н. М. Фразеология современного русского языка [Текст] / Н. М. Шанский. 4-е изд., испр, и доп. - СПб.: Специальная литература, 1996. -С.192

kiyimlar, milliy oshxona bilan bog‘liq. Masalan, ingliz tilidagi: door hammer - eshik taqillatuvchi moslama inglizlarning yashash tarzini ko‘rsatadi⁹⁷.

Boshqa til birliklaridan farqli o‘laroq frazeologik birliklarda xalqning madaniyati aniq va tezroq namoyon bo‘ladi. Boisi, frazeologik birliklar xalqning yashash tarzi, qo‘llaydigan birliklari va urf-odatlarini natijasida yuzaga keladi.

“Frazeologik birliklarning shakllanishi va ma’no kasb etishida ekstralingvistik omillar, jumladan, tarix, milliy qadriyatlar, milliy-ma’naviy meroslar, urf-odatlar, hududning o‘ziga xosligi, voqeliklar, tarixiy jarayonlar va boshqa muhim omillar xizmat qiladi. Masalan, “tuyaning dumi yerga tekanda”, “oshig‘i olchi bo‘ldi” kabi frazeologizmlarning ma’no strukturasi signifikativ ma’nodan ko‘ra denotativ ma’no yuqori bo‘ladi. Ularning mazmun mohiyati til vakillari tomonidan milliy-madaniy qadriyatlaridan kelib chiqib, ularga xos bo‘lgan milliy qadriyatlar tizimi asosida shakllantiriladi”⁹⁸. Keltirib o‘tilgan ekstralingvistik omillardan tashqari frazeologik birliklarning o‘ziga xos shakllanish jarayoniga lisoniy, ya’ni tilning grammatik qonun-qoidalari kabi omillar ham bevosita ta’sir o‘tkazadi va ushbu omillar frazeologik birliklarni so‘z birikmalaridan ajratib turadi. Shunga qaramay, shakllanish davrida frazeologizmlar ham leksika kabi tilning ichki qonuniyatlari hisoblanmish fonetik, leksik-semantik, grammatik talablarga bo‘ysundiriladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining frazeologik tarkibi tarixiy –etimologik jihatdan turli yo‘llar bilan shakllangan. Shuning uchun ham frazeologik manbalar to‘g‘risida so‘z yuritilganda, ularning, birinchidan, o‘zbek voqeligi asosida shakllangan, ikkinchidan, qarindosh va noqarindosh tillardan o‘zlashtirish va kal’kalash yo‘li bilan kirib kelgan frazeologizmlar farqlanishini ta’kidlash lozim⁹⁹.

⁹⁷ В.Худойкулов. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий хусусиятлари (италиян тилидаги иборалар мисолида). Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural nad social sciences. Volume1/ISSUE 11. ISSN 2181-1784

⁹⁸ В.Худойкулов. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий хусусиятлари (италиян тилидаги иборалар мисолида). Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural nad social sciences. Volume1/ISSUE 11. ISSN 2181-1784

⁹⁹ Ўлдошев Б. Фразеологизмларнинг адабий тил нормасига муносабатига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1992, 3-4-сонлар, 35-бет.

O‘zbek voqeligi asosida shakllangan frazeologizmlar ilmiy adabiyotlarda **milliy xarakterli frazeologizmlar** atamasi bilan yuritiladi.¹⁰⁰ Bunday frazeologizmlar o‘zbek turmushidagi hayotiy voqelik va shu voqelikdan kelib chiquvchi obrazlardan iboratligi bilan xarakterlanadi. Frazeologizmlarning ko‘pchiligi asrlar davomida o‘zbek xalqining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy, madaniy hayoti, hayotiy kuzatishlari, jug‘rofiy joylashishi, o‘ziga xos tushunchalari asosida yuzaga keladi. Masalan, tilimizdagi “do‘ppisini osmonga otmoq” (juda xursand bo‘lmoq, quvonmoq) frazeologizmi o‘zbek xalqining milliy urf-odati bilan bog‘liq holda shakllangan. Ma’lumki, do‘ppi o‘zbek xalqining milliy bosh kiyimlaridan biri hisoblanadi. Shu milliylik asosida “do‘ppisini osmonga otmoq” frazeologizmi paydo bo‘lgan. Kishi quvonganda, biror-bir ijobiy voqea-hodisadan, xabardan xursand bo‘lganda beixtiyor do‘ppisini osmonga otish holatlari uchraydi. Shunday xursandchilik va quvonish ottenkasini obrazli ifodalash ehtiyoji asosida ushbu ibora paydo bo‘lgan. Do‘ppi leksemasi ishtirokida “do‘ppisini yerga qo‘yib o‘ylamoq”, “do‘ppining tagida odam bor”, “do‘ppisini yarimta qilib”, “do‘ppisi tor kelmoq”, “do‘ppisi chakkada”, “do‘ppisi chambarak” kabi bir qator frazeologizmlar ham shakllangan¹⁰¹.

“Frazeologizm til birligi sifatida murakkabligi, uning ma’nan yaxlitligi bilan alohida shakllangan shakli o‘rtasidagi ziddiyat, nomunosiblik, iboradagi dolzarb va etimologik ma’nolar nomuvofiqligi ularni nutq jarayonida qo‘llanishini qiyinlashtiradi”¹⁰². Demak, frazeologizmlarning shakllanishi turli yo‘llar bilan amalga oshadi. Til egalari u yoki bu harakat va holatni ifodalash maqsadida kishilar xarakteriga o‘xshash narsalarni ko‘chirish asosida obrazli iboralarni shakllantiradilar. Tilimizdagi “itdan (bir) suyak qarz (bo‘lib yashamoq)”, “kambag‘alni tuyaning ustida (ham) it qopadi” frazeologizmlari ham davrning, hayotning mahsulidir.

¹⁰⁰ Назарян А.Г. Фразаология современного французского языка, С. 33-36; Молотков А.М. Основы фразеологии русского языка, С. 217-218.

¹⁰¹ В. Худойкулов. Фразаологик бирликларнинг лингвомаданий хусусиятлари (италиян тилидаги иборалар мисолида). Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural nad social sciences. Volume1/ISSUE 11. ISSN 2181-1784

¹⁰² Йўлдошев Б. Фразаологизмларнинг адабий тил нормасига муносабатига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1992, 3-4-сонлар, 38-бет.

Frazeologik birliklar xalq madaniyatini bevosita tilda aks ettirganligi tufayli lingvomadaniyatshunoslik fani uchun muhim birlik hisoblanadi va frazeologizmlar lingvomadaniy xususiyatlarni namoyon etuvchi til birliklari orasida birinchi o‘rinda turadi, desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Lingvomadaniyatshunoslikning matn bilan bog‘liq xususiyatlari borasida ham to‘xtalib o‘tish joizki, matn boshqa til birliklari singari nomi zikr etilayotgan ushbu sohaning o‘rganish obyektlaridan biridir. “Lingvokulturologiya” kitobining muallifi, V.A.Maslova bu borada quyidagicha ta’kidlaydi: “Matn tilshunoslik va madaniyatning haqiqiy kesishuv nuqtasidir. Zero, matn til hodisasi va uning oliy sathi hisoblanadi, shu bilan birga u madaniyat mavjudligining amal qilish shakli hamdir. Lingvomadaniyatshunoslik esa tilni madaniy qadriyatlar majmuasi sifatida tadqiq etadi”¹⁰³. Olima o‘xshatishlarning matn yaratilishidagi o‘rniga ham to‘xtalib, ular matnda struktur-kompozitsion vazifani bajarishi va matn kongerentligini ta’minlovchi vosita maqomida bo‘lishini aytadi¹⁰⁴. Keltirib o‘tilgan fikrlardan xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘xshatish va uning qisqargan shakli bo‘lgan metaforalar matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etishi bilan birga, til sohiblarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni ham namoyon etuvchi hodisa bo‘la oladi. O‘xshatish va metaforalar asosiga qurilgan matnlar muayyan tilda qoliplashgan matn shakllari (ularni matnning pretsedent shakllari tarzida ham baholash mumkin)ni aniqlash imkoniyatini ham beradi.

Lingvomadaniyatshunoslikning matn bilan bog‘liq yana bir hodisasi bu pretsedent matn masalasidir. Tadqiqotchi O.E.Artemovaning ta’biri bilan aytganda, pretsedent janrlar madaniy axborotning “akkumulyatori”dir¹⁰⁵. Ya’ni pretsedent matnlar xalq madaniyati, urf-odat va an’analarini o‘zida mujassamlaydi va ushbu mujassamlik til orqali namoyon bo‘ladi. Aynan shu sabab tufayli, bu ko‘rinishdagi matnlar lingvomadaniyatshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi. So‘zimizning isboti tariqasida keltirishimiz lozimki, “matn-o‘xshatishlar, matn-metaforalar hamda

¹⁰³ Maslova V.A. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – С. 5.

¹⁰⁴ Maslova V.A. Кўрсатилган асар. – С. 32.

¹⁰⁵ Артемова О.Е. Лингвокультурная специфика текстов прецедентного жанра «лимерик»: На материале английского языка: Дис... канд. филол. наук. – Уфа: БашГУ, 2004. – С. 24.

tarkibida pretsedent birliklar, etalonlar, nutqiy etiketlar mavjud bo‘lgan matnlarni o‘rganish muayyan etnosga xos bo‘lgan olamning lisoniy manzarasi ilmiy talqinini yaratishda eng muhim manba hisoblanadi”¹⁰⁶. Pretsedent birliklar til tizimini tadqiq etishning yetakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvomadaniyatshunoslikning asosiy o‘rganish obyektlaridan biri hisoblanadi. Mazkur birliklarga bag‘ishlangan tadqiqotlarda qayd etilishicha, pretsedent termini tilshunoslikda birinchi marta Y.N.Karaulov tomonidan qo‘llangan¹⁰⁷.

Pretsedent nomlarni tadqiq etish o‘zbek lingvomadaniyatiga xos jihatlarni yoritib berishda ham muhim o‘rin tutadi. Olimlarning qayd etishlaricha, quyidagilarni aniqlash bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi:

1. Pretsedent nomlarning qaysi lingvomadaniyatga mansubligi, uning sinxron holati masalasi. Ma’lumki, pretsedent nomlar milliy va universal turlarga bo‘linadi. Hozirgi vaqtda Ayyub, Afrosiyob, Alpomish, Bog‘i Eram, Boychibor, jomi Jam, Iskandar, Ka’ba, Kumush, Otabek, Layli, Majnun, Farhod, Shirin, Tohir, Zuhra, Odam Ato, Momo Havo, Masih, To‘maris, Shiroq, Amir Temur, Hotam, Humo, Usmon, Cho‘lpon kabi o‘zbek va Sharq lingvomadaniyatiga; Gamlet, Gerakl, Ikar, Kolumb, Otello, Yago, Buratino kabi G‘arb lingvomadaniyatiga oid nomlar faol qo‘llanmoqda. Xususan, Mustaqillik davrida ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash yo‘lidagi sa’y-harakatlar natijasi o‘laroq o‘zbek tilida To‘maris, Shiroq, Muqanna, Amir Temur, Jaloliddin (Jaloliddin Manguberdi), Boychibor, Humo, Cho‘lpon, Usmon (Usmon Nosir) kabi pretsedent nomlarning qo‘llanish darajasi ortdi. Bu, avvalo, o‘zbek xalqining milliy o‘zligini, istiqlolning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetish kabi ijtimoiy-psixologik omillar bilan izohlanadi. Hozirgi globallashuv davrida ommaviy axborot vositalari orqali sport, san’at, siyosat, madaniyatga oid bir qancha nomlar o‘zbeklar orasida ham mashhur bo‘ldiki, ularning nolisoniy omillari, xususan, o‘zbek lingvomadaniyatida tutgan o‘rni alohida yondashuvni taqozo etadi.

¹⁰⁶ А.Примов, Х.Қодирова.Тилшуносликнинг долзарб муаммолари. Ўқув-услубий қўлланма. ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, ал-Хоразмий номидаги Урганч давлат университети. Тошкент, “Адабиёт учкунлари” нашриёти, 2019.

¹⁰⁷ А. Примов, Х. Қодирова.Тилшуносликнинг долзарб муаммолари. Ўқув-услубий қўлланма.

2. Pretsedent nomlarning allyuziv nom vazifasida qo‘llanishi. Pretsedent nomlarning funksional turlaridan biri bo‘lgan allyuziv nomlarga nomlar badiiyatida uslubiy figura sifatida qaralsa, lingvomadaniyatshunoslikda ular ikki madaniy – semiotik maydonni o‘zaro tutashtiruvchi vosita sifatida e’tirof etiladi. Bunda quyidagi ikki jihat e’tiborga olinmog‘i lozim:

- a) allyuziv nomlarning adabiy faktga ishora qilishi;
- b) ularning turli ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qilishi.

Frazeologik birliklar singari pretsedent birliklar ham bevosita madaniyatni tilda aks ettirganligi tufayli lingvomadaniyatshunoslik tadqiqi yo‘naltirilgan obyektlardan biri ekanligining guvohi bo‘ldik. Pretsedent birliklar deb muayyan til sohiblariga yaxshi tanish bo‘lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so‘z birikmalari, jumalalar hamda matnlarga nisbatan aytiladi.

Qo‘shimcha ravishda, ushbu sohaning matn bilan bog‘liq yana bir masalasi sentensiyadir. Sentensiya axloqiy-ta’limiy xarakterdagi til birligi bo‘lib, o‘zida intertekstuallikni namoyon etadi¹⁰⁸.

Z.I.Saliyeva ingliz va o‘zbek tillaridagi sentensiyalarning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy aspektda o‘rganar ekan, muayyan xalq tarixida katta o‘rin tutgan mutafakkirlarning asarlarida bayon qilingan didaktik g‘oyalarning yozuvchi tomonidan o‘zgargan shaklda ifodalanishini intertekstuallikning bir ko‘rinishi sifatida baholaydi.

Keyingi davr tilshunosligida onomastik birliklarga turli aspektlarda yondashilmoqda. Ulardan biri lingvomadaniyatshunoslikdagi onomastik kod nazariyasi hisoblanadi. Bu qarashga ko‘ra nomlar, xususan, badiiy asardagi nomlar til birligi bo‘lishi bilan birga ikkilamchi semiotik tizim hisoblangan madaniyatning etnomadaniy axborot tashuvchi unsuri hamdir¹⁰⁹.

¹⁰⁸ Sentенция ҳақида қаранг: Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика предложения в английском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2010. – 25с.

¹⁰⁹ Салиева З.И. Кўрсатилган автореферат. – Б.14.

Til birliklari sirasiga mansub frazeologik birliklar, matn, pretsedent birliklar, onomastik kod va sentensiyalarning birlashtiruvchi belgilari ularning madaniy axborotni tashuvchi ekanligidir. Ularning har birining ma'lum vazifalari bo'lishiga qaramay lingvomadaniy xususiyatlarni namoyon etishi ahamiyatga molik masaladir.

Tilshunoslikda mushohada qilishning muhim jarayonlari, ya'ni konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish jarayonlari haqida tilshunos olimi Ye.S.Kubryakova shunday deydi: "Konseptuallashtirish jarayoni inson tajribasi – bilimlari tarkibi (majmuasi)ning mayda (kichik, minimal) mazmunder birliklarini ajratish (farqlash)ga qaratilgan bo'lsa, kategoriyalashtirish jarayoni o'xshash va ayniyat birliklarini bir-biridan farqlab, turlashtirib va xillashtirib, ularni nisbatan yirikroq bo'lgan turkumlarga, to'g'rirog'i kategoriyalarga birlashtirishga qaratilgandir"¹¹⁰. Bundan kelib chiqadiki, tilda so'zlovchi/yozuvchi obyektiv borliqni qay tarzda his qilishi, idrok etishi, ma'lum til egasi bo'lmish ayni etnosda olamning obyektiv (haqqoniy) manzarasining shakllanishidagi obyektiv va subyektiv omillar g'oyat muhim ahamiyatga ega, shuningdek, tilda muloqot olib boruvchi mazkur etnos mavjud obyektiv borliqni qanday til vositalari, ya'ni verbal vositalar orqali shu tilga xos til manzarasi orqali voqelantirilish usullari va lisoniy ifodalash texnikalarini o'rganish hamda tadqiq qilishi muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqotimizning mazkur fasli lingvomadaniyatshunoslikning konseptual apparatining asosiy atamasi bo'lgan "konsept"ga bag'ishlangan. Uning asosiy, keng qamrovli o'rganilishi olimlarning turli xil tadqiqot usullari yordamida tilning turli darajalari yoki qatorlarini tahlil qilishga murojaatlarini o'z ichiga oladi. Shubhasiz, muhim faktlar belgi shaklida qayd etiladigan va shunga ko'ra, insonning ma'naviy madaniyati, umuman olganda, bitta yoki boshqa jamiyatning qiymati, uning axloqiy va estetik afzalliklari, ma'lum bir lingvomadaniy hamjamiyat mentalitetiningo'ziga xos xususiyatlarini tasvirlovchi leksik-frazeologik darajasiga ustuvor ahamiyat beriladi.

¹¹⁰ Кубрякова Е.С. Размышления о судьбах когнитивной лингвистики на рубеже веков // Вопросы филологии. 2001. –С.63-75.

XX asrning birinchi yarmidan tilshunoslikdagi tadqiqotlarda konsept atamasi paydo bo‘lib, shu asrning 90-yillaridan keng qo‘llanila boshlandi. Atamaning kelib chiqishi lotincha bo‘lib, “conceptus” ya’ni “tushuncha” degan ma’noni anglatadi. Konseptning haqiqiy ma’nodagi mazmunini aniq shakllantirish masalasi borasidagi izlanishlar, asosan, uning tushuncha atamasi bilan aralashtirib yuborila boshlangach, amalga oshirildi. Qator lug‘atlarda, jumladan, lingvistik ensiklopedik lug‘atda konsept atamasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “konsept bu so‘z ma’nosi kabi tushuncha bo‘lib, faqat bog‘lanishlar nuqtayi nazaridan farqlanadi; ma’no-til tizimida; tilshunoslikda tushuncha ham mantiqda, ham tilshunoslikda tadqiq etiladigan mantiqiy munosabatlar va formalar tizimida bo‘ladi”¹¹¹.

Tabiiyki, lingvomadaniyatshunoslikning asosiy kategoriyasi sifatida “konsept” xizmat qiladi, vaholanki, u ko‘p qirrali aqliy idrokiy hodisadir. Konseptni bevosita tashkil etuvchi tushunchalar ham mavjud bo‘lib, ular uni tadqiq qilishning tushunchaviy, idrokiy, tasviriy-madaniy (kulturologik) va pragmatik qirralaridir. Y.S.Kubryakova mazkur holatga nisbatan shunday deydi: “konsept – mental tuzilma bo‘lib, u turli tarkibdagi va ko‘rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir”¹¹².

So‘zimizning boshida fandagi “konsept” tushunchasining tarixiy rivojlanishiga qisqacha to‘xtalib o‘tish kerak deb o‘yladik. Aslida, “konsept” atamasi tilshunoslar tomonidan matematik mantiqdan olingan. Undan atama sifatida foydalanish rus tilshunosligida 1928-yilda S.A.Askaldov tomonidan “Konsepti slovo” maqolasida birinchi bor foydalanilgan. Hozirgi kunda “konsept” tushunchasi tilshunoslikda keng tarqalgan. Atamaning kelib chiqishi lotin tilidagi fe’l “concipere” – “conceive”, ya’ni so‘zma so‘z tarjimada “olmoq, qabul qilmoq” degan ma’noni anglatadi. Bu atama rus tilida esa “ichmoq” ma’nosini, eski rus tilida esa “mulkni olmoq”, “tortib olmoq” degan ma’nolarni ifoda etgan. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, har ikki tilda fe’llardagi ma’no kelib chiqish

¹¹¹Лингвистический энциклопедический словарь. 1999.

¹¹²Кубрякова и др. Краткий словарь когнитивных терминов / Под ред. Е.С. Кубряковой, М., 1996.

yuzasidan bir-biriga bog‘liq, umumiy tushunchani ifodalaydi, ammo ularda to‘liq sinonimiyani hosil qilmaydi.

“Konsept” atamasi 90-yillarning boshidan beri “lingvistik uyg‘onish” davrini boshidan kechirmoqda. Ushbu atamaning kognitiv tilshunoslik, paradigma, lingvistik konseptualizm va lingvomadaniyatshunoslikda faol ishlatilmayotgan kognitiv “bog‘lanish”ning kategorik apparatlariga ehtiyoji, konseptga qo‘shimcha tarzda, uning ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilar haqidagi g‘oyalarni o‘z ichiga olgan tarkib ehtiyoji bilan tushuntiriladi.

Ta’kidlash joizki, konsept haqida, garchi Yevropa va rus tilshunosligida ma’lum darajada fikrlar bildirilib va izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunosligida bu tushuncha so‘nggi yillarda shakllandi.

“Konsept” sohasida tadqiqotchilar tomonidan qator izlanishlar olib borilib, turlicha talqin qilingan. Biz izlanishimizning ushbu faslida tadqiqotchilarning konsept borasida bildirilgan fikrlari xilma-xilligini keltirib o‘tamiz.

Tilshunos olim G.G.Slishkin konseptni “ mantiqiy kategoriya” sifatida ta’riflansa, Z.D.Popova esa uni “amaliy falsafa tushunchasi” deya talqin qiladi. Y.S.Kubryakova bo‘lsa “konsept” atamasini “mental leksikonning birligi”¹¹³ deya ta’riflaydi. Xususan, u o‘zining “Краткий словарь когнитивных терминов” nomli lug‘atida konsept atamasiga “konsept insonning bilim tajribasi xotiraning amaliy mazmunli birligi, mental leksikon, konseptual tizim va til, inson psixikasi (ruhiyati) da aks etgan olamning turli manzarasini bizning ongimizga singgan va informatsion tuzilishlardagi mental birliklar yoki psixik resurslarni tushuntirish uchun xizmat qiladi” deya ta’rif beradi. Konsept atamasi tushuncha atamasidan farq qiladi, ya’ni tushuncha – bu borliqdagi biror obyekt haqidagi bilim va ma’lumotlar jamlanmasining ongda aks etishi deb ta’riflansa, konsept esa mental tuzilma bo‘libgina qolmay, mana shu obyektga nisbatan barcha bilimlar yig‘indisining milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettirgan holda til birliklari, ya’ni leksik, frazeologik, paremiologik va boshqalar orqali ifodalanishidir. “Konsept”,

¹¹³Кубрякова Е.С. Языковое сознание и языковая картина мира: филология и культура. Материалы 2-й междунар. Конф. Ч.3. – Тамбов.: Изд-во. Тамб. ун-та, 1999. -С.6-13.

shuningdek, tilshunoslik va unga tegishli bo'lgan sohalarda qo'llanilsa, "tushuncha" esa falsafa va uning tarkibi bo'lmish mantiq ilmida keng qo'llaniladi. Shu o'rinda o'zbek tilshunos olimi O'.Q.Yusupovning "konsept" va "tushuncha"ga bergan ta'rifini keltirib o'tishni joiz deb topdik: "konsept bilan tushunchani aysbergga o'xshatish mumkin. Agar "konsept" aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi "tushuncha"dir"¹¹⁴. R.Drever "ushbu muammoning mumkin bo'lgan yechimi uzoq o'rta asrlarda (XI-XII asrlarda) tabiat va mavjudotning ontologik maqomi o'rtasidagi bahslarda topildi. Bu bahslarda klassik lotin tili lug'atida mavjud bo'lgan "concept" (conceptus) so'zi ham paydo bo'ldi deya takidlagan. Mavjudotlar hozirgi kunda ham G'arbiy Yevropa gumanitar fanlar paradigmasida konseptlar sifatida talqin qilinadi. Bular mavjudlikning yuksak darajadagi tushunchalaridir. Ularni Aristotel kategoriyalar bilan bir tartibda tushungan. Ular ma'lum belgilar bilan birlashtiradigan semantik sinf (o'simlik, hayvon va boshqa) larga qaratilgan bo'ladi. Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, klassik tushuncha tasavvurdan o'zining sof ratsionalligi bilan farq qiladi, ya'ni uni ko'rib, eshitib, umuman olganda, sezgi a'zolari bilan his etib bo'lmaydi.

Zamonaviy tilshunoslikda konseptni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Biroq uning mohiyatini tushunishga qaratilgan har qanday urinish turli xil nuqtai nazarlarning soni bilan bog'liq. Kognitiv tilshunoslik sohasidagi intensiv tadqiqotlar "konsept" tushunchasini anglashda nomutanosiblikni ko'rsatdi. Topilgan tafovutlar esa noaniqlik va terminologik chalkashliklarni keltirib chiqargan.

"Konsept" atamasi bir nechta ilmiy yo'nalishlarning predmet sohaslarini qoplagani uchun "soyabon" atama hisoblanadi. Birinchi navbatda, ma'lumotlarni qayta ishlash, taffakkur va ong muammolari bilan shug'ullanadigan kognitologiya va kognitiv tilshunoslik, shuningdek, lingvomadaniyatshunoslik kabi ilmiy yo'nalishlarda bu hodisa ko'proq kuzatiladi. Turli talqinlarga ko'ra konsept

¹¹⁴ Юсупов Ў.Қ. Тилшunoslikда янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим истилохлар// Филология масалалари. Т.: – 2011, –№2. – Б. 9-15.

fikrning asosiy birligi sifatida bilimlarning kvantifikatsiyasi (hisob kitobliligi) va kategorizatsiyasi (turkum) natijasidir. Uning obykti belgi jihatidagi xarakterga ega bo'lgan mental usul hisoblanadi. Ular, asosan, mavhumlashtirish orqali aniqlanadi uning modeli esa konseptning o'zi tomonidan yaratiladi¹¹⁵.

Tilshunoslikning hozirgi bosqichida konseptni tushunishdagi bir qancha yondashuvlar mavjud. Turli mamlakatlarning tadqiqotchilari konseptga lingvistik-kognitiv, psixolingvistik, lingvomadaniy, madaniy yoki lingvistik hodisa sifatida qarashadi. Har bir yondashuv, ba'zi bir xususiyatlar asosida, konseptning o'ziga xos chegarasini ta'kidlaydi. Til va madaniyat o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatish va tilning shakllanishidagi konseptning roliga asoslangan ikkita yondashuv mavjud.

Birinchi yondashuv asosida konseptni madaniy hodisa sifatida ko'rib chiqiladi. "Konseptlar belgining ma'nosi sifatida tuzilgan: ilmiy atama yoki kundalik so'zlashuv (iborasi), yoki undan murakkab leksik-grammatik va semantik tuzilmalar yoki og'zaki bo'lmagan subyektiv obraz yoki harakat asosidagi o'z-o'zini tashkil etuvchi, integral, funksional sistematik, ko'p o'lchovli, idealizatsiya qilingan tuzilmadir"¹¹⁶.

A.Vejbiskaya esa "konsept" ideal, ya'ni odamlarning olam haqidagi madaniy tushunchasini aks ettiradigan va mavjud bo'lgan dunyoda obyekt ekanligini ta'kidlaydi¹¹⁷.

Y.S.Stepanovning fikricha: "konsept" "insoniyatning aqliy dunyosidagi asosiy madaniy hujayradir".¹¹⁸ "konsept" –bu shaxs va olamning ma'lum bir segmenti haqidagi bilimlarini ifodalovchi aqliy tuzilish. "Konsept" olam manzarasining bir qismi bo'lib, shaxsning qadriyat yo'nalishi va butun lingvistik jamiyatining har ikkalasini aks ettiradi. Konseptni madaniy nuqtayi nazardan tahlil qilish jarayonida, konseptning mazmuni ma'lum bir madaniyat va davr doirasida qolishini unutmashimiz kerak.

¹¹⁵ Воркачев С.Г. Лингвокультурный концепт типологии и област бытования. – Волгоград. 2007. –С. 400.

¹¹⁶Ляпин С.Х. Концептология: к становлению подхода // Концепты. Вып 1. – Архангельск, 1997. - С.32-45.

¹¹⁷Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков: Грамматическая семантика. Ключевые концепты культур. Суммарии поведения. Москва. 1999,-С.776.

¹¹⁸Степанов Ю.С. Концепты. Тонкая пленка цивилизации. – М.: Языки славянских культур, 2007. – С.248.

Ikkinchi yondashuv vakillari ushbu tushunchani lingvistik-kognitiv hodisa sifatida taklif qiladilar. Konsept – bu shaxsning, ya’ni bizning dunyomiz nimani bilishi, taklif qilishi, o’ylashi, tasavvur qilishi haqidagi ma’lumotdir. Lingvistik-kognitiv tushunchaga ko’ra konseptning aloqasi og’zaki ifoda vositalari bilan bog’liqdir. Til tushunchalarni shakllantirmaydi, lekin ularni almashtirish vositasi va aloqa jarayonida muhokama qilish vazifasini bajaradi. Konsept esa shaxsning haqiqiy tafakkurida mavjud bo’ladi. Muloqot qilish uchun og’zaki nutqqa ko’chirishga to’g’ri keladi, ya’ni til vositalari yordamida ifodalanadi.

Y.S.Stepanovning fikriga ko’ra, konseptni inson ongining aqliy tuzilishi bilan taqqoslaganda yanada kattaroq tushuncha ekanligini sezish mumkin. Y.S.Stepanovning ifodasi orqali, konsept “xulosaviy hodisaning bir turi, konseptning o’zi va uning qiymatli (ko’pincha majoziy) g’oyasidan iborat” ekanligini anglashimiz mumkin.

Konsept Y.S.Stepanovning fikriga ko’ra: 1) asosiy, haqiqiy belgi; 2) qo’shimcha yoki ahamiyatsiz, ammo tarixiy ahamiyatga ega bo’lgan passiv belgilar; 3) ichki shakli, odatda, umuman ma’noga ega emas, tashqi shaklda ma’no tushunilgan. Birinchi komponent – konseptning asosiy, haqiqiy belgisi – muhim, muayyan til yoki madaniyatning barcha so’zlovchilariga ma’lumdir. Og’zaki ravishda ifoda etilgan ma’lum bir etnik jamiyat, millat, xalq vakillari uchun aloqa vositasi, aksincha, ikkinchi komponent qo’shimcha, tushunchaning passiv belgisi – bu butun etnik guruhdan uzoqda bo’lgan dolzarbligini ochib beradi; u ma’lum bir ijtimoiy guruh vakillari uchun, ma’lum jamiyat qatlami uchun mavjuddir. Uchinchi komponent – bu etimologik belgi yoki ichki shakl – har qanday madaniyatning tili va konsept tashuvchilari uchun eng kam ahamiyatga ega bo’ladi, chunki so’zning tarixi, asosan, ushbu sohadagi mutaxassislar tomonidan shug’ullaniladigan fan hisoblanadi.

Lingvomadaniy konseptlarga milliy an’ana va folklor, din va mafkura, hayotiy tajriba va san’at obrazlari, his etish va qadriyatlar tizimi kabi omillarning o’zaro munosabatlari natijasida yuzaga keladigan amaliy tushuncha sifatida qaraladi. Lingvomadaniy konseptlar ong va madaniyatni til sistemasida kompleks

o'rganishda foydalaniladigan shartli mental birlik hisoblanadi. N.M.Djusupovning fikriga ko'ra, konseptni lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishining asosiy atamasi sifatida ta'riflashda quyidagi faktlarni ta'kidlab ko'rsatish lozim. Bu etnomadaniy xususiyatga ega bo'lgan jamoa bilimining asosiy birligi, milliy mental tizimdir. Konsept "madaniylik, mentallik, til" kabi muhim uchlikdan iboratdir. Konseptni o'rganish tilning o'ziga xos tabiatini ochishga yordam beradi. Tilni lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishda o'sha xalqning mentalitetini ifodalaydigan milliy-madaniy asos konseptlariga ko'proq e'tibor qaratish kerak. Umuman konsept muammosi va uning vazifalari bilan birgalikda milliy tilning konsept tizimi o'rganilmoqda. Konsept bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ekstralingvistik omillarning hisobga olinishi, ularning til bilan o'zaro aloqadorligi, bir tomondan, madaniyat bilan aloqadorligi, ikkinchi tomondan, konseptni birlashtiruvchi holatlari hisoblanadi. Yuqoridagi fikrdan ko'rinib turibdiki, konsept ko'p sathli mental tuzilma sifatida inson tomonidan dunyoni o'zlashtirish natijalarini umumlashtiradi.

D.U.Ashurovaning ta'kidlashicha, kognitiv tilshunoslikda xuddi lingvomadaniyatshunoslikdagi singari markaziy tushuncha konsept tushunchasi hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu tushuncha tilshunoslikda ko'plab bahslarga sabab bo'lmoqda hamda boshqa turli atama va tushunchalarning mavjudligi sababli keng miqyosda qo'llanilmoqda. Bahslarning asosiga to'xtaladigan bo'lsak, birinchidan, bu konsept, tushuncha va mazmun nisbatida kuzatilmoqda. Garchi ular bir xil ma'noli atamalar bo'lmasa-da, konsept tushunchaga mos keladi. Agar tushuncha obyektning asosiy belgilari jamlanmasi bo'lsa, konsept milliy o'ziga xos mental tuzilma hisoblanadi va ifoda jihatidan til birliklari, ya'ni leksik, frazeologik, paremiologik birlik kabilarning majmuasi, mazmun jihatdan esa ushbu obyektida bor bo'lgan bilimlar majmuasidan iborat bo'ladi. Konseptlar har qanday tushuncha emas, balki faqat jahon madaniyati yoki biror bir milliy madaniyat uchun muhim bo'lgan tushuncha hisoblanadi¹¹⁹.

¹¹⁹ Ашурова Д.У. Стилистические и прагматические аспекты словообразования английского языка. Дисс.док. филол. наук. -Т.: 1993. – С. 406.

Konseptni tushunishda lingvokognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar bir-birini inkor etmaydi. Bu yondashuvlar shaxs munosabatdagi yo‘nalishlardan farq qiladi, ya’ni “lingvokognitiv konsept –bu individual tafakkurdan ma’naviyatga qaratilgan yo‘nalish, lingvomadaniy konsept esa, madaniyatdan individual tafakkurga qaratilgan yo‘nalish”¹²⁰.

Bundan tashqari, kognitiv tahlilning asosiy metodlari freym tahlili, parametrizatsiya metodi, inferensiya, ya’ni semantik xulosa metodi, gipotetik-deduktiv metod, konseptual tahlillardir. Yuqorida aytib o‘tilgan metodlardan zamonaviy kognitiv tilshunoslikda konseptual tahlil metodi keng qo‘llanib kelinmoqda. Konseptual tahlil metodi o‘rganilayotgan konseptni turli til materiallari asosida olib borilishni taqozo qiladi. Bunda izohli, etimologik, sinonim va antonimlar, ensiklopedik lug‘atlar yordamida konseptning mohiyatini ochib berishda ko‘maklashadigan leksema va so‘z birliklarining tahlili yordamida leksik qatlamni o‘rganish; konseptning assotsiativ maydonini tuzishda katta rol o‘ynaydigan frazeologik birliklar qatlamini aniqlash lozim deb hisoblanadi¹²¹.

Konseptlar o‘ziga xos tuzilishlarga ega ekanligi sababli tarjima qilinganda strukturalarda muammo yuzaga kelishi mumkin. Konsept ko‘plab ekstralingvistik holatlarni qamrab olib, strukturasi jihatidan tarjimada ayni ma’nosiga ega bo‘lavermaydi. Xuddi mana shu o‘rinda V.A.Maslova konseptga nisbatan quyidagicha yondashgan, konsept murakkab strukturaga ega bo‘ladi: bir tomondan unga tushuncha qurilishini tashkil qiladigan barcha vositalar tegishli bo‘lsa, boshqa tomondan konsept strukturasi uni madaniyat omili sifatida namoyon qiladigan vositalar: etimologik, qisqa mavzuning asosiy belgilari tarixi, zamonaviy assotsiatsiyalari, munosabat, konnotatsiyalarni o‘z ichiga oladi. I.A.Sternin ham konsept tuzilishi haqida quyidagicha fikr bildirgan. “Konsept muayyan strukturaga ega va bu tafakkur faoliyatidagi faol dinamik o‘rni bilan uzviy bog‘liq. U doimiy o‘zining tarkibiy qismi va aspektlarida harakatlanadi hamda boshqa konsept bilan

¹²⁰ Карасик В.И. Культурные доминанты в языке // Языковая личность: культурные концепты. –Волгоград – Архагельск: Перемена, 2002. -С.166-200.

¹²¹ Агзамова Д.Б. Инглиз ва ўзбек тилларида «хотира» концепти. –Т.:2014. –221 б.

birlashadi yoki ulardan uzoqlashadi. Bu borada yana bir olim N.K.Ryabseva¹²² ham o‘z fikrini bildirib “konsept murakkab hamda ko‘p aspektli tushuncha bo‘lsa-da, mazmuni tartibsiz bo‘lmaydi, balki o‘zining muayyan ichki tuzilishiga ega bo‘lgan mantiqiy struktura” deya ta’kidlaydi. Konsept strukturasi zanjirsimon, radial holatda yoki aralash bo‘lishi mumkin. Shuningdek, markaziy va periferiya zonolari mavjud. Shundan kelib chiqib, konsept asosida uning bazaviy unsurlari yoki dastlabki prototipik modeli mujassamlashgan bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib shuni ayta olamizki, konseptlar keng qamrovli, o‘zgaruvchan xossaga ega va ichki qurilmasi bir xil bo‘lmagan mental tuzilma hisoblanadi.

Konsept strukturasi tarkibini obrazlilik, assotsiativlik tashkil etadi va shu sababdan, aksariyat tillarda konsept til birliklari ya’ni leksik, frazeologik birliklar, paremiyalar, stilistik vositalar va realiyalar sifatida aks ettiradi. Yuqorida zikr etilgan lisoniy birliklar tilning eng yorqin va o‘ziga xos xususiyatlariga ega, obrazlilikni tashkil etuvchi qatlamlardan biri hisoblanib, ularda xalqning turmush tarzi va olib borayotgan faoliyati, tarixi, madaniyati mujassamlashar ekan, aynan mana shu tomondan konseptlar bilan hamohang bo‘la oladi.

Konseptga bag‘ishlangan tadqiqotlardan olingan xulosalarga ko‘ra konsept kamida uch o‘lchovli tuzilmadir. Misol tariqasida V.I.Karasikning fikrini keltirishimiz mumkin: “Konsept uch muhim o‘lchovga ega, ya’ni obrazli tomoni; tushunchaga oidligi; qadriyatga oidligi. Konseptning obrazli tomoni xotiramizda aks etgan predmetlar, hodisalar, voqealarning ko‘rish, eshitish, ta’m bilish, hid bilish, ya’ni persepsiya xususiyatlari bo‘lib, ular amaliy bilimlarga bog‘liq xususiyatlar hisoblanadi. Konseptning tushunchaga oid tomoni –ba’zan alohida holda mavjud bo‘lgan u yoki bu konseptga nisbatan mazkur konseptning qiyosiy jihatdan xarakteristikasi, konseptni lisoniy qayd qilish, uni tasvirlash, belgi strukturasi, ta’rifi; konseptning qadriyat tomoni –shaxs uchun ham, jamoa uchun ham bu psixik tuzilmaning ahamiyatidir.

¹²²Русаева, М. М. Концептосфера «человек/личность» в художественном тексте средневерхненемецкого периода: на материале «Песни о Нибелунгах»: Дисс. ... канд. филол. наук: / – Саранск, 2007. – С.239.

3.3-§. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik paradokslarning lingvokulturologik jihatlari

O'zbek tilida *o'pkasini qo'ltiqilamoq*, *o'pkasi ko'rinadi*, *o'pkasi yo'q*, *miyasining qatig'ini chiqarmoq*, *oyog'ini qo'liga olib qochmoq*, *bir boshini ikkita qilmoq*, *boshida danak chaqmoq*, *boshini yemoq*, *boshini olib chiqib ketmoq*, *do'ppisini ol desa*, *kallasini olmoq*, *dami ichida qoldi*, *dami chiqmadi*, *nafasi chiqmadi*, *jonini hovuchlab*, *jonini kaftiga olib*, *joni chiqdi*, *ichini it tirnadi*, *ichini yedi*, *ko'zining ola-kulasi chiqib ketdi*, *ko'zi xonasidan chiqib ketdi*, *ko'zlari qinidan chiqib ketdi*, *ko'kragi tog'day ko'tarildi*, *miyasini qoqib qo'liga bermoq*, *og'ziga qarab*, *payini qirqmoq*, *pichoq suyakka yetdi*, *suyak-suyagidan o'tib ketmoq*, *et-etidan o'tib ketmoq*, *terisiga somon tiqmoq*, *til biriktirmoq*, *tili bir qarich*, *tili besh qarich*, *tili bir quloch*, *yurakka qilsig'maydi*, *yurakka qo'l solmoq*, *yuragidan sidirib tashlamoq*, *yuragidan urmoq*, *yuragi yorildi*, *o'takasi yorildi*, *yuragini oldirib qo'ymoq*, *yuragini ochmoq*, *yuragini siqmoq*, *yuragini changallab*, *yurak-bag'ri ezildi*, *yuragi orqasiga tortib ketdi*, *yuragi orqasiga urib ketdi*, *yuragi tars yorilguday bo'ldi*, *yuragi qon bo'ldi*, *o'z yog'iga o'zi qovurilmoq*, *o'zini o'zi yeb qo'ymoq* kabi idomatik birliklarning semantik mazmunida paradoks ma'nolar, ya'ni zid ma'nolar yotadi. Shu bilan birga, o'zbek tilida paradoksallikni o'zida mujassam etayotgan ushbu iboralarning ingliz tilidagi xuddi shu ma'nolarini ifodalovchi frazeologik iboralda paradoks mazmun saqlanmaganligi aniqlandi: **o'pkasini qo'ltiqilamoq** – *like a bat out of hell, to beat a hasty retreat*; **o'pkasi ko'rinadi** – *buzz around/about*, **o'pkasi yo'q** – *zipping around*; **oyog'ini qo'liga olib qochmoq** – *get your skates on*, **bir boshini ikkita qilmoq** – *tie the knot, get hitched*; **miyasining qatig'ini chiqarmoq** – *talk someone's ear off*; **boshini yemoq** – *to be no more, to depart, bite the big one*; **boshini olib chiqib ketmoq** – *hit the road, duck out, storm off*; **do'ppisini ol desa**, **kallasini olmoq** – *hypocrite, gunner*; **boshida danak chaqmoq** – *to put the hurt on someone*; **boshini yemoq** – *fall victim to someone*; **joni chiqdi** – *driving me up the wall*; **dami ichida qoldi/nafasi chiqmadi** – *to leave someone speechless*; **jonini hovuchlab** – *step on it*;

jonini kaftiga olib – *scoot, chop chop*; **joni chiqdi** – *pushing one's buttons*; **ichini it tirnadi, ichini yedi** – *a bundle of nerves*; **ko'zining ola-kulasi chiqib ketdi** – *out of the blue*, **ko'zi xonasidan chiqib ketdi, ko'zlari qinidan chiqib ketdi** – *blows my mind, eye opening*; **ko'kragi tog'day ko'tarildi** – *on top of the world*.

Paradokslar juda qiziqarli bo'lib, ko'pgina hollarda, ularni aytish oson va darhol paradoksal matnni "hal qilish" uchun urinishga undaydi. Ma'no jihatidan tushunish murakkab bo'lgan paradokslardan biri bu yolg'onchi paradoksdur.

Tadqiqot ishimiz davomida, dunyo tilshunos olimlari tomonidan ziddiyatlilikni anglatuvchi, stilistik vositalardan biri hisoblanadigan, paradoks terminiga berilgan turli xil ta'riflarni, ularning turlarini va paradox matnlarning yasalishi yuzasidan fikr-mulohazalar keltirdik, shuningdek, **paradoks - bu bema'ni ko'rinadigan, lekin aslida haqiqatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan bayonotdir** degan chiroyli ma'no anglatuvchi jumla vujudga keldi. Odatda paradoksal matn bir vaqtning o'zida to'g'ri bo'lishi mumkin bo'lgan ikkita qarama-qarshi bayonotni o'z ichiga qamrab oladi.

Ma'lumki, paradokslar ko'pincha adabiyotda haqiqat va voqelik haqidagi umidlarimizni shubha ostiga qo'yadigan qarama-qarshi vaziyatlarni yoki g'oyalarni tasvirlash uchun ishlatiladi.

Misollar bilan tahlil qilar ekanmiz, Zenonning mashhur harakatga oid falsafiy "Chopqir Axilles" hikoyani eslab o'tish muhimdir, bu erda Axilles qay darajada chopqir bo'lmasin va oraliqdagi masofa qancha bo'lishidan qat'i nazar, u hech qachon toshbaqani quvib yetolmaydi, -deydi Zenon. Chunki bizning harakat xususidagi tasavvurlarimiz yolg'onidir. Isbot: Axilles toshbaqagacha bo'lgan masofani bosib o'tarkan, bu vaqtda toshbaqa ham yurishdan to'xtamaydi. Bu holat cheksiz davom etishi mumkinligini inobatga olsak, cheksiz masofani bosib o'tish uchun chegarasiz vaqt kerak bo'ladi. Axilles o'zining chaqqonligi tufayli g'alaba qozonishi kutiladi, lekin toshbaqa oxir-oqibat g'alaba qozonadi. Zenon bu borada shunday farazni ilgari suradi: "Tasavvur qiling: harakatdagi jism olg'a borarkan, qarshisidagi havoni ham oldinga itaradi. Demakki, u xuddi tiqin (porshen) kabi

ro‘parasida uchragan barcha buyumlarni ham ilgari surib ketaveradi.” Bundan ko‘rinib turibdiki, Axilles ham toshbaqaga yaqinlasha borib, uni ozgina bo‘lsa-da, oldinga itaradi. Axilles qanchalar tez yugursa, toshbaqaga shuncha kuchli ta’sir etadi. Natijada toshbaqa hamma vaqt Axillesdan ilgarida ketaveradi.

Bu hikoya bizga uzoq muddatli maqsadga erishish har doim ham eng tezkor yoki eng kuchli bo‘lish emasligini o‘rgatadi; ba’zan ishni bajarish uchun izchil va qat’iyatli bo‘lish muhimroqdir.

Tadqiqotlarimiz jarayonida uchratdikki, paradoks syujet haqidagi yashirin haqiqatlarni ham ochib berishi mumkin:

“Imperatorning yangi kiyimlari” haqidagi klassik hikoyada behuda imperator aldanib, uning ustida kiyim-boshi bo‘lmasa-da, eng chiroyli kiyimlarni kiyadi deb o‘ylaydi.

Bu hikoyaning yashirin haqiqati shundaki, odamlar odatda noto‘g‘ri yo‘l tutgan bo‘lsalar ham, hokimiyat arbobiga qarshi chiqishni istamaydilar.

Darhaqiqat, paradoksal matndan xarakter haqidagi ma’lumotni ochish usuli sifatida ham qo‘llanilishi mumkin:

Masalan, Gamletning mashhur “Mehribon bo‘lish uchun shafqatsiz bo‘lishim kerak” paradoksi shuni ko‘rsatadiki, u otasining amakisi Klavdiy tomonidan o‘ldirilgani uchun o‘ch olish onasiga nisbatan mehribonlik ekanligini his qiladi, lekin bu uning hayotiga fojia olib keladi, chunki u endi unga uylangan.

Umuman olganda, paradokslar o‘ziga qarama-qarshi bo‘lib tuyuladigan bayonot bilan belgilanishi mumkin, ammo shunga qaramay, o‘quvchini nafaqat matndagi so‘zlarni o‘qish, shu bilan birga bu haqda o‘ylashga ham majbur qiladi.

Ziddiyatni anglatuvchi, stilistik vositalardan biri bo‘lgan paradoksning qo‘llanishi yuzasidan, quyidagicha xulosaga kelindi, ya’ni **paradoks** –odatda yozuvchilar tomonidan dramatik yoki ritorik ta’sir qilish uchun o‘quvchini dunyomiz haqida chuqurroq o‘ylashga undash uchun ishlatiladi.

Yana bir misol keltirar ekanmiz, “Yagona doimiy – o‘zgarish” iborasi paradoks, ammo “Bu achchiq shirin edi” degan qarama-qarshi gap o‘rniga oksimorongga asoslanganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Darhaqiqat, o'quvchilarda bir savol tug'ilishi mumkin. Ziddiyatlikni ifodalovchi stilistik vositalardan oksyumoron, antiteza va paradokslar o'rtasidagi farq nima? Tadqiqot ishimizning dastlabki boblarida oksyumoron yuzasidan batafsil ma'lumot keltirganmiz. Ushbu bobda O'zbek tilshunoslarining fikrlarini keltirishni va misollar yordamida aniqlik kiritishni joiz deb bildik.

O'zbek tilshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zidlikni ifodalovchi stilistik vositalar borasida turlicha fikr-mulohazalar mavjud. Tilda zid ma'noli so'zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashda qulay vositalardan sanaladi. Sharq badiiy adabiyotida qadimdan tildagi mavjud bu kabi ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. Ta'kidlash joizki, "shoir uchun juda zarur bo'lgan badiiy sa'natlardan biri tazoddir. Bu san'at yana mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod va takofu deb ham ataladi. Ushbu badiiy san'at turi zid ma'noli so'zlardan foydalanish bilan xarakterlanadi"

Abu Abdulloh al-Xorazmiy o'zining badiiyat ilmi istilohlari tadqiqiga bag'ishlangan "Mafotih al-ulum" asarida mutobaqa atamasiga shunday izoh beradi: "mutobaqa so'zi tobaqa fe'lidan olingan bo'lib, muannas "tuya orqa oyog'ini o'zining oldingi oyog'ining iziga qo'yib yurdi, ma'nosini beradi", biroq, Yevropa filologik an'anasiga ko'ra, bu badiiy sa'nat "antithesis" antiteza deb yuritiladi. Badiiy asar tilining sifati, aniqligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladigan zidlantirish, qarshilantirish san'atidan foydalaniladi. Zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali tushunchalar, belgilar, holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Odatda, lisoniy-kontekstual yoki nutqiy zid ma'noli so'zlar o'ziga xos tarzda farqlanadi. Masalan:

- Eski qishloqqa yangi odat (maqol).
- A new habit to the old village. Ushbu misoldagi o'zbek tilida eski –yangi, ingliz tilidagi tarjimada new-old so'zlari bir biriga ziddir va maqoldagi aniqlikni, ta'sirchanlikni oshiririshda muhim ahamiyat kasb etadi.

– Hali ancha balandda bo‘lsa ham uning kamolidan zavoli yaqinroq ekani ko‘rinib turardi. Ushbu gapda kamol – zavol so‘zlari bir-biriga zidlash orqali, matndagi melodika ta’minlangan.

– Shuncha yer qo‘ldan chiqqan bo‘lsa, uning baravariga qancha davlat qo‘lga kirgandir, buni xudo biladi-yu xudoning sevimli bandasi qora ko‘z Miryoqub biladi (Cho‘lpon).

Ba’zan mahoratli yozuvchilar qahramonlar ruhiyatidagi kontrastlikni bo‘rttirib tasvirlash maqsadida muayyan bir kontekstual sinonimik qatordagi bir necha so‘zga birdaniga zidlantiradilar. Masalan:

“U vaqtda o‘zi – kuldi, ochildi, quvondi, gerdayib, osmondan qarab qadam bosdi. Xadichaxon esa ezildi, kuydi, o‘rtandi, xo‘rlanib-xo‘rlanib, achchiq-achchiq yig‘ladi (Cho‘lpon)”. Quyidagi misolda birgina so‘z emas, balki uyushiq bo‘lakli so‘zlar qatorlari *kuldi, ochildi, quvondi, gerdayib, osmondan qarab qadam bosdi-ezildi, kuydi, o‘rtandi, xo‘rlanib-xo‘rlanib, achchiq-achchiq yig‘ladi* o‘zaro zidlikni hosil qilib, matnning impressivligini oshirib, o‘quvchida katta taassurot uyg‘otadi.

Kontekstual antonimlardan badiiy asarda tasvirning ta’sirchanligini oshirish maqsadida foydalaniladi:

U mushtdek yurakni qoyadek dard bosib turibdi, deb yursa bu vujudga vulqon kuch topayotgan ekan (T.Malik) – bu nutqiy parchada mushtdek va qoyadek so‘zlari “kichik” va “katta” ma’nolarini ifodalab, antonimik munosabatga kirishgan. Zid ma’nolilikni barqaror birikmalarda ham ko‘plab kuzatishimiz mumkin. Shuningdek:

a) iboralarda: *Ko‘kka ko‘tarmoq-erga urmoq; Yuzi yorug‘-yuzi shuvut; Ko‘ngli oq-ichi qora; Ko‘ziga issiq ko‘rinmoq-k‘ziga sovuq ko‘rinmoq.*

b) so‘z va ibora o‘rtasida: *Leksik-frazeologik zid ma’nolilik; Xasis qo‘li ochiq; Xafa – og‘zi qulo‘ida.*

s) maqol va matallarda: *Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda; Yaxshidan ot qoladi, yomondan dod; Osmon yiroq – yer qattiq.*

d) hikmatli soʻzlarda: *Bilmaganni soʻrab oʻrgangan – olim, orlanib soʻramagan – oʻziga zolim.*

Maʼlumki, ingliz tili adabiyotida antiteza (antithesis- qarama-qarshi qoʻyish, zidlash) badiiy sanʼati keng qoʻllanilib, u “mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qoʻyish, zidlash hodisasidir”. Voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni toʻliq bayon etish maqsadida asosan, badiiy nutqda zid maʼnoli qoʻshimchalar, zidlovchi bogʻlovchilar, soʻz va iboralardan foydalaniladi. Badiiy matnni lisoniy jihatdan tahlil qilishda zidlantirishdan yozuvchining koʻzda tutgan maqsadi nima ekanligini aniqlash talab qilinadi. Yozuvchining mahorati zidlantirilayotgan voqeliklar uchun tanlangan ifoda materialida yanada aniq koʻrinadi:

Noningni yoʻqotsang yoʻqot, nomingni yoʻqotma! (Oʻ.Hoshimov).

Ushbu misolda muallif bir-biriga aloqasi boʻlmagan ikkita tushunchani qarama-qarshi qoʻygan: non - nom. Aslida, non hayotning, tiriklikning ajralmas boʻlagi. Bir parcha non topib yeyish uchun odamzod mehnat qiladi, ter toʻkadi. Ammo hayotda oʻsha bir parcha nonni topaman deb oʻz nomiga, shaʼniga dogʻ tushirayotganlar ham uchrab turadi.

Adabiyotshunoslik sohasida oksyumoron deb ataluvchi hodisada ham mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga mazmunan zid boʻlgan ikki tushunchani ifodalovchi soʻzlar oʻzaro qoʻshib qoʻllaniladi. Oksyumoron (grekcha soʻz boʻlib “oʻtkir, lekin bemaʼni”) degan maʼnoni bildiradi. Ular ayrim adabiyotlarda “okkazional birikmalar, noodatiy birikmalar” yoki “gʻayriodatiy birikmalar” deb ham yuritiladi. Bunday birikmalar individualligi, yangiligi, koʻnikilmaganligi va oxorliligi bilan tasvir ifodaliligini taʼminlaydi. Masalan:

– Sokin hayqiriq (M.Ali), otashin muz, yongʻinli daryo, soʻqir lomakon, qora nur, yalongʻoch shuur, yaxlagan sarob (R.Parfi).

Matnda qoʻllanilgan sokin hayqiriq, otashin muz kabi soʻz birikmalar oksyumoronga misol boʻlib, hayqiriqning sokin boʻlmasligi yoki muzning otashin boʻlmasligi shundan dalolat beradiki, oksyumaron bir-biriga zid maʼnoga ega boʻlgan soʻzlarning birikma tarzida ifodalanishi bilan xarakterlanadi. Bunday

g'ayriodatiy birikmalar antitezaning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Garchi, istalgan ikki so'zni biriktirish orqali oksyumaron yuzaga kelavermaydi. Bunday birikmalar yozuvchining badiiy tafakkur mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun g'ayriodatiy birikmalarni mantiqsizlik bilan bog'lash mumkin emas. Ularga estetik hodisa sifatida yondashish zarur. Shu o'rinda savol tug'iladi: O'zaro bog'lanmaydigan so'zlarni bog'layotgan kuch nimada? Ularning birikib, badiiy effekt berishi uchun qanday ifoda imkoniyati mavjud? Yozuvchini bunday "maromsiz" birikmalar yaratishga nima majbur qildi? Kabi savollar bilan mazkur hodisa mohiyatiga kirib borish mumkin.

Paradoks mantiqiy bayon sifatida yoziladi. Biroq bayonot elementlari o'zlariga zid ko'rinadi yoki bu taklifni ehtimoldan yiroq qiladi. Paradoks vaziyatni keltirib chiqaradi. Paradoks- bu odatda jumla yoki bir nechta jumlar bo'lib, ikkita voqea bir-biriga o'xshab ko'rinmaydigan vaziyatni ko'rsatadigan atama sifatida qabul qilinadi. Oksyumaron paradoksal xususiyatga ega, ammo u nutq figurasi (figure of speech) bo'lib, vaziyat yoki hodisa emas va odatda atigi ikkita atamadan iborat. Ularni ajratish uchun paradoksni voqea yoki vaziyat, oksyumaronni esa nutq figurasi deb hisoblash o'rinlidir.

Paradoks –bu yozuvchi muayyan vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirish uchun foydalanadigan vositadir. Paradoks tinglovchilarni u taqdim etayotgan vaziyat haqida chuqur mulohaza yuritishga undaydi. Paradoksdagi vaziyat qarama-qarshi bo'lganligi sababli, qo'shimcha tushunish uchun o'qishda pauza keltirib chiqadi. Matnda paradoks vositasi qo'llanilgani sababli, o'quvchidan beixtiyoriy ravishda bu haqida bir muddatga tafakkur ila talqin etib, lingvokultrologik jihatdan mohiyatini anglash talab etiladi. Bu odatda qiziqarli kontseptsiya yoki g'oyani taqdim etish yoki to'g'ridan to'g'ri fikr bildirmasdan bayonot berish usulidir. Paradoksal ravishda u faqat yozuvchi ma'lum bir nuqtayi nazarni yoki sharhni bildirishni xohlaganda qo'llanishi kerak. Bundan tashqari, paradoks tomoshabinlarni to'xtatish va o'ylashga majbur qiladi, shu sababli ham, undan faqat maqsad bilan bevosita bog'liq bo'lganda foydalanish kerak.

Shu o‘rinda misol tariqasida Suqrotning mashhur paradoksini keltirishni joiz topdik. O‘zining cheksiz so‘roq qilish usulidan foydalangan holda, Suqrot tez orada aslida hech kim o‘zlari bilgan, da’vo qiladigan narsalar to‘g‘risida-san’at, axloq, siyosat, adolat, o‘zlik yoki bizni o‘rab turgan dunyoning asl tabiati to‘g‘risida hech narsa bilmasligini aniqladi. U shunday qilib, Platon (Aflotun) ning “Apologiya” (Suqrotni himoya qilish) asarida yozilganidek, Delfiyaruhoniysi (folbini) o‘zining donoligi to‘g‘risida to‘g‘ri qaror qilgan bo‘lishi mumkin degan xulosaga keladi: “Men ketayotganimda, o‘zim haqida o‘ylardim, men bu odamdan ham donoman. Ehtimol, ikkalamiz ham olijanob va yaxshi narsalarni bilmaymiz, lekin u bilmaganida biron narsani biladi deb o‘ylaydi, men esa, men bilmaganim kabi, bilaman deb o‘ylamayman ham. Men bu narsada u bilan bir oz donoroq bo‘lishim mumkin, men bilmagan narsani bilaman deb o‘ylamayman ham”. Boshqacha qilib aytganda, Suqrot o‘zini o‘zi gapiradiganlardan ko‘ra dono deb biladi, chunki ulardan farqli o‘laroq u o‘zining johilligini tan oladi. Ushbu fikr paradoksal bayonot bilan qamrab olingan: “I know that I know nothing” (Men hech narsani bilmasligimni bilaman). Manbalarning ta’kidlashicha, Suqrotning mashhur paradoksi sifatida tanilgan bu jumla Suqrot aytgan so‘zlar emas, balki yuqorida bayon qilingan Aflotunning “Apologiya” dan olingan degan fikrlar mavjuddir. Nima bo‘lishidan qat’i nazar, bu bilimlar nazariyasi bilan bog‘liq falsafaning bo‘limi – epistemologiya (falsafaning bilim va ishonch tabiati, uslublari, cheklovlari va qiymatlarini o‘rganuvchi sohasidir) uchun muhim paradoksal bayonot hisoblanadi. Suqrot tomonidan aytilgan, paradoksni o‘z ichiga qamrab olgan munozarasi biz bilgan narsalar to‘g‘risida chuqur shubhaga, noaniqlikka sabab bo‘lmoqda –inson bilimlari poydevori oxir-oqibat urf-odat va urf-odatlardan boshqa narsalarga asoslanganmi yoki yo‘qmi degan noaniqlik.

Binobarin, ilmiy izlanishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, stilistik vositalardan biri bo‘lgan paradoksning paydo bo‘lishi va qo‘llanilishi bir necha ming yillik tarixga egadir. Yuqorida keltirib o‘tganimizdek Yunon faylasufi Suqrotning mashhur paradoksal fikri hanuzgacha o‘z qiymatini yo‘qotmagan holda, insonlarni o‘sha bayonotning ma’nosini anglash uchun falsafiy jihatdan tafakkur qilishga undaydi,

turli-tuman fikrlarning voqelikka muvofiq bo'lishini, bular haqiqatmi yoki xato, chinmi yoki yolg'on ekanligini belgilashda o'z ifodasini topadi.

Ma'lumki, har bir sohada badiiy-stilistik vositalardan biri bo'lgan paradokslarni uchratishimiz mumkin, yuqoridagi misolni fikrimizning dalili desak mubolag'a bo'lmas, fikrimizning davomiyligi sifatida zidlikni ifodalovchi paradoksning tarjimashunoslik sohasida tutgan muhim roli borasida so'z borar ekan: buyuk nemis shoiri Ioxan Volfgang Gyote ta'riflaganidek, "Uilyam Shekspir bepoyon" – uning merosi, mana, to'rt asrdiki dunyo xalqlarini o'ziga rom qilib kelmoqda. Vatanimiz O'zbekistonda ham Uilyam Shekspir nomi, uning mashhur asarlari kitobxon va hamda tomoshabinlar qalbidan chuqur joy olgan. O'tgan sakson yil ichida Shekspir yaratgan shoh asarlarining qariyb barchasi tilimizga o'girilib, qator nashrlarda kitobxonlarimizga tortiq etildi, chunonchi Shekspirning shoh asari "Hamlet" tarjimasi haqida so'z borar ekan, ushbu asarda qo'llanilgan paradoksning o'zbek tarjimonlari tomonidan o'girilgan tarjimalari turlicha ko'rinishda ekanligiga guvoh bo'lamiz. Masalan: aslyatda "To be, or not to be: that is the question" paradoks bilan boshlanuvchi hayajonli monolog Cho'lpon tarjimasida "Yo hayot, yo o'lim, masala shunda"; M.Shayxzoda tarjimasida esa "Tirik qolmoq yo o'lmoq? Shudir masala!" tarzida jaranglaydi. Jamol Kamol uni "Yo hayot, yo momot: masala shundoq" deb o'girgan. Shekspirning ushbu mashhur asarida keltirilgan "To be, or not to be" jumalari zidlik ma'noni anglatib, ta'sirchanlikni oshiradi va o'quvchini chuqur mulohaza etishga majbur etadi. Paradoksni aslyatdagi varianti bilan solishtirganimizda, tarjimalarda ham ushbu zidlikni ifodalovchi vosita saqlangan holda tarjima etilganini ko'rishimiz mumkin. Masalan: "Yo hayot, yo o'lim" (Cho'lpon), "Tirik qolmoq yo o'lmoq" (M.Shayxzoda), "Yo hayot, yo momot" (Jamol Kamol) tarjimalardagi jumalar o'zaro zid ma'no anglatib, uni talqin etish uchun mutolaa etuvchidan ziyraklikni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, paradoks bu o'zining ko'rinishida mantiqan ziddiyatli, bema'ni yoki an'naviy g'oyaga qarshi tuyiladigan, ammo biron-bir tarzda talqin qilinadigan bo'lib chiqadigan va o'quvchini innovatsion uslubda

fiklashga majbur qiladigan bayonotlilik bilan boshqa stilistik vositalardan ajralib turadigan vositadir. Bu shunday tez-tez uchrab turadigan aql - idroklilikning komponentidir. Ma'lumki, Irlandiyalik yozuvchi Oskar Uayld paradokslardan yuqori darajada foydalanganligi bilan ajralib turadi, u o'zining "The Picture of Dorian Gray" (1890) (Dorian Greyning sur'ati) nomli asarida paradoksga quyidagicha ta'rif keltiradi "Hayriyatki, paradokslardan foydalanish texnikasi – bu haqiqat yo'lidir. Haqiqatni sinab ko'rish uchun biz uni mahkam arqonda ko'rishimiz kerak. Agar haqiqat akrobatlarga aylanganda, biz ularni hukm qilishimiz mumkin". Paradoksdan mohirona o'z asarlarida qo'llagan va uning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan ingliz yozuvchisi Oskar Uayldning paradoks haqida bildirgan ushbu fikrlari tahsinga sazovordir. Uni talqin etayotib naqadar ajoyib ekanligiga va paradokslarni haqiqat ekanligini anglash uchun o'sha haqiqatni akrobat bo'lishini, agarda havaskor bo'lsa arqondan tushib ketishini, ya'ni paradoksga chiqarilgan hukm yolg'onga aylanishi mumkinligini anglashimiz mumkin.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

1. Til va madaniyatning o'zaro munosabat va masalalarini o'z ichiga olgan lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslik kesimida mustaqil fan sifatida shakllandi.

2. Lingvomadaniyatshunoslik o'tgan asrning 20-yillarida tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlarining umumlashmasi natijasida yuzaga keldi hamda til va madaniyatni birgalikda o'rganadigan ilmiy sohadir.

3. Lingvomadaniyatshunoslik fanining vujudga kelishi qiyosiy aspektidagi ilmiy izlanishlar salmog'i oshishiga zamin hozirladi.

4. Stilistik vositalardan biri bo'lgan paradoksning paydo bo'lishi va qo'llanilishi bir necha ming yillik tarixga egaligi, Yunon faylasufi Suqrotning mashhur paradoksal fikri hanuzgacha o'z qiymatini yo'qotmaganligi, insonlarni o'sha bayonotning ma'nosini anglash uchun falsafiy jihatdan tafakkur qilishga undashligi, turli-tuman fikrlarning voqelikka muvofiq bo'lishligi, bular haqiqatmi yoki xato, chinmi yoki yolg'on ekanligi misollar bilan aniqlandi.

5. Paradoksdan mohirona o‘z asarlarida foydalangan va uning rivojlanishiga o‘z hissaslarini qo‘shgan ingliz yozuvchisi Oskar Uayldning paradoks haqida bildirgan fikrlari keltirildi.

6. Paradoksal matnni talqin etayotib naqadar ajoyib ekanligiga va paradokslarning haqiqat ekanligini anglash uchun tarjima qilinayotgan matnni lingvokultrologik xususiyatlari inobatga olinishi, ya’ni paradoksga chiqarilgan hukm yolg‘onga aylanishi mumkinligi misollar bilan dalillandi.

UMUMIY XULOSALAR

1.Paradoks polisemantik termin bo'lib, fikr, mulohaza, aqliy fikrlash umum tomonidan tan olingan yoki ma'qullangan fikrga, kutilmagan voqiylik va dastlabki tasavvurga, nazariy va formal mantiqqa, har qanday haqiqatni zid qo'yish kabi keng ko'lamli ma'no qirralariga ega. Tilshunoslik prizmasida mavjud paradokslar lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalqning mental, lingvomadaniy xususiyatlarini namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2.Paradokslar murakkab dialektik xarakterga ega bo'lib, mantiqda haqiqatdan chekinish deb e'tirof etiladi, shunga ko'ra antinomiya, aporiya, ziddiyat paradokslarning sinonimlari hisoblanadi.

3.Paradokslar inson bilish jarayonining murakkab dialektik xarakterga egaligi, shakl va mazmunning o'zaro ziddiyatli munosabatda bo'lishi, bir-birini istisno qiluvchi ikki fikrni bab-baravar isbot qilishni ifodalaydigan til hodisasidir. Tilshunoslikda paradokslarni bartaraf etishning universal yo'li mavjud emas. Badiiy matnda paradokslar stilistik vosita sifatida e'tirof etiladi.

4. Paradoks XIX asrning oxiridan boshlab badiiy matnning tarkibiy elementi sifatida talqin etila boshlandi. Paradoks matnning syujetli-kompozitsion darajasi va qahramonlar xarakterining paradoksal tabiatini ifodalaydigan badiiy vositalardan biridir. Paradoks badiiy matnda ma'naviy-madaniy, semantik bog'liqlik, ekstralingvistik shart-sharoitlar, axborotlilik, kommunikativlik, pragmatiklik, kognitivlik, konseptualizm va boshqa integrativ belgilari bilan voqelik tabiatini ochib berishga xizmat qiladi. Paradoks dunyo va inson tabiatini idrok etish va tushunishga yordam beradi.

5.Ingliz va o'zbek tillarida paradokslar grafik, fonologik, leksik, morfologik, sintaktik sathda lingvistik modellashadi va bu modellar vositasida ularning lingvokulturologik xususiyatlari hamda stilistik imkoniyatlari yuzaga chiqadi.

6.Paradoksal matnda *antitezalar*, *oksyumoronlarning* qarama-qarshiliklarning dialektik o'zaro ta'siri ifodalanib, fikrlar ziddiyati mavjud bo'ladi, ammo bu ziddiyat haqiqatni ochib berishga qaratilgan bo'ladi. Qarama-qarshilik (yaxshilik-yomonlik, yorug'lik-qorong'ulik, nafrat-muhabbat) ziddiyatlarni amalga

oshiruvchi *antitezadan* farqli o'laroq, paradokslilik dastlab idrok etuvchi ongida bo'lmagan ziddiyatli tushunchalarni ifoda etadi, uning refleksiya-sini faollashtiradi.

7.Paradoksallik mazmun va shakl orasidagi "ichki ziddiyat"dir. Paradoksallik tushunchasi lingvistik, adabiyotshunoslik, estetika, psixologiyada keng foydalaniladi.

8.Paradoks badiiy asarlarda adabiy-badiiy va stilistik vosita sifatida o'rganilmoqda. Shu bilan birga paradokslar semantik hodisa sifatida qaralishi lozim. Paradokslar grafik, fonologik, leksik, morfologik, sintaktik sathlarda yangi ma'nolar hosil qiladi.

9.Paradokslar aforizmlar, hazillar va kalambur (o'yin)lar bilan bir qatorda stilistikada yumor va satira, frazeologik usullari ham farqlanib tavsif etiladi.

10. Frazeologik birliklar tarkibiga 1.Turli funksional leksikani aralashtirish. 2.Turli stilistik bo'yoqdagi so'zlardan foydalanish. 3.Mazmun va shakl orasida nomuvofiqlikni ataylab yaratish vositalaridan foydalaniladi.

11.Paradoks va oksyumoronning lingvistik tabiatidagi o'xshashlik "semantik nomuvofiqlik"dan iborat. Oksyumoronda bir-biri bilan mantiqiy birlasha olmaydigan hodisalar birlashadi. *O'lik sukunat, zerikkan optimist, halol o'g'ri, tirik murda, yosh chollar, sekin shoshil, yomon yaxshi* kabi bema'ni ko'ringan, lekin aslida qarama-qarshilik xususiyatini ochib beruvchi semantik nutq figurasidir. Paradoksda esa isbotlangan haqiqat, tushunchani inkor etadi, ziddlik, qarama-qarshilik mavjud bo'ladi.

12.Paremiologik birliklar tilda ko'p uchraydigan, fikrni teran, obrazli, chuqur ma'noli va keng qamrovda ifodalaydigan til birligi sanalib, paradokslarning shakllanishiga asos bo'lishi asoslandi. Ingliz va o'zbek tillarida o'pkasini *qo'litiqlamoq – like a bat out of hell, to beat a hasty retreat; o'pkasi ko'rinadi-buzz around/about; o'pkasi yo'q – zipping around; miyasining qatig'ini chiqarmoq – talk someone's ear off; oyog'ini qo'luga olib qochmoq – get your skates on* kabi o'zbek tilidagi iboralarning idiomatik birliklarning semantik mazmunida paradoks ma'nolar, ya'ni zid ma'nolar yotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

I.Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. Mirziyoyev Sh.M.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017- yil 8- fevral, 28(6722)-son
2. Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.2019- yil, PF-5847-son.
3. Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2021- yil 5- may, PQ-5117-son

II.Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1)Milliy nashrlar

4. Abdurahmonov H. Mahmudov N. So‘z estetikasi. – Toshkent.:Fan,1981. – 59 B.
5. Yo‘ldoshev M. Isoqov Z. Haydarov Sh.Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2010. – 111 B.
6. Yo‘ldoshev I. Muhammedova S. Xolmonova Z. Majidova R. Sultonova Sh. Darslik.Mutaxassislikka kirish (Tilshunoslikka kirish) – T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 328 B.
7. Ziyovuddinova Sh. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” asarida poetika. – Toshkent.: TDSHI,2001. –57 B.
8. Xolbekov M.N.Tarjimashunoslik va tarjima tanqidi.Toshkent.: “Navro‘z” nashriyoti, 2014. – 102 B.

2)Xorijiy nashrlar

9. Алпатов В.М. История лингвистических учений / В.М.Алпатов. – М.: Языки русской культуры, 1998. – 367 с.
10. Аникст А. Оскар Уайльд и его драматургия / Оскар Уайльд. Пьесы. – М: Искусство, 1960. – С. 5-19.
11. Апресян Ю.Д. Избранные труды, том I. Лексическая семантика (синонимические средства языка) – М.: Школа«Языки русской культуры», 1995. – 472 с.
12. Аристотель. Риторика. Поэтика / Аристотель пер. с древнегреч. О. Цыбенко. – М.: Лабиринт, 2001. – 208 с
13. Арнольд И. В. Стилистика. Современный английский язык: Учебник для вузов – Изд.8-е – М.: Флинта, Наука, 2002. – 384 с.
14. Атаева Е.А. Лингвистическая природа и стилистические функции оксюморона: на примере английского языка: дис. канд. филол. наук / М., 1975. – 145 с.137
15. Афанасьев В.Г. Основы философских знаний / В.Г.Афанасьев. – М.:1978. – 333 с.
16. Aczel P. Lectures on Irregular Sets. Lecture CSLI, Stanford, 1987. – 150 p.
17. Asher, Nicholas M. and Kamp, Johan A.W The Knower's Paradox and representational theories of relations. Theoretical Aspects reasoning about knowledge. New York, – 131 p.
18. Бахтин М. М. Проблема текста в лингвистике, филологии и других гуманитарных науках. Опыт философского анализа. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979. – С. 124-215
19. Brooks C. The Well Wrought Urn: Studies in the Structure of Poetry. New York: Reynal & Hitchcock, 1998, – 178 p.
20. Богин.Г.И.Методологическое пособие по интерпретации художественного текста/14.12.2015. – Загл. с. экрана.
21. Богин.Г.И. Рефлексия и понимание в коммуникативной подсистеме «человек – художественный текст» – М., 1991. – 89 С.

22. Богин Г.И. Субстанциальная сторона понимания текста. – Тверь: Изд-во ТвГУ, 1993. – 137 с.
23. Богин Г.И. Схемы действия читателя при понимании текста. – Калинин.1989. – 96 с.
24. Богин Г.И. Типология понимания текст. – Калинин.1986. – 85 с.
25. Богин Г.И. Филологическая герменевтик. – Калинин.1982. – 86 с.
26. Богин.Г.И.Обретение способности понимать: Введение в филологическую герменевтику. – Тверь, 2001. – 126 с.
27. Brooks C. Irony as a Principle of Structure. New York.1971, –120 p.
28. Bertolet R. What is said: A theory of indirect speech reports /R.Bertolet. – Dordrecht etc.: Kluwer, 1990. – 251 p.
29. Dowden.B.The Liar Paradox. Annual Internet encyclopedia Philosophy.2007. 320p. Делёз Ж.Логика смысла – М.: Academia, 2011.– 298 с.
30. Forrester M. A. Psychology of Language. A Critical Introduction. –London: Sage Publications, 1996. – 216 p.
31. Galperin I.R. Stylisties. – Moscow: Higher school, 1981. – 334 p.
32. Grossman.M.Dada: Paradox, mystification and ambiguity in European literature. – New York: Pegasus Books, 1971. – 192 p.
33. Гадамер Х.Г. Язык и понимание. Актуальность прекрасного/. – М.: Прогресс, 1991. – 652 с.
34. Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка / – М.: Изд-во лит. на ин. языках, 1958. – 459 с.
35. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования/ – М.: Наука, 1981. – 138 с.
36. Танеев Б.Т. Противоречия в языке и речи–Уфа: Изд-во БГПУ, 2004. – 472 с.
37. Gaifman H.Paradoxes of infinity and self-application I. E: 1983, – 131p.
38. Goodman N.Fact, Fiction and Prediction. Harvard University Press, 1999
39. Ивин А.А. По законам логики / М.: Наука, 1983. – 208 с.
40. Jakobson R., On Linguistic Aspects of Translation, essay, 1959.

41. Juan, Epifanio San J.R. The Art of Oscar Wilde. – Princeton, New Jersey: Princeton University Press, 1967. – 238 p.
42. Казаков, А.Н., Якушев, А.О. Логика. Парадоксология: Учебное пособие для старших классов лицеев, колледжей, гимназий и студентов вузов– Ижевск: Издательский дом «Удмуртский университет», 1998. – 316 с.
43. Rescher N. Paradoxes: Their Roots, Ranges, and Dimensions. Chicago. 2001
44. Koons R. The Paradoxes of Rationality. Cambridge, University of Cambridge Press. 1992, – 166 p.
45. Луман Н. Тавтология и парадокс в самоописаниях современного общества. – М.: Прогресс, 1991. – 480 с
46. Lakoff G., Johnson M. Metaphors we live by. – Chicago, 1995. – 242 p.
47. Lyons J. Semantics – London; New York: Cambridge university press, 1977. – Vol. 1. – 278 p.
48. Смирнова Е.Д. Парадоксы и мышление//Логический анализ языка. Избранное. – М.: Индрик, 2003. – 490 С.
49. Turayeva Z. Linguistics of the text and the category of modality. Questions of Linguistics. – М.: 1994. – 111 p
50. Урнов М.В. Оскар Уайльд /На рубеже веков. Очерки английской литературы. – М.: Наука, 1970. – 300 с.
51. Виноградов В.В. О языке художественной литературы / – М.: Худ. лит., 1959. – 655 с.
52. Витгенштейн Л. Философские исследования/– М.: Гнозис, 1994. – 207 с.
53. Задорнова В.Я. Восприятие и интерпретация художественного текста – М.: Высшая школа, 1984. – 112 с.

III. Lug‘atlar

54. English Literary Terms. – Л.: Просвещение, 1967, – 327 С.
55. Большая энциклопедия. – М. 1975. – Т. 19. – 18240 С.

56. Baldick Chris. The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms //N.Y.: Oxford university press, 2001. – P . 183. – 291P.

57. The Oxford Dictionary of Quotations. Oxford, New York: Oxford University Press, 1992. – 1061 p.

58. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание.– М.: Русские словари, 1996. – 416 с.

59. Словарь литературоведческих терминов. – М.: Просвещение, 1974. – 513 С.

60. С.Ахмановой.Словарь лингвистических терминов под ред. –М.: Энциклопедия, 1969. – 571 С.

61. Longman Dictionary of English Language and Culture. – Longman Group UK Ltd., 1995. – 1528 p.

62. Lacey A.R. A Dictionary of Philosophy-3rdedn, Department of Philosophy, King's College, University of London, 1996. –P.386.

IV.Badiiy adabiyotlar

63. Wilde.O.The Fisherman and his Soul. The Picture of Dorian Gray. – Moscow: Foreign Language Publishing House, 1997. – 287 p.

64. Wilde.O. Plays. – Moscow: Foreign Language Publishing House, 1975.– 360 p.

65. Wilde.O. Letters on Dorian Gray. Mr. Oscar Wilde's Defense //Selections from Oscar Wilde. – М.: Progress Publishers, 1979. – 355 p.

66. Wilde.O.The decay of Lying. – New York.:Sunflower Edition.2014. –268p.

67. Waugh E. Decline and Fall. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – 120p

68. Уайльд О. портрет Дориана Грея. На англ. яз.– М.: Изд-во «Менеджер», 2006. – 304 с.

69. Sharafiddinov O. Dorian Grayning Portireti. –Toshkent.: Zabarjad media.2020. – 320 б.

70. Qahhor A. Asarlar. Olti tomlik. 1-t. Toshkent. 2019 .

71. Chexov.A.P. Povestlar. Hikoyalar. Toshkent. 1957

V.Dissertatsiya va avtoreferatlar

72. Бабаханова Л.Т. Структурно-семантические особенности антитезы как стилистического приема: Автореф. дис. ... канд. филол. наук – М., 1967. – 11 с.

73. Танеев Б.Т. Семантика и прагматика парадоксальных высказываний: автореф. дис. .канд. филол. наук– Уфа, 1988. – 16 с.

74. Заботина Е. Н. Когнитивное моделирование структур парадокса в современных английских скетчах: автореф. дис. кандидата филол. наук – Санкт-Петербург, 2012. – 24 с.

75. Уайльд О. Собрание сочинений в 3 т. – М., 2000. Умеренкова А.В. Лингво-когнитивное моделирование эффекта обманутого ожидания: автореф. дис.филол. наук – Курск, 2009. – 20 с.

76. Темяникова Э.Б. Когнитивная структура парадокса: на материале англ. яз.: дис. канд. филол. наук – М., 1998. – 206 с.

77. Тармаева В.Д. Когнитивная природа фразеологического парадокса (англ.яз.): дис. канд. филол. наук – Иркутск, 1997. – 214 с.

78. Левченко Е.В. Восприятие парадоксальных описаний: автореф. дис. канд. псих. наук – Л., 1984. – 16 с.

VI. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

79. Арнольд И. В. Механизмы понимания и смыслообразования текстовых произведений// Понимание и рефлексия: Материалы I и II герменевтических конференций. – Тверь.: ТГУ, 1992. – Ч.1. –36 с.

80. Арнольд И.В. О стилистической функции //Вопросы теории английского и русского языков. Ученые записки Ленингр.гос. пед. ин-та им. Герцена. – Вологда, 1970. – С. 3-12.

81. Арнольд И.В. Статус импликации в системе текста / // Интерпретация художественного текста в языковом вузе. – Л., 1983. – С. 3-14.
82. Арутюнова Н.Д. Языковая метафора (Синтаксис и лексика)// Лингвистика и поэтика. – М.: Наука, 1979. – С.147-173.
83. Бабенко И.И. Об ассоциативности как универсальном коммуникативном свойстве слова// Вестник ТГПУ, 2004. Серия «Гуманитарные науки “Филология”». Вып. 1 (38). – С. 25-28.
84. Batanouny G.M. El. Syntactic and Semantic Classification of Paradox and their Relation to Reader's Interpretation. // Journal of Literary Semantics. – Canterbury, 1991. – XX/3. – p. 129-163.
85. Борев Ю.Б. Комическое и художественные средства его отражения // Проблемы теории литературы. – М: 1958. Т I. – с. 298-353
86. Брутян Г.А. Паралогизм, софизм и парадокс // Вопросы философии, 1959. № 1. – С. 56-66.
87. Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики//Вопросы когнитивной лингвистики, 2004. № 1. – С. 18-36
88. Богин Г.И. Художественность как мера пробужденности рефлексии//Рефлексивные процессы и творчество. – Новосибирск, 1990. – Т.1. – С. 225-228.
- 89.** Богин Г.И. Акт понимания речевого произведения как процедура и как действие// Язык и коммуникация: деятельность человека и построение лингвистических ценностей. Материалы Сочинского международного colloquium по лингвистике. – Сочи, 1996. – С. 28-29.
90. Галеева Н.Л. Типология смыслов художественного текста в условиях решения герменевтической задачи//Понимание и рефлексия: Сб. науч. тр. – Тверь: ТвГУ, 1995. – Т.2. – С. 4
91. Галеева Н.Л. Понимание и интерпретация художественного текста как составная часть подготовки филолога // Понимание и интерпретация текста: Сб. науч. тр. – Тверь: ТвГУ, 1994. – С. 79-87.

92. Djumabaeva J.Sh. Translation Problems of Phraseological Units: Idioms and Set Expressions // Academic research in educational sciences, 2022. №3/4- P.906-911

93. Девкин В.Д. Парадоксы в немецком языке // Иностранные языки в школе. – М., 1988. - № 2. – С. 15-21.

94. Денисова О.К. К вопросу об использовании некоторых стилистических средств в пьесах Оскара Уайльда // Вопросы лексикологии и стилистики романо-германских языков, Иркутск, 1972. Вып. I. – с. 73-85.

95. Dilthey W. The Rise of Hermeneutics // New LitHistory. Charlottesville, 1972. – V.2. – №2. – P 229-243.

96. Jakobson R. Linguistics and Poetics. // Style in Language. – N.7., L.:J.Wiley and Sons, Inc., 1960. – p. 350-377.

97. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте // Психологический очерк. – М.: Наука, 1991. – 93 с.

98. Ching M.K. L. A literary and linguistic analysis of compact verbal paradox. // Linguistic perspectives on Literature. – London, 1980. – p. 230

99. Карасик В.И. Культурные доминанты в языке // Языковая личность: культурные концепты. Сб. науч. тр. – Волгоград - Архангельск, 1996. – С. 3

100. Карасик В.И. Типы абсурда // Аксиологическая лингвистика: игровое и комическое в общении: сб. науч. трудов. – Волгоград: Перемена, 2003. – С. 112-126.

101. Левченко Е.В. Восприятие и понимание парадоксальных высказываний // Проблемы деривации: семантика и поэтика. – Пермь, 1991. – С. 43-48.

102. Lakoff G. The Contemporary Theory of Metaphor // Metaphor and Thought / Ed. by A. Ortony. 2-nd ed. – Cambridge Univ. Press, 1993. – P. 202 - 251.

103. Успенский Л.В. Предисловие // Избранные изречения деятелей литературы и искусства. – Л.: Лениздат, 1964. – с. 50

104. Christ H.I. Irony, paradox and the Zen koan. // ETC. A Review of General Semantics. 1968 – vol. 25. – № 3. – p. 360
105. Шпекторова Н.Ю. К вопросу о литературно-художественном парадоксе (на материале произведений О. Уайльда)// Вопросы лексикологии, лексикографии и стилистики романо-германских языков. – Самарканд, 1975. – С. 218-225.
106. Падучева Е.В. Понятие презумпции в лингвистической семантике// Семиотика и информатика. – М., 1977. – Вып. 8. – с.91-124.
107. Проценко Т.А. Герменевтика в преподавании иностранных языков// Филология и культура. Сб. науч. тр. – Тамбов.: ТГУ, 1997. – С. 84-89.
108. Юсупов Ў.Қ. Тилшуносликда янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим истилоҳлар// Филология масалалари. – Т., 2011. – №2. – Б. 9-15

VII. Internet saytlar

109. <http://www.eastoftheweb.com/shortstories/UBooks/FisSou.shtml>
110. http://cogweb.ucla.edu/Abstracts/Wilde_1889.html
111. https://archive.org/details/bwb_O7-BPF-111/page/n10/mode/1up
112. <http://www.studfiles.ru/preview/1806336>
113. www.iep.utm.edu/p/par-liar.htm.